7. Nutk va tafkkurning paydo bo`lishi
8. Ishlab chiqarishga metallning kirib kelishi
9. Urug`chilik jamoasining parchalanish jareni
10. Patriarxat xakida ma`lumot
11. Bronza davri dexkonchiligi va chorvachiligi
12. Kishilik jamiyatining paydo bo`lishi
13. Tillar va etnoslar
14. Ibtidoiy jamiyat va sivilizastiya

## V. FANNI O`QITISH UCHUN TA`LIM TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISHNING KONSTEPTUAL ASOSLARI

Bilim olish jarayoni bilan bog`liq ta`lim sifatini belgilovchi holatlar: darsni юqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg`ulotlar o`tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo`llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo`naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta`lim ustuvorligini ta`minlaydi. Ta`lim samaradorligini orttirishda fanlar bo`yicha ta`lim texnologiyasini ishlab chiqishning konstepstiyasi aniq belgilanish va unga amal qilishi ijobiy natija beradi. Fanni o`qitishning maqsadi va ta`lim berish texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konsteptual yondashuvlar quyidagilardan iborat.

**FANNING MAQSADI:** "O`zbekiston tarixi" fanining mazkur dasturi O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi qonuni asosida va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida kelib chiqib, davlat standartlari bo`yicha bakalavriat darajasidagi malakali mutaxassislar tayyorlashni, ularga O`zbekiston o`tmishdagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo`lgan voqeliklar, insonlar hayoti, jamiyat taraqqiyoti to`g`risida bilimlar berishni maqsad qilib qo`yadi. O`zbekiston xalqlari tarixini o`rganish shuning uchun kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy g`oya va mafkura takomillashuvini tezlashtiradi. Юrtboshimiz aytganlaridek: “O`z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo`lmaydi».

Fanning yakunida talabalar «O`zbekiston xalqlari tarixi» kursini 3 semestrda o`rganish jarayonida mavjud o`quv dasturiga asoslangan holda masalalarning tub mohiyati, tarixiy-madaniy jarayonlarning asoslari, omillari va rivojlanishi, sabablari, oqibatlari va natijalariga katta e`tibor qaratiladi. Vatanimiz hududida qadimgi davrdan boshlab to VII asr Xorazm afrig`iylari, Farg`ona afshinlari, Choch tudunlari, Eloq dehqonlari hukmronligi davrigacha bo`lib o`tgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar haqida xolisona xulosalar chiqariladi.

Fanni o`rganishda talabalar tarixiy manbalar, ko`rgazmali qurollar, xaritalar, statistik ma`lumotlardan, Internet resurslari, shuningdek, mushohada, tahlil, kuzatish, analiz va sintez, indukstiya va dedukstiya usullaridang keng foydalaniladi.

**FANNI O`QITISH VAZIFALARI.** Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish tavsiya etiladi:

**SHaxsga yo`naltirilgan ta`lim**. O`z mohiyatiga ko`ra ta`lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta`limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma`lum bir ta`lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishga e`tibor qaratishni amalga oshiradi. Har bir talabaning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta`minlaydi. Ta`limning markaziga bilim oluvchi qo`yiladi.

***Tizimli yondashuv.*** Ta`lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo`lishiga hissa qo`shadi.

***Faoliyatga yo`naltirilgan yondashuv.*** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta`lim oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo`naltirilgan ta`limni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko`nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tatbiq etilishiga sharoit yaratadi.

***Dialogik yondashuv.*** Bu yondoshuv o`quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o`zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi. O`qituvchi va talabaning hamkorlikdagi ta`limiy faoliyat юritishiga zamin yaratadi.

***Hamkorlikdagi ta`limni tashkil etish***. Demokratlilik, tenglik, ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi o`rtasidagi sub`ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e`tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Ta`lim jarayonida "sub`ekt-sub`ekt" munosabatlari tarkib topadi.

***Muammoli ta`lim***. Ta`lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta`lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob`ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo`llashni ta`minlaydi. Muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlar yaratish va ularga echim topish jarayonida ongli, ijodiy, mustaqil fikrlashga o`rgatiladi.

***Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash -*** hozirgi axborot kommunikastiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to`g`ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko`nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda компютер savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

***O`qitish metodlari va texnikasi.*** Ma`ruza (kirish, mavzuga oid, viziuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar, loyiha va amaliy ishlash usullari. Interfaol usullarni mavzu mazmuniga mos holda tanlash va ulardan samarali foydalanishga o`rgatadi.

***O`qitish vasitalari:*** o`qitishning an`anaviy vositalari (darslik, ma`ruza matni, ko`rgazmali qurollar, xarita va boshqalar) bilan bir qatorda – axborot-komunikastiya texnologiya vositalari keng ko`lamda tatbiq etiladi.

***Kommunikastiya usullari:*** tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama (teskari) aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlarning yo`lga qo`yilishi.

***Teskari aloqa usullari va vositalari:*** kuzatish, blist-so`rov, joriy, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi amalga oshiriladi. Ta`lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish ta`minlanadi.

***Boshqarish usullari va tartibi:*** o`quv mashg`uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko`rinishidagi o`quv mashg`ulotlarini rejalashtirish, qo`yilgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg`ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati ham tartibli yo`lga qo`yiladi.

***Monitoring va baholash:*** butun kurs davomida ham o`qitish natijalari reyting tizimi asosida nazorat va tahlil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma, og`zaki yoki test topshiriqlari yordamida ta`lim oluvchilarning bilimlari baholanadi.

## VI. MA`RUZALAR KURSI

### 1-mavzu: O`zbekiston tarixi fanining predmeti va vazifalari. O`rganish metodologiyasi va fanlar bilan bog`liqligi.
### Fanni o`qitish texnologiyasi:
### « O`zbekiston tarixi fanining predmeti va vazifalari. O`rganish metodologiyasi va fanlar bilan bog`liqligi» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarga O`zbekiston tarixi fanining predmeti va vazifalari, uni o`rganish ahamiyatini o`rgatish<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• O`zbekiston xalqlari tarixi fan sifatida ta`riflaydi.<br>• Uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o`rnini ochib beradi.<br>• Kursni o`rganishning maqsad va vazifalari, predmetini aniqlaydi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Vatan tarixi, tarix predmeti, tarix metodologiyasi, fan vazifasi, manbasi, davrlashtirish.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Fanning predmeti va funkstiyalarini aniqlash.<br>• Aqliy hujum usulidan foydalangan holda O`zbekiston hududida insoniyat taraqqiyoti davrlarini tahlil qilish<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• O`zbekiston tarixi fanini o`rganishning axamiyati nimada ?<br>• O`zbekiston xududida ibtidoiy jamiyat bo`lganmi? Kaysi manbalarni bilasiz? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: O`zbekiston tarixi fanining yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashdagi rolini ko`rib chiqish va tezis tayerlash. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. O`zbekiston tarixi fanining predmeti va vazifalari.
2. O`rganish metodologiyasi va manbalari
3. O`zbekiston tarixini davrlashtirish.
4. O`zbekiston mustaqil va yirik mamlakatlar katoridan urin olishi xamda yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashdagi roli.

**Tayanch iboralar:** Vatan tarixi, tarix predmeti, tarix metodologiyasi, fan vazifasi, manbasi, davrlashtirish.

**1-asosiy savol:** O`zbekiston tarixi fanining predmeti va vazifalari.

**1-asosiy savolning bayoni:**

Tarix - kishilik jamiyatini aniq taraqqiyot yo`lini xar tomonlama va ziddiyatli bo`lgan yagona qonuniyatli bir prostess tarzida o`rganuvchi ijtimoiy fanlar ichida asosiy o`rinni egallaydi. SHunday ekan, xar bir inson o`z Vatani tarixini yaxshi bilishi va o`zga mamlakatlar tarixi va madaniyatiga xurmat bilan qarashi lozim.

Darxaqiqat, tarix odamlarni o`ylantiradi, bo`lib o`tgan tarixiy voqea va xodisalarni taxlil qilish, fikrlash va ulardan amaliy xayotiy xulosalar chiqarishga o`rgatadi.

Tarixni - milliy o`zlikni anglashda, milliy birlikni shakllantirishda, shajaramiz ulug`ligi va pokligini bilishda, o`zbek xalqimizning jaxon xalqlari orasida tutgan o`rniga baxo bershida, barkamol xaqiqiy inson shaxsini yaratishda o`rni benixoya kattadir.

YOshlarga Vatan tarixi va madaniyatini, jug`rofiyasi va iqtisodini, qadimiy urf-odatlarimizni xar tomonlama o`rganish katta axamiyatga egadir.

Bog`chalardan to oliygoxlargacha bo`lgan ta`lim-tarbiya tizimida fan sirlarini, madaniyatini o`rgatish tarix fanining asosiy vazifasi bo`lmog`i lozim. SHuningdek, tarix fani ajdodlarimiz xayoti va ularning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari xaqida xikoya qilishini xam unutmasligimiz kerak.

**2-asosiy savol:** O`rganish metodologiyasi va manbalari.

**2-asosiy savol BAYONI:**

Tarixda xech bir narsa izsiz yo`qolmaydi. Bu izlarni biz tarixiy manbalar, ya`ni moddiy va ma`naviy manbalar asosida bilib olamiz. Moddiy manbalar insoniyatning ko`li bilan bunyod etilsa, ma`naviy (yozma) manbalar tafakkuri bilan yaratiladi. Bundan tashqari, O`zbekiston tarixini yoritish va o`rganish tubandagi metodologik asoslarga tayanadi:

1) Kadim zamonlardan to shu kunlarga qadar ulug` ajdodlarimiz, buюk allomalar va dono mutafakkirlar, shoirlar, yozuvchilar, ma`naviy boy asarlar.
2) Turli xujjatxonalarda saqlanayotgan ko`lyozma asarlar, xujjatlar, ashyolar.
3) Kutubxonalarda saklanayotgan yozma kitoblar, ilmiy, badiiy asarlar, darsliklar, ko`lyozmalar, to`plamlar.
4) Xar xil muzeylarda saklanayotgan ko`rgazma zallari xujjatlari, birinchi navbatda arxeologiyaga oid kazilma yodgorliklari
5) Muzey-shaxarlar, tarixiy obidalar, yodgorliklar
6) Kino, fotoxujjatlar

Tariximizni o`rganishda "Bexistun" qoyatosh yozuvlari, юnon-rim-xitoy manbalarining ro`li katta.

SHuningdek, Vatanimiz tarixini o`rganishda tubandagi eng muxum tarixiy manbalarning xam roli kattadir:

1. "Avesto" - zardushtiylikning muqaddas kitobi bulib, u qat`iy qilib belgilangan qonun-qoidalar demakdir. Zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht davrida yig`ilgan diniy marosimlar, duo-ю takbirlar, suraю-oyatlar sifatida yig`ilib, tartibga solinib, Zardusht o`limidan bir necha asr keyin unga "Avesto" nomi berildi. "Avesto" o`zbek davlatchiligini muxrlab bergan asosiy manba xisoblanadi.
2. Al-Beruniyning ilmiy merosi, ya`ni o`tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar, Xindiston, Xorazm tarixi kabi asarlari.
3. Al-Xorazmiyning "Al-jabr val muqobalar" - tenglamalar qarshilantirish xisobi kitobi, er surati, tarix kitobi, astronomik jadval, kuyosh soatlari kabi risolalari.

Umuman buюk allomalarimizning ilmiy meroslari shular jumlasidandir.

Tarix fanini o`rganishda bir necha fanlarning aloqadorligi xam katta axamiyatga egadir. Tarixni o`rganishda "Arxeologiya", ya`ni qadimshunoslik fanining ro`li katta.

Antropologiya (odam xaqidagi) fani esa insoniyatni suyaklarga qarab, kelib chiqishi va rivojlanishi xaqida ma`lumot beradi. Insoniyatning urf-odatlari, an`analari, madaniy taraqqiyoti xaqida Etnografiya, ya`ni xalqlar tavsifi xaqidagi fanning ro`li katta. Kadimgi tillarni Lingvistlar o`rgansa, Xronologiya (vakt to`grisida) fani vaktni юz va ming yilliklar bilan o`lchaydi.

Tarixni o`rganishda Geneologiya (shajara-sulola) soxasi esa insonlarning kelib chikishi va karindoshlik alokalari asosida o`rganadi.

**3-asosiy savol:** O`zbekiston tarixini davrlashtirish.

**3-asosiy savol BAYONI:**

O`zbekiston xalklari tarixi fanini o`rganishda O`zbekiston tarixiy tarakkiyotini tubandagi davrlarga bo`lib, o`rganish tavsiya kilinadi:

I - Kadimgi davr (ibtidoiy va kuldorlik davri)

II - O`rta asrlar davri yoki erga egalik munosabatlarining shakllanish va rivojlanish davrlari

III - Mustamlakachilik davri

IV - O`zbekistonda mustabid sho`rolar xukmronligi davri

V - Milliy istiklol davri

Vatanimiz xalklarini uzok davrlardan beri milliy mustakillik uchun olib borgan kurashlari o`zining mevasini berdi, ya`ni 1991 yilning 31 avgustida O`zbekiston mustakilligi e`lon kilindi va 1 sentyabr mustakillik kuni deb kabul kilindi.

**4-asosiy savol:** O`zbekiston mustaqil va yirik mamlakatlar katoridan urin olishi xamda yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashdagi roli.

**4-asosiy savol BAYONI:**

Mustakil Vatanimiz er maydoni 447,4 ming km2 bo`lib, Angliya, Beльgiya, Daniya, SHveystariya va Avstriya mamlakatlarining yig`indisidan xam kattadir.

O`zbekistonda 129 millat vakillari yashab, ular 23 millionli O`zbekiston axolisini tashkil etadi. O`zbekiston xozirgi kunda mustakil davlatlar katoridan munosib o`rin egallab turibdi.

Vatan tarixi:

1) Etuk, barkamol insonni tarbiyalashda, ularning g`oyaviy-siyosiy va ilmiy dunyokarashini shakllantiradi;

2) YOshlar ongida milliy o`zllikni shakllantirishda, istiklol tafakkurini rivojlantirishda, xozirgi ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy turmushni o`tmish bilan kiyoslash va kelajakka nazar solish malakalarini shakllantiradi.

3) YOshlarimizni otashin xarbiy vatanparvarlik an`analari ruxida tarbiyalaydi.

4) YOsh avlodni g`lug` xalkimizning oliyjanob milliy kadriyatlari va axlokiy fazilatlari - xalollik, poklik, odillik, adolatlilik, insonparvarlik, rostgo`ylik, mexnatsevarlik, kamtarlik, iymonlilik, e`tikodlilik ruxida tarbiyalaydi va Vatan va xalk oldidagi burchiga sadokatlilikni karor toptiradi.

5) YOshlarimizni baynalmilalchilik ruxida tarbiyalaydi va shu asosda ular O`zbekistonni jaxon xamjamiyatining ajralmas bir bulagi ekanligini bilib oladilar.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. O`zbekiston tarixi fanini o`rganishning axamiyati nimada ?
2. O`zbekiston tarixi fanini o`rganishning etuk insonni tarbiyalashdagi o`rni va roli xaqida gapirib bering.
3. O`zbekiston xududida ibtidoiy jamiyat bo`lganmi? Kaysi manbalarni bilasiz?
4. O`zbekiston xududida suniy sug`orish qaysi vaqtda boshlangan?

**Adabiyotlar:**

1. I.Karimov. O`zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yulida. T, 1995.

2. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. T, 1998.
3. I.Karimov. O`zbekiston XXI asr busag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T, 1997.
4. O`zbekiston tarixini o`qitish konstepstiyasi. T, 1996.
5. M.E.Aminjonova. Kadimiy yodgorliklar qissasi. T, 1968.
6. B.A.Axmedov. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T, 1990.
7. A.Kabirov, A.S.Sagdullaev. Urta Osiyo arxeologiyasi. T, 1990.
8. A.S.Sagdullaev. Kadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda. T, 1996.
9. B.Turg`unov. O`zbekiston antik madaniyati. T, 1976.
10. T.Xo`jayov, K.Abdullaev. Ajdodlarimiz qissasi. T, 1990.
11. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
12. SH.Karimov, R.SHamsutdinov. Vatan tarixi. T, 1997.
13. Birinchi chaqiriq O`zbekiston respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi materiallari. 23-24 fevral 1995 y.
14. O`zbekiston tarixi. T, 1999.
15. O`zbekiston Respublikasi enstiklopediyasi. T, 1997.

## 2-mavzu: O`rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi. Ibtidoiy tarixning davr va bosqichlari.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:
### « O`rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi. Ibtidoiy tarixning davr va bosqichlari» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarni O`rta Osiyoda ibtidoiy davrlar ularning o`ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• O`rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi to`g`risida ma`lumot beradi.<br>• Ibtidoiy tarixning davr va bosqichlarini ochib beradi va ma`lumot beradi.<br>• Ibtidoiy odamlarning tiplari, irqlarini ta`riflaydi, ular haqida tushuncha beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Tarixiy manba, moddiy manba, ma`naviy manba, tarixiy davr, ibtidoiy to`da, ibtidoiy jamoa, urug`ilik davri, qadimgi odamlar, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, temir davri.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
|  | **Guruhda ishlash.**<br>• Talabalarning fikrlari ketma-ketlikda eshitiladi.Boshqa fikir, e`tirozlar bormi?-deb so`raydi.Bor bo`lsa, izohlash talab etiladi. |  |

| | | |
|---|---|---|
| **3** | Boshqa talabalar baxsga jalb etiladi.<br>• Talabalar fikrlaridagi o`xshashlik va qarama-qarshi tomonlar xamkorlikda aniqlanadi,boshqa fikirlar ham tahlil qilinadi.<br>• Barcha talabalar tomonidan aytilgan fikrlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va eng to`g`ri fikr jamlanadi.<br>• Aytilgan g`oyalar to`ldiriladi,asosiy O`zbekiston tarixining davrlashtirish sanab o`tiladi. | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| **4** | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• O`zbekiston tarixi manbalarining qanday turlari bor?<br>• O`zbekiston tarixi qanday davrlartiriladi?<br>• O`zbekiston hududidagi ilk odamlar tiplari qanday bo`lgan? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| **5** | **<u>O`quv mashg`ulotini yakunlash.</u>**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• YAkuniy fikrlar aytiladi. Talabalar bilimini baholash uchun UUMdagi test savollari beriladi. Talabalar bilimi baholanadi (baholash me`zoni asosida) | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Tarixiy manbalar
a) Moddiy manbalar
b) Ma`naviy manbalar
2. Ibtidoiy tarixning davr va bosqichlari:
a) Tarixiy davrlar.
b) Arxeologik davr va bosqichlar.
3. Kadimgi tosh davri va uning xususiyatlari.
4. Ibtidoiy odamlarning tiplari va ibtidoiy irqlar.

**Tayanch iboralar:** Tarixiy manba, moddiy manba, ma`naviy manba, tarixiy davr, ibtidoiy to`da, ibtidoiy jamoa, urug`ilik davri, qadimgi odamlar, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, temir davri.
**Mavzuga oid muammolar:**
O`zbekiston tarixi manbalarining tahlil qilishdan iborat.
Tarixiy davrlashtirish va maxsus davrlashtirishning moxiyatini tushantirish.
Arxeologik va antropologik tadqiqotlarni izohlab berish.
Gominid ya`ni odam sifat insonlar oilasi va gominid hamda ularning urug` ko`rinishlarining sistematizastiyasi to`g`risidagi tadqiqotlarni tahlil qilishdan iborat.
Ibtidoiy jamoa tarixini o`rganishga oid antik dunyo hamda o`rta asrlar va keyingi yillarda tadqiq etilgan tarixiy va falsafiy muammolar batafsil tahlil etilishi lozim.

**1-asosiy savol:** Tarixiy manbalar: a) Moddiy manbalar; b) Ma`naviy manbalar
**1-asosiy savolning bayoni:**

Odamzodning paydo bo`lganidan to xozirgi davrga qadar, inson tarixi xech qachon bir xilda rivojlanmagan. Inson asta-sekin ibtidoilikdan murakkablikka rivojlanib borgan.

TARIX - kishilik jamiyatining anik taraqqiyot yo`lini xar tomonlama va ziddiyatli bo`lganligini yagona konuniyatli bir prostess tarzida o`rgatadi.

TARIX- xalq xotirasi, vatanimizning o`tmishi, avlodlar sevib, e`zozlab o`rganib saboq oladigan xayot maktabidir. Bu xaqda Nasaviy:

Kimki tutmas qalbida tarixni,
U inson xam emas, olim xam emas.
Biroq kimki uqsa o`tmishini,
Kup boyitar uz turmushini deb yozadi.

Shunday ekan, biz tarixni manbalarsiz o`rganib xam, tasavvur qilib xam bilmaymiz. Mavjud manbalarning barchasi tarixiy manba xisoblanib, ular moddiy (ashyoviy) va ma`naviy (yozma) manbalarga bo`linadi.

Ma`lumki, tarixda xech bir narsa izsiz yo`qolib ketmaydi. Bizgacha arxeologik tekshirishlar natijasida qolgan turli asboblarni , qurol yarog`larni, taqinchoq va sopol idishlarni izlarini yoki o`zlarini topib o`rganish natijasida o`tmish avlodlarimizni kanday yashaganliklarini va nimalardan foydaanganliklarini bilib olamiz. Tarixni moddiy(ashyoviy) manbalar (2) asosida bizga Arxeologiya, ya`ni qadimiyat to`g`risidagi fan o`rgatadi. Arxeologlar moddiy manbalardan tashqari odam suyaklarini xam topib, qiyofasini, kelib chiqishini va rivojlanishini Antropologiya, ya`ni odam xaqidagi fan o`rgatadi. Xalqlarning urf odatlari, xujaligi va madaniyatini "Xalqlar tavsifi", ya`ni Etnografiya o`rgatadi.

Demak, insoniyat mexnat faoliyati jarayonida o`z qo`llari bilan yaratgan bo`lsa bularning barchasi moddiy madaniyat ashyolari xisoblanadi. Lekin tariximizni bilishimiz uchun, faqat bular kifoya qilmaydi. SHuning uchun moddiy manbalar bilan birga yozma ya`ni ma`naviy manbalar xam asosiy ro`l o`ynaydi.

O`zbekiston tarixi bo`yicha eng qadimgi yozma manba "AVESTO" xisoblanadi. "Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo`lib, bundan 2700 yil oldin Xorazmda yaratilganligi aniqlandi va юrtimizning tarixiy viloyatlari: ya`ni dastlab Vanxvi Daiti (Amudaryo) ortida Aryonam Vayjoni (Xorazm), keyin sug`diylar yashaydigan Gava, qudratli Mouru (Margiyona) ni, keyin guza va bayroqlari baland ko`tarilgan Baxdi (Bakteriya) tilga olingan.

qadimgi davr tariximizga oid yana bir yozma manba, Doro I ning buyrug`i bilan uch tilda (fors, elam, bobil tillarida) qoyaga o`yib yozilgan, xozirda Eronning Kirmanshox shaxri yaqinida joylashgan Bexistun qoya tosh yozuvlaridir (3). Bu yozvda(4) 8-guruxda Sug`diylar qo`llarida ikki bosh qo`y etaklab kelayotganligi tasvirlangan.

O`n birinchi - guruxda Saka - tigraxaudalar ya`ni uchi o`tkir kiygiz qalpoqli saqlar, Xozirda Toshkent viloyati va janubiy Kozogizston viloyatida yashaydigan qozoq va qirgizlar tasvirlangan.

O`n uchinchi guruxda -Parfiyalik (Turkmanistnoning Angabat viloyati va unga yaqin bo`lgan shimoliy-sharqiy Eron) lar yozilgan.

O`n beshinchi guruxda -Bakteriyaliklarni tuya etaklaganliklari yozilgan.

O`n ettinchi guruxda - xorazmliklar ot etaklaganliklari, kalta qilich va oybolta bilan qurollanganliklari yozib qoldirilgan, bundan tashqari , Tarixning otasi Gerodot o`zining 21 kitobdan iborat "Tarix" asarida, miloddan avvalgi v - asrda o`lkamiz axolisi xaqida batafsil ma`lumotlar beradi.

Юnon tarixchilaridan yana Ksenofont, Ktesiy (mil avv Y-YI asrlarda), Straban (mil avv I -asrda), Xitoy tarixisi Sima STzyanь (mil avv II-asr oxiri - I asr boshlari) o`zining "Tarixiy yilnomalar" asarida, Kurstiy Ruf Rim tarixchisi "Buюk Aleksandr tarixi" asarida (milodning I -asrida), Arrian "Iskandarning xarbiy юrishlari"asarida (milodning II-asrida), Klavdiy Ptolemey "Baqteriya axolisi va shaxarlari xaqida (milodning II-asrida), Polein "SHiroq"ning jasorati xaqida yozib qoldiradilar.

**2-asosiy savol:** Ibtidoiy tarixning davr va bosqichlari: a) Tarixiy davrlar; b) Arxeologik davr va bosqichlar.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Insoniyatning ibtidoiy davri eng uzoq davom etgan va xamma joylardagi kishilar bu bosqichni o`z boshidan kechirgan davr xisoblanadi.

Tarixiy davrlar (5-rasm) ibtidoiy to`da va urug`chilik jamoasi davriga bo`linadi.

Ibtidoiy tuda davri dastlabki kishilik jamoasini xayvonot olamidan insoniyat olamiga o`tish davri bo`ladi. Bu davrda odamlar yirtqich xayvonlardan qo`rqqanligidan to`da-to`da bo`lib yashaganlar. Lekin ibtidoiy to`da bilan urug`chilik boskichlari o`rtasida farq bo`lib, urug`chilik bosqichida ongli, aqlli zot dunyosiga o`tish shakllanadi va urug`da raxbarlik ona tomonidan bo`ladi va davr MATRIARXAT - ona urug`i davri deb юritiladi.

SHuni aloxida ta`kidlash kerakki, er юzi tarixida eng buюk voqea odamzotning xayvonot dunyosidan ajralib chiqishidir Ibtidoiy jamoa davrini o`rganishni eng muxim muammolaridan biri Antropogenez odamning paydo bo`lishi va rivojlanish muammosidir, shu erda neandertal va kraman`on odamlarni qiyofasini ko`rsatish kerak. Bu muammoni turli mamlakatlarda turlicha fikirlashadilar.

Jumladan: Xitoy va юnon faylasoflari miloddan avvalgi V – VI asrlarda odamni kelib chikishi tamomila xodisa deydilar.

Юnon faylasofi Arastu (mil avv 384 - 322 y) odam xayvonot dunyosidan tabiat erishgan barcha narsalarning cho`qqisidir deb ko`rsatadi.

"Odam" degan tushuncha keng ma`nosini ochib bergan, XVIII asrda yashagan fransuz ma`rifatparvari Jan Jak Russodir.

Karl Linney esa shved tabiatshunosi (1707 - 1779) xayvonot dunyosi tarkibida odamning tabiatdagi o`rnini topishga xarakat qilib, odamni xayvonot dunyosidagi olti guruxdan biri - sut emizuvchilar yaьni Derapetiklar guruxiga kiritadi.

**3-asosiy savol:** Kadimgi tosh davri va uning xususiyatlari.

**3-asosiy savolning bayoni:**

Olimlar xar xil davrlarga oid arxialogik yodgorliklarni ilmiy o`rganish natijasida ibtidoiy ajdodlarimizni mexnat qurollari va ularning ishlash texnalogiyasiga qarab ibtidoiy jamoa tuzimi arxeologik jixatdan tubandagicha davrlarga bo`lganlar.

I. Insoniyatning ilk davri tosh davri bo`lib, ilk ajdodlarimiz mexnat qurollarini toshdan yasaganlar. SHuning uchun xam tosh davri deb aytilgan.

Tosh davri xam o`z navbatida quyidagi davrlarga bo`linadi:

I. Poleolit - qadimgi tosh davri:

Ibtidoiy tuzumning dastlabki va eng uzok davom etgan bosqichidir. SHuning uchun xam bu davr o`z navbatida 3 davrga bo`linadi.

2. Ilk poleolit davri miloddan avvalgi 1 mln -100 ming yilliklarni o`z ichiga oladi. Bu davrdagi odamlar xam aqliy, xam jismoniy jixatdan xozirgi qiyofadagi odamlardan farq qilgan, Dastlab ular termachilik va xayvon ovi bilan shugillanganlar.

Bu davrda yashagan ajdodlarimizning manzilgoxlari Farg`ona vodiysining Sux tumanidagi Selung`ur goridan va Toshkent viloyatining Ko`lbulok makonidan topilgan.

Selung`ur g`orida 1958 yilda A.P.Okladnikov tomonidan o`rganilgan manzilgoxni, 1980 yil o`rtalarida o`zbek arxeologi U. Islamov o`rganib. Toshdan ishlangan boy mexnat qurollarini topdi. Selьung`ur odamini Fargonadan topilganligi uchun fergantrop yaьni Farg`ona odami deganlar. Bu Ashelь davrining ilk bosqichidagi odam bo`lsa, ko`lbulokdagi Ashelning so`ngi davriga xosdir deb ko`rsatadi o`zbek arxeologi M. R. Kosimov. U 1963 yildan bu erda arxeologik tadqikotlar olib bordi.

**4-asosiy savol:** Ibtidoiy odamlarning tiplari va ibtidoiy irqlar.

**4-asosiy savol BAYONI:**

Ilk paleolit davrida dunyo miqyosida miloddan avvalgi 3-2 mln yil ilgari Sharqiy Afrikaning Olduvay darasidan Olduvay madaniyati topilgan. Bular odamzodning I-tipiga kiruvchi zinjantroplar, yaьni Driopiteklar guruxiga kiritilgan. Bularni 1959 yilda Amerikalik olimlar aniqlanganlar. Inson faqat Avstriyadan topilgan Driopiteklardan tarqalgan. Ajdodlarimizning xayvonot dunyosidan odamzod dunyosiga qo`ygan birinchi qadami Avstralopiteklar davrida sodir bulgan. Mexnat ularni xayvonot olamidan ajratgan.

II-tipi Pitekantroplar bulib, 1891-1892 yillarda Gollandiyalik olim Dюbua YAva Orolidagi topilgan odamning suyak qoldiqlarini o`rganadi va 1-1, 5 mln yil burun Driopetik bilan Neandertal oralig`idagi odam deb topadi. Driopetik daraxtda юruvchi odam bo`lsa, Petikantrop ikki oyoklab юruvchi odam bo`lgan. Bular toshni- toshga urib mexnat qurollari yasay boshladilar

III-tipi Sinantrop (Xitoy odami) bo`lib, 1927 yilda Kanadalik olim Blek o`rganadi va bundan 400-500 yil oldin yashagan deb ko`rsatadi. Sinantroplar yashagan g`ordan qalin qum qatlami topiladi IY-tipi Miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarda yashagan, jismoniy tuzilishi jixatdan xozirgi zamon odamiga juda yaqin, lekin farqlanuvchi , chegara odami Arxantroplar bo`lib, bular Germaniyaning Neandertal vodiysida topilganligi uchun bularni Neandertallar deb юritadilar. Bu tip odamlari ilk paleolitning so`nggi boskichi va O`rta paleolit davrida yashagan. Bular 100 ming yil oldin past bo`yli, peshonasi bo`rtib chikmagan, qosh osti qabarig`i baland, pastki jag`i yuq, ikki oziq tishi bo`rtib chiqqan bo`lib, qo`l panjalari kalta va yo`gon bo`lgan. 40 ming yil burun esa zamon odamlariga yaqin bo`lgan. Bular pishirilgan go`sht iste`mol qilishgan .

Neandertallar O`zbekistonnning Boysun togining Teshiktosh g`oridan topildi, 1983 yil A. P. Okladnikov tomonidan. Lekin 1999 yildagi qayta tekshirishlar bo`yicha oldin o`g`il bola deb kelishgan Neandertal odami, 9 yashar qiz bola ekanligini aniqladilar. Neantertallarning 50 dan ortik manzilgoxlari topildi. Toshkent viloyatidan Obiraxmat, Xo`jakent, Ko`lbuloq, Samarqand viloyatining Ko`tirbuloq, Zirabuloq, Xo`jamizgul, Buxoro viloyatining Kizil Nurota, Omonko`ton, Navoiy viloyatining Uchtut makonlarida mexnat qurollari topilgan. (12-13 rasmlar).

Neandertallarning xayoti og`ir kechgan, chunki ular sovuq iqlim bilan kurashganlar, asosiy mashguloti xayvon ovi bo`lgan. Ular narigi dunyoga ishonib yashaganlar va dastlabki diniy tasavvurlar paydo bo`lgan. Bu davr mustьe davri deb юritiladi

3. So`nggi paleolit davri 40-12 ming yilliklarda bo`lgan. Bu davrda ibtidoiy to`dadan ibtidoiy urug`chilik davriga o`tiladi. Odamlarining turmush tarzida, munosabatlarida, dunyoqarashida, jismoniy tuzilishida keskin o`zgarishlar bo`ladi, ya`ni oyok-ko`l xarakatlarida chaqqonlik bo`ladi. Olimlar bu davr odamlarining Xomo Sapiens ya`ni aqlli, ongli odam deb nom beradilar. Bu tip odamlari Fransiyaning Kroman`on goridan topilganligi uchun, xozirgi qiyofadagi Kroman`on odamlar deb юritiladi.

Xozirgi zamon kiyofasidagi odamlarning shakllanishi Bilan evropoid, negroid, mongoloid irqlari xam shakllanadi.

Kromanьonlar baland bo`yli, komatli, bosh suyagi, юzi uzunchoq, rangi ok, ko`zi ko`k, sochlari sariq bo`lgan.

Negroid irqi odamlari kroman`onlardan past, elkasi keng, tishlari bo`rtib chiqqan, pastki jag`i uncha rivojlanmagan, sochlari jingalak, labi yo`g`on bo`lib, Afrikada tarkalgan .

Mongoloid irq SHimoliy, markaziy va Sharqiy Osiyoda tarqalgan va past bo`yli, bosh suyagi dumaloq, юzlari keng, ko`zlari qisiq bo`lgan.

Bu davrda odamlar (jamoalar) onalar atrofida paydo bo`lgan. SHuning uchun bu davr matriarxat davri deb юritiladi. Bir urug`dan tarqalgan odamlar guruxi tashkil topdi. Bu davrda tosh qurollarning vazifa doirasi kengaydi. CHakmoqtoshdan kesuvchi, arralovchi, shiluvchi, teshuvchi mexnat qurolalri yasaladigan bo`ldi. Bu davrda onalar e`zozlanib ularning siymolari yaratildi.

Tosh qurollar yordamida xayvonlarning shox va suyaklaridan mexnat qurollari yasash joriy qilindi. Suyak bilan ishlash jarayonida birinchi bor tasviriy san`at namunalirini yasash kashf etildi, dastlab Ispaniyaning Altamir va Boshkirdistonning Kapava g`oridan koya tosh tasvirlari topildi, ammo O`zbekistonda mezolit davrida cheqilgan edi.

Юqori paleolitda odamlar doimiy kulbalar qurushni kashf etdilar.

So`nggi paleolit manzilgoxi 1939 yilda N.G.Xorlamov tomonidan Samarqandning Siyobga soyidan, Kasimov ko`lbuloq konlarini o`rganadilar.

II-Mezolit (O`rta tosh davri) - 12-7 ming yil burun, iqlimning iliqlashishi, muzlikning erishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda o`q-yoy kashf etildi. Yirik xayvonlar o`rniga mayda tez chopar xayvonlarni ovlaydigan bo`ldilar. Balik ovi vujudga keldi.

Daryo, qo`l va o`rmonlar paydo bo`ldi. Insoniyat dastlab itni qo`lga o`rgatdi. Bu davr termachiligida yovvoyi boshoqli o`simliklarni iste`mol qilishga o`tildi va ayollarning mashg`ulotiga aylandi.

Mezolit davri manzilgoxlari Obishir-1, Obishir–5 topildi. Bu davrda tasviriy san`at namunasi bo`lgan surxondaryoning zarautsoy qoyatosh suratlari kizil rang bilan ishlangan "YOvvoyi xayvonlarni ov qilish" manzarasi axamiyatlidir.

III - Neolit (yangi tosh) davri - miloddan avvalgi 6 - 4 ming yilliklarni o`z ichiga oladi. Neolit tushunchasini fanga arxeolog Lebbok kiritadi. Bu davrda toshni pardozlash, burg`ilash, qirtishlash usullari paydo bo`lgan. Daydi xayotdan o`troq xayotga o`tilgan. Dexqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik vujudga kelgan Sopol buюmlar (keramika) paydo bo`ldi bu davrda ilgarigi xayvon terisi o`rniga. Jundan matodan kiyim-kechak tikiladigan bo`ldi. Neolit davri manzilgoxlari xozirgi Turkmanistondagi CHaqmoqli va joytun manzilgoxlaridir. Kadimgi Xorazmda esa kaltaminor madaniyatidir, IV-eneolit (mis-tosh) davri - miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklarni o`z ichiga oladi. Bu davrda tosh bilan birga misdan xam foydalanganlar.

V-Bronza davri markaziy Osiyoda bronza davri milloddan avvalgi 3 ming yillik o`rtalarida boshlanib, 2 ming yillikda юksak darajada rivojlangan, Bronza-mis, qalay, qo`rg`oshin qorishmalaridan iborat bo`lgan. Bu davrda xayvonlar qo`shilgan g`ildirakli aravalar paydo bo`lgan. (rami) VI-Temir asri- o`rta Osiyoda temir davri bundan 2500 yil ilgari paydo bo`lgan. Sug`orma dexqonchilikni rivojlanishi natijasida, dastlabki shaxarlar Jarqo`rg`gon va Oltintepa paydo bo`ldi. Demak, tariximizga nazar tashlasak, xaqiqattan xam O`zbekiston jaxon stivilizastiya taraqqiyotida asosiy o`rin egallagan o`lka xisoblanadi.

## NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. O`zbekiston tarixi manbalarini tavsiflab bering.
2. O`zbekiston tarixining ibtidoiy davrlarini ko`rsatib bering.
3. O`zbekiston tarixining arxeologik davrlarini ko`rsatib bering.
4. O`zbekiston hududidagi ilk odamlar tiplarini tavsiflab bering.

## ADABIYOTLAR:


1. Karimov. I. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. T. 1998.
2. O`zbekiston tarixini o`qitish konstepstiyasi. T. 1996.
3. Axmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T. 1990.
4. Sagdullaev. A. S. Kadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda. T. 1996.
5. Sagdullaev. A. S., Eshonov. O`zbekiston tarixi 1- kitob. T. 1997.
6. Xo`jayov T, Abdullaev K. Ajdodlarimiz kiyofasi. T. 1990.
7. O`zbekiston Respublikasi Enstiklopediyasi. T. 1997.
8. O`zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. T. 2000.
9. Fan va turmush. 1990 yil 6 - soni.
10. Fan va turmush. 1999 yil 4 - soni.
11. Avesto. Toshkent. 2001 yil


## 3-mavzu: O`rta Osiyoda paleolit davri odamlari, ularning mexnat faoliyati, yodgorliklari. Urug` jamoasi davrida O`rta Osiyo.

### Fanni o`qitish texnologiyasi: «O`rta Osiyoda paleolit davri odamlari, ularning mexnat faoliyati, yodgorliklari. Urug` jamoasi davrida O`rta Osiyo» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda O`rta Osiyoda paleolit davri, uning o`ziga xos xususiyatlari, bu davr odamlari va yodgorliklari, urug` jaoasi haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Paleolit davrlarini ajratadi.<br>• Paleolit davri bosqichlarida ibtidoiy odamlar haqida fikr юritadi.<br>• O`zbekistonda paleolit davri bosqichlariga tavsif beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Ilk paleolit, o`rta paleolit, so`nggi paleolit, urug` jamoasi, mehnat qurollari, erto`la, aylasimon uy, nayza, paykon, ona urug`i, ovilik.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Qadigi tosh asrining o`ziga xos xususiyatlari xususida talabalarning fikrlarini aniqlash<br>• Aqliy hujum usulidan foydalangan holda insoniyatning taraqqiyoti omillarini tahlil qilish<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Qadigi tosh asrini nima uchun shunday nomlangan?<br>• Qanday paleolit davri manzilgohlarini bilasiz?<br>• Paleolit davrini tavsiflang | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: Qadimgi tosh asrida tabiat, hayvonot olami va inson mavzusida hikoya tayerlash. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. O`rta Osiyoda xozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning shakllanishi.
2. Kadimgi tosh asrining so`nggi bosqichida odamlarning turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlaridagi o`zgarishlar.
3. Ona urug`i jamoasini vujudga kelishi va onalar mavkeini ortib borishi.

**Tayanch iboralar:** Ilk paleolit, o`rta paleolit, so`nggi paleolit, urug` jamoasi, mehnat qurollari, erto`la, aylasimon uy, nayza, paykon, ona urug`i, ovilik.

**1-asosiy savol:** O`rta Osiyoda xozirgi qiyofadagi qadimgi odamlarning shakllanishi.
**1-asosiy savolning bayoni:**
Miloddan avvalgi 40-35 ming yil avval tosh davrining so`nggi boskichi, yaьni so`nggi paleolit yoki юkori paleolit davri boshlanib - u 12-10 ming yilliklargacha davom etgan. Bu

davrning eng muxim vokeasi: ibtidoiy to`da davridan urug`chilik jamoasiga o`tila boshlangan.

Xozirgi zamon odamlariga o`xshash odamlar, yaьni kromaньonlar vujudga kelishi uchun zamin xozirlangan. Zamonaviy kiyofali odamlarni vujudga kelishi bilan yirik xayvonlarni ov kilish jarayoni rivojlanadi.

Mexnat bilan bog`lik mexnat kurollari, toshni yo`nish usullari (sindirib olish, o`tkirlash) takomillashadi. Mexnat kurollari prizmali, konussimon shaklda suyakdan va yogochdan xam kilingan.

So`nggi paleolitning ютuklaridan biri nayza paykon, irg`itiladigan nayza, nayza otkichlarning ixtiro kilinishidir. Bu kurollar ishlatilishiga karab : ov kilish, go`shtni nimtalash, teriga ishlov berish, balik ovlash sanchki (garpun), karmok, suyak ignalarga ajratilgan.

**2-asosiy savol:** Kadimgi tosh asrining so`nggi bosqichida odamlarning turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlaridagi o`zgarishlar.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Odam tashki muxitga moslasha borgan, uning yashash xududi kengaygan. Odamlar bu davrda fakat g`orlarda emas, tekisliklarda xam makon kura boshlaganlar, yaьni erto`la va chaylasimon uylar kura boshlaganlar. Bunday makonlar Samarkand tumani Ko`lbulok, Toshkent viloyatidagi Oktosh makonlaridir.

So`nggi paleolit odamlarining ijtimoiy munosabatida o`zgarishlar юz berib, ongli, akilli, idrokli odamlar yaьni Xomo sapiens shakllangan. Bular bilan birga xozirgi zamon odamining 3 irki (evropoid, negroid, mongoloid) vujudga kelgan. Odamlar kon - karindosh bo`lib yashay boshlaganlar. Jamiyatda juft oilalar vujudga kelgan. Ular urug`larni birlashtirib, urug` jamoasini tashkil etganlar.

**3-asosiy savol:** Ona urug`i jamoasini vujudga kelishi va onalar mavkeini ortib borishi.

**3-asosiy savolning bayoni:**

So`nggi paleolit davrida ona tamonidan urug`doshlik mustaxkamlangan. Ijtimoiy xayotda ona (ayol)ni urni baland bo`lgan va ona tamonidan urug`doshlik mustaxkamlangan yaьni matriarxat paydo bo`ladi. Mexnat taksimotida erkaklar ovchilik bilan, ayollar uy xujaligi bilan shugullanadilar.

Tasviriy san`atning vujudga kelishi xam so`nggi paleolitning katta юtig`i bo`lgan. Suyakdan ayollar xaykalchalari yasalgan va takinchrklar ustiga turli xil tasvirlar o`yib tushurilgan. O`rta Osiyoda so`nggi paleolit davriga oid 30 dan ortik makonlar o`rganilgan.

Ayniksa, Samarkand yakinidagi Suyob soyidan 2 ta yarim er to`la shaklidagi chayla, o`chok o`rni xamda odamlarni 2 ta jag suyagi va tosh kurollari topilgan.

Bu davr yodgorliklaridan suyak va toshdan ishlangan ayol xaykali topilgan. Bu esa ayol e`tikodiga, xosildorlik kudratiga va xayotni davom ettiruvchi onalarga bag`ishlanganligini ko`rsatadi.

So`nggi paleolitda chakmoktoshga ishlov beruvchi ustaxonalar mavjud bo`lgan. Bu davrda ishkalash yo`li bilan chikarilgan olovdan foydalanganlar.

Bu davrda ibtidoiy kishilar orasida dastlabki diniy karashlar paydo bo`ladi.

Teshiktoshdan topilgan 7-11 yashar kiz bolani dafn etilishi diniy e`tikodni kuchli ekanligini ko`rsitda, unda maxsus kabr kazilib yoniga tog echkisi (arxar)ni shoxlari va tosh kurollarni ko`yib ko`mish shundan darak beradi.

Ulkan muzlik davrini to`gashi bilan mezolit (o`rta tosh) davri boshlanadi. Bu davr 12-7 ming yilliklarni o`z ichiga olib, bu davrda urug`chilik jamiyati yanada tarakkiy etadi. Urug`chilik jamoalari kengayib Afrika, Osiyogi va shimoliy Evropa xududlariga yoyilib yashay boshlaydilar, o`k va yoy kashf etilgan, ovchilikdan tashkari balikchilik rivojlangan. YOvvoyi xayvonlar xonakilashtirilib, chorvachilikga asos solishgan. Old Osiyo va Mesopotamiyada termachilikdan dexkonchilikka o`tish boshlangan.

Mezolit davri yodgorliklari Boysun tog`idagi Machay g`ori, Farg`onadan SHo`rko`l, Achikko`l, Zambar, Toshlokko`l, sux daryosi o`zanida Obishir, Toshkent atrofida Ko`shilish, Turkmanistonda Damdamchashma, Tojikistonda CHildarchashma, Dang`ara, Tutxavul, Oktonggi makonlaridir.

Neolit davrida ya`ni 6-4 ming yilliklarda urug`chilik jamiyati gullab-yashnagan. O`rta Osiyoda bu davrda dexkonchilik va choravchilikka o`tilgan, urug` jamoalari o`trok xayot tarziga o`tadi. Bu davrda kulolchilik, to`kuvchilik va tikuvchilik kashfiyoti natijasida urug` jamoalari rivojlanib, dastlabki dexkonchilik makonlari CHakmokli va Jayxun makonlari rivojlanadi.

Neolitda urug` jamoalari kattalashadi ulardan kichik oilalar ajralib chikadi, urug`chilik tuzimida ayolni raxbarlik makomi ozik- ovkat, farzandlar tarbiyasidan iborat bo`ladi, mil avvalgi 3 ming yillik o`rtalarida bronza davri boshlanishi bilan ota urug`i - patriarxat rivoj topadi.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Qadigi tosh asrini nima uchun shunday nomlangan?
2. Qanday paleolit davri manzilgohlarini bilasiz?
3. Paleolit davrini tavsiflang

**Adabiyotlar**

1. I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`k", T. 1998.
2. Xorazm tarixi. 1994.
3. A.Sagdullaev O`zbekiston tarixi. 1997.
4. Sagdullaev, Aminov, Mavlanov, Norkulov. O`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarakkiyoti. Tosh. 2000.
5. O`zbekiston Respublikasi enstiklopediyasi. Tosh. 1997.

## 4-mavzu: O`rta Osiyo mezolit va neolit davrida.
## Fanni o`qitish texnologiyasi:
## « O`rta Osiyo mezolit va neolit davrida » mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda mezolit va neolit davrlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Mezolit davri kashfiyotlarini sanab beradi.<br>• Mezolit davri manzillarini aniqlaydi.<br>• Mezolit davri madaniyatini tahlil qiladi.<br>• Neolit davri haqida ma`lumotlarni ochib beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** mezolit, o`q-yoy, Mindel, Ris, Vюrm, mikrolit, neolit, o`troq xayot, sopol buюmlar, tuqimachilik, juft oila.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| | **Guruhda ishlash.**<br>• Mezolit davri odamlarini kashfiyotlarini aniqlash.<br>• Aqliy hujum usulidan foydalangan holda mezolitning paleolitdan | |

| | | |
|---|---|---|
| **3** | farqlarini tahlil qilish<br>• Ishlab iqaruvi xo`jalikka o`tish jarayonini tavsiflash.<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| **4** | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Mezolit davrining o`ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.<br>• Qanday mezolit davri manzilgohlarini bilasiz?<br>• YOvvoyi hayvonlarning qo`lga o`rgatilishi haqida gapiring. | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| **5** | **<u>O`quv mashg`ulotini yakunlash.</u>**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: Mezolit va neolit davrlari xususiyatlarini ko`rib chiqish va tezis tayerlash. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Mezolit davrining o`ziga xos xususiyatlari.
2. Mezolit manzilgohlari va yodgorliklari.
3. Neolit davrining o`ziga xos xususiyatlari.
4. Jaytun madaniyati.

**Tayanch iboralar: <u>:</u>** mezolit, o`q-yoy, Mindel, Ris, Vюrm, mikrolit, neolit, o`troq xayot, sopol buюmlar, tuqimachilik, juft oila.

**1-asosiy savol:** Mezolit davrining o`ziga xos xususiyatlari.

**1-asosiy savolning bayoni:**
**Mezolit** - o`rta tosh davri bo`lib, юnoncha mezos-o`rta, litos - tosh demakdir. So`nggi paleolit davri mezolitni boshlanishi bilan ulug` muzliklar (Mindel, Ris, Vюrm) eriy boshlaydi. Iqlim barqarorlashib, o`simliklar va xayvonot dunyosi asta-sekin xozirgi zamon xayvonlari va o`simliklari kiyofasiga kirib boshlaydi. Demak, tabiatdagi xayvonot dunesidagi bu buюk o`zgarishlar bilan YAngi davr, ya`ni mezolit davri boshlanadi. Olimlarning fikricha bu davr mil avvalgi 12-7 ning yillarda boshlanib, mil avval 6-5 ming yillargacha davom etgan. Muzlik turlari bilan shimolda Boltiq dengizi xozirgi chegarasiga yaqin bo`lgan chegarani tashkil etgan va katta kichik bo`lgan botqoqliklar paydo bo`lgan. Janubiy rayonlarda keng yaproqli daraxt o`rmonlari vujudga kelgan. Volga, Don, Dnepr daryolarining quyi okimidan janubroqda Kozog`iston, O`rta Osiyo va janubiy Sibir rayonlarida xayvonlar uchun yaylov-cho`l zonasi vujudga kelgan, muzlikni erishi bilan shimoldan janubga kelgan shoxdor bug`ular endi shimolga ko`chib o`tib boshladi. Uzun junli mamontlar xam tugab bu yirik xayvonlar, ya`ni makrolitlar o`rniga kichik tez chopar mikrolitlar vujudga keldi. Bu xayvonlarni vujudga kelishi o`k yoyni kashf etilishi bilan bog`liq edi. YA`ni bu bilan insoniyat yirik xayvonlardan qo`rqish xavfini tugatdi va ovchilikni yangi usullarini kashf etdilar va ovchilik- ibtidoiy kishilarning xayot manbaiga aylandi. Xayvonlarni ko`lga o`rgatish boshlandi. Birinchi qo`lga o`rgatilgan xayvon esa it edi. Bu davr odamlari o`simlik ildizi bilan emas, balki mazali mevalar bilan tirikchilik qiladigan bo`lganlar. Suyakdan kurollar yasalgan (qarmok). Daraxt novdalaridan savatlar to`qiganlar mezolit davrida o`troq xyot tarzi boshlangan va yangi muzlikdan bo`shagan erlarni o`zlashtirishga kirishganlar, insoniyatni mexnat qurollari xam takomillashib xar xil geometrik shakldagi kichik tosh mikrolit qurollari paydo bo`ldi. Dastlab

bu qurollarni Fransiyani janubida yashagan arunta qabilalari ishlatganlar chunki 1887 yilgi arxeologik tekshirishlar natijasida aniqlangan.

**2-asosiy savol:** Mezolit manzilgohlari va yodgorliklari.
**2-asosiy savolning bayoni:**
Mezolit davrida O`rta Osiyoda xam iqlim qulay bo`lib, 1970-80 davrlarda Islomov o`rganib Sux yakinidan Obishir manzilgoxini o`rgangan. Gorning quyoshga qaragan tomonida uyg`urlar bo`lib Obishir va Obishir-5 dan mezolit yodgorliklari topilgan. Fargona vodiysidan 100 dan ortiq manzillar topilgan. YAna Toshkentning Sariqamish tumanidagi Bo`zsuv soyining 2 irmog`i qo`shilishi joyidagi Ko`shilish manzilgoxi aniqlandi. Surxondaryo viloyatidan Ayritom, Kattaqo`rgon, Zaranjuk-chut Do`kanxona, Eski termiz, Podaxona, Oktosh yodgorliklari aniqlandi. 1930 yilda G. F. Parfinov Machay g`orini tekshirdi. 1970- 80 yillarda Islomov shu erda yana qazilma ishlarini olib borib, , qatlamni aniqladi. Bu erdan topilgan 80% qurollari ovchilik va xayvon terisini ishlash qurollari bo`lgan. Bu qurollar mil avv 7-6 ming yillarga borib taqaladi. Lekin bu asrda o`rta va yaqin sharkda neolit davri gullab yashagan davri bo`lgan.
O`zbekistondagi mezolit davri yodgorliklari 1) qo`shilish madaniyati Mil avv 11-10 yilliklar 2) Obishir madaniyati. 3) Machay madaniyati 7-6 ming yilliklar. Bu davrda diniy tasavvurlar xam vujudga kelgan (Kayla, Tutkaul, Machaydan) ligi aniqlangan. Kayla g`oridan topilgan mozorda chalkanchasiga yotqizilgan ustiga oxra (qizil) rang sepilgan, oyoqlari bukilgan bo`lib, taqinchoqlar, ayollar yonidan toshmunchoqlar topilgan. Surxondaryoni Zarautsoy qoya suratlari shular jumlasidandir. Bular qizil rang bilan ishlangan, avvalgi xayvonlarning ov qilish manzarasi tasvirlangan, ovchilarning yonlarida iti, ustlarida yopinchiq, qo`llarida o`q-yoy va palaxmon toshlari bo`lgan.

**3-asosiy savol:** Neolit davrining o`ziga xos xususiyatlari.
**3-asosiy savol bayoni:**
Neolit юnoncha, neo-yangi, litos-yangi, tosh davri bo`lib, mil avv 6-4 ming yilliklarini o`z ichiga oladi. Bu davrda toshni pardozlashni bilganlar qurollarni turi kupaygan. Boltalardan ko`p maqsadda foydalanganlar. Bu davrda erto`lalar, loydan uy qurishgan doimiy o`troq xayot tarzi barpo bo`lgan.
O`troq xayot tarzi chorvachilikni xunarmandchilik soxasi vujudga kelib sopol buюmlar ishlab chiqarildi, bu esa ulkan kashfiyot, tuqimachilik vujudga kelib undan to`r yasashgan. Juft oila vujudga kelgan.

**4-asosiy savol:** Jaytun madaniyati.
**4-asosiy savol bayoni:**
Neolit manzilgoxi O`rta Osiyoda Turkistonning Jaytun madaniyati bo`lib mil avv 6-5 ming yilliklardagi dastlabki dexqonchilik vujudga kelgan edi. Ashxaboddan 40 km naridagi CHaqmoqlidir. Bu erdan kulbalar topilgan bo`lib ular somonli loy bilan suvalgan, xonalari supali bo`lgan.
Xorazmdan esa Neolit davriga oid Kaltaminor madaniyatini S. P. Tolstov o`rgangan. Bu erda ovchilik rivojlangan. Kaltaminor madaniyatiga xos qatlam Amu va Sirdaryo oralig`idan topilgan. Janbaz-4 yodgorligi o`rganilgan. CHaylada yashaganligi ma`lum bo`lgan. Kulbani maydoni 300m kv bo`lgan. Okchadaryo xavzasidan Kavat-7 manzilgoxi maydoni 580 m kv bo`lgan.
Tuxumsimon naqshlangan idishlar topilgan. Termachilik rivojlangan chunki jiyda danaklari topilgan. Neolit davriga oid Tumek-Kichidjik qabristoni o`rganilgan. 1972-74 yillarda 27 ta qabr o`rganilgan, boshlari shimolga karatib chalqonchasiga qo`yilgan. Bu Turkmanistondagi Kayla qabristoniga o`xshash bo`lgan. Neolit davriga oid Xisor madaniyati mavjud bo`lgan. Xisor - Pomir tog`laridan topilgan. Tojikistonning g`arbidan

topilib 200 dan ortiq yodgorliklar topilgan Tutkavul, Saysayyod, Kuyi Bulyon, bo`lib bular mil avv 5-3 ming yillarga xosdir.

Tasviriy san`at namunalari Zarao`tsoy (8-4 ming yil) Sarmisoy, Bironsoy, Ko`ksaroy, Takatosh, Teraklisoy va boshqalar.

**NAZORAT TOPSHIRIKLARI:**

1. Mezolit davrining o`ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
2. Qanday mezolit davri manzilgohlarini bilasiz?
3. Yovvoyi hayvonlarning qo`lga o`rgatilishi haqida gapiring.

**Adabietlar:**


1. I. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q". 1998.
2. O`zbekiston tarixi. Toshkent. 1997.
3. Vatan tarixi. Toshkent. 1997.
4. A. A. Asqarov. O`zbekiston tarixi. Toshkent. 1997.
5. U. Islomov. Рещера Machay. Toshkent. 1975.
6. Kabirov. J. Sarmishsoyning qoyatoshlaridagi rasmlar. Toshkent. 1976.
7. O`zbekiston Respublikasi Enstiklopediyasi. T. 1997.


## 5-mavzu: O`rta Osiyo eneolit bronza va ilk temir davrida.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:

### « O`rta Osiyo eneolit bronza va ilk temir davrida » mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**<u>1.1 Dars maqsadi</u>**: Talabalarda O`rta Osiyoda eneolit, bronza va ilk temir davrlari va o`ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish.<br>**<u>1.2. Identiv maqsadlar:</u>**<br>• Eneolit va Bronza davrlari chegaralarini biladi.<br>• Metalning insoniyat hayotiga kirib kelishini izohlaydi.<br>• CHorvachilik va dehqonchilikka o`tishning ahamiyatini ko`rsatadi.<br>**<u>1.3.Asosiy tushunchalar:</u>** Eneolit, metall, Mis kurollar, xaydama dexqonchilik, bronza, qurol yasaydigan ustaxonalar, gildirakli aravalar, mulkiy tabaqalanish, temir buюmlar, ota urug`i.<br>**<u>1.4.Dars shakli:</u>** Ma`ruza.<br>**<u>1.5. Metod va usullar</u>**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**<u>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</u>** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **<u>Guruhda ishlash.</u>**<br>• Eneolit bronza va ilk temir davri xususiyatlarini bilish.<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Eneolit bronza va ilk temir davri o`ziga xos xusuyaiyatlarini ayting.<br>• Qanday **eneolit bronza va ilk temir davri** manzilgohlarini bilasiz? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |

| | | |
|---|---|---|
| **5** | <u>**O`quv mashg`ulotini yakunlash.**</u><br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: Eneolit bronza va ilk temir davrining o`ziga zos xususiyatlarini ko`rib chiqish va tezis tayerlash. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**

1. Eneolit davrida metalldan foydalanishga o`tilishi ;
2. Bronza davri va yodgorliklari. Ota urug`i davri
3. Ilk temir davri va urug`chilik jamoasini emirilishi va sinfiy jamiyatning vujudga kelishi.

**Tayanch iboralar:** Eneolit, metall, Mis kurollar, xaydama dexqonchilik, bronza, qurol yasaydigan ustaxonalar, gildirakli aravalar, mulkiy tabaqalanish, temir buюmlar, ota urug`i.

**1-asosiy savol:** Eneolit davrida metalldan foydalanishga o`tilishi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

**Eneolit-**lotincha enios-mis, юnoncha litos-tosh ya`ni mis-tosh deb юritiladi. Eneolit davri er юzida bir vaqtda boshlanmagan xar bir mintaqani tabiiy ekologik imkoniyatiga mos ravishda xar-xil (bir mintakani tabiiy ekologik imkoniyatiga mos) vaqtda boshlanadi.

Masalan: Afrika va Osiyoning qadimga dexkonchilik mintaqalarida ibtidoiy jamoalar metall bilan avvalroq, boshka mintakalarda ancha keyinroq paydo bo`lgan, O`rta Osiyoda metall Mil.avv. IV ming yillikdan ma`lum.

Bu vaqtda O`rta Osiyoni shimoliy rayonlarida Neolit davri Kaltaminor madaniyati gullab yashnagan. Kaltaminor madaniyatidagilar birinchi bor mil. avv III ming yillik oxirida metaldan foydalanishga o`tganlar. O`rta Osiyoda IV ming yillikda metallni kimmatli xususiyatlarini kuchli olovda suюqlikka aylanishini, xar- xil shaklga kirib, sovugandan keyin shu shaklni saklab kolishini bilib olganlar, ibtidoiy odamlar metall bilan tanishgunga qadar 2, 5-3 ming yil davomida (paleolit, mezolit, neolit davrlarida) faqat tosh, yog`och, suyaklardan yasalgan kurollardan foydalanganlar. Mis davriga o`tish ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada юksalganligini ko`rsatadi. Mis kurollar tosh qurollarga nisbatan ancha takomillashgan bo`lsada, mis chidamli va og`ir qurollar yasash uchun yaroqsiz bo`lgan (lix kurol) lekin takinchoklar, xarbiy qurollar, uy-ruzg`or buюmlarini yasaganlar.

Eneolit davri makonlari Xitoydan Dunaygacha bo`lgan katta xududdan tarqalgan. Markaziy Osiyo kuyidagi yangi madaniy-tarixiy jarayonlar eneolit davri bilan bog`lik:

1. Xujalikning boshka xamma turlariga qaraganda xaydama dexqonchilikning ustunlik qilishi;
2. Toshdan ishlangan qurollar ko`p bo`lgan xolda mis qurollarning paydo bo`lishi ;
3. Uy-joylarni paxsadan va xom g`ishtdan tiklanganligi ;
4. Kulolchilikda texnika юtug`i bo`lgan xumdonlarni ishlatilishi.
5.Utroqlik xujaligining rivojlanishi, ibtidoiy jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g`ishtning paydo bo`lishi;
6. Turli xayvonlarni loydan yasalgan va ona urug`i davri (matriarxat) ga xos xaykalchalar ;
7. Rangdor sopol buюmlar, ya`ni turli tasvirlar ishlangan sopol buюmlarning mavjudligi.

Ikki daryo oralig`ida (Mesopatamiya) va Old Nsiyoda eneolit davrining boshlanishi ilk bor shaxar davlatlarini vujudga kelishi bilan izoxlanadi. Eneolit davrida Markaziy Osiyo axolisining madaniyati bir bosqich ko`tarilgan va notekis rivojlanishi bo`lgan. SHuning uchun Markaziy Osiyoning turli viloyatlarida neolit bilan eneolit bir vaktda bo`lgan. Janubiy Turkmanistonda mil. avv IV ming yillikda mis-tosh davri bo`lsa, Markaziy Osiyoning dasht va Sharqiy xududlarida ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning

ilk shakllari bilan shug`ullanganlar. Neolit va eneolit davrlari xronologik jixatdan emas, balki madaniy-xo`jalik rivojlanish jixatidan bir-biridan farq qiladi.

Dastlab metall qurollar sof xolda topilgan misdan yasalgan. Keyinchalik mis eritilib turli shakllar berilgan. Markaziy Osiyo va Kozog`istonda ochiq ruda konlari va ular atrofida metal eritish ustaxonalari topilgan. Mis-tosh davrida ya`ni xo`jalik turlari, dexqonchilik va uy chorvachiligi Turkmanistonning janubi-g`arbida qulay geografik sharoitda rivojlangan. Bu paytda xali quyi Zarafshon va Amudaryo xavzalaridaga qabilalar xali madaniy usimliklar ustirishga o`tmaganlar. Dasht va tog`lardan topilgan xilma- xil madaniy manbalarni o`rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar qushlar suyaklari) qabilalarni iqtisodiy xayotida qo`shimcha xujaliklar ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo`lgan. Mis-tosh davriga oid arxeologik yodgorliklar janubiy Turkmanistondan topildi. SHimoldan koraqum ko`li, janubiy-g`arbdan Kopetdog` bilan chegaralangan. Bu erda jaytun madaniyati keng xududlarga yoyilgan. 1903 yilda Anov madaniyati Amerikalik arxeolog R. Pampelli va nemis arxeologi G. SHmidtlar tekshirdilar va ulardan 4 ta madaniy qatlam borligini aniqlaydilar. Sopol buюmlar, sopol юzasiga solingan naqshlar topildi. Bu davrda soy etaklarida dexqonchilik vujudga kelganligi aniqlandi. Tog` daryolari bo`ylarida sug`orma dexqonchilik arpa, bug`doy, beda, poliz ekinlari ekib soy suvlaridan foydalanganlar. Tekshirishda Anov va Namozgoxtepa uy-joylari xom g`ishtdan qurilganligini aniqlaydilar, kosa tuvaqlar ishlangan qora buyoqdan geometrik chiziqlar va xayvon yoki qush rasmlari bilan bezatilgan. Bular mil. avv. IV ming yillikka oid bo`lgan. Janubiy Turkmanistonda 30 dan ortiq eneolit davri madaniyati topilgan. Ularni asosiy qismi Ashxabadga yaqin joydan va Geoksюr voxasi (quyi Murg`ob va Tejan oralig`i) dan topilgan. Dexqonchilikda orpa va bug`doy ekish rasm bo`lgan va katta xumlarda saqlangan. Bu davrda joylarning pollari va devorlari somon loy bilan suvalgan. Eshiklari yog`ochdan bo`lmasdan xayvon terilaridan foydalanganlar. So`nggi paleolit davrida yog`och eshiklar paydo bo`lgan. Uylar ichida turburchak va dumaloq shakldagi o`choqlar bo`lgan. Binolar turburchak va dumaloq shaklda bo`lgan. Eneolit davri yodgorliklari O`zbekistonda Buxoro viloyati Lavlakon, Beshbuloq mavzelarida va Zomonbobo qabristonida chaqmoqtosh bilan birgalikda yasalgan ignalar va mo`nchoqlar topilgan. Kuyi Zarafshon, Kaptar qumi va Kattauzkon mavzelaridan 4 joydan eneolit davriga oid yodgorliklar topilgan. Юqori Zarafshonning Panjikent shaxridan 15 km g`arbda topilgan Sarazm qishlog`i tekshirilganda u 10 ta tepalikda joylashganligi, maydoni 90 gek. Bu erdan 4 davr topilmalari: 2 tasi eneolit va 2 tasi bronza davriga oid ekanligi aniqlandi. Sarazm-1 davri Anov 11 ga o`xshash bo`lgan. Uylari, ko`p qavatli bo`lgan va 48 ta paxsadan qurilgan kapalar topilgan. Xonalar kichik oilalarga muljallangan xonalarda dumaloq o`choqlar bo`lgan.

**2-asosiy savol:** Bronza davri va yodgorliklari. Ota urug`i davri.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Bronza davri yodgorliklari: Ibtidoiy odamlar misdan ijtimoiy xayotga katta o`zgarishlar kirita olmaganlar, ammo bronzani kashf etilishi ijtimoiy xayotga katta qadam bo`ldi. CHunki bronza misga qaraganda tez eriydi, mo`rt emas, misdan kattiqrok va pishiqroq bo`lgan. Olimlarni fikricha bronzani vatani kichik Osiyo Mesopatamiya bo`lgan. Markaziy Osiyoda bronza davri mil. avv. III ming yildan IV ming yillikni boshlarigacha bo`lgan davrni o`z ichiga olgan. O`rta Osiyoda bronza mil. avv. III ming yillik oxiri va II ming yillik boshlaridan ma`lum. Bronza davri metallurglari metalni er юziga chiqib yotgan rudadan olgan. Rudalar dastlab ochiq cho`lkonlarda, so`ng aloxida pechlarda eritilgan. Bronzani kashf etilishi madaniy kashfiyot bo`ldi. Natijada mexnat qurollarini turi kupaydi, xarbiy qurollar jangavorligi ortdi. Lekin bronza xam toshni butunlay siqib chiqarolmadi, mexnat qurollari yasaydigan temirchilik va zargarchilik ustaxonalari vujudga keldi. Natijada mintaqalarni iqtisodiy jixatdan bog`lab turuvchi tabiiy aloqa yullari (Ipak yo`li) paydo bo`ldi. Aloqada ot, xo`kiz, eshak, tuyalardan foydalanish boshlandi. Xayvonlar qo`shilgan

gildirakli aravalar vujudga keldi. bronza davrining katta ютug`i-dexqonchilikni keng yoyilishi va mil. avv. II ming yillikni 2 yarmida chorvachilikni dexqonchilikdan ajralib chiqishidir (dastlabki yirik mexnat taqsimoti edi). Bronza davri madaniyati dastlab Xorazm, Zarafshon va Kashqadaryo xamda Farg`ona vodiysidan topilgan. Bu davrda 2 xil madaniyat

1) Dexqonchilik. 2) CHorvachilik madaniyati. O`zbekiston xududidagi bronza davrini madaniy yodgorliklari Xorazmda Tozabog`yob madaniyati nomi bilan mashxurdir. Tozabog`yobliklar Sharqiy Evropadagi YOg`ochband chorvachilik madaniyati va Kozog`iston va Sibirdagi Andronova madaniyatlaridan dexkonchilik keng tarkalganligi bilan fark kilgan. Tozabog`yob madaniyatiga mansub Kukcha makoni kabristonidan bronza buюmlar ko`pi topilgan. Uylari yarim erto`la uylar bo`lgan. Bular to`g`ri va dumaloq bo`lgan ularni o`rtasida chuqurcha o`choqlar bo`lgan. Xorazmda so`nggi bronza davri yodgorligi Amirobod madaniyati mil. avv: IX-VIII asrlarga oid Xorazmda bronza davrida axolisining asosiy tirikchilik manbai dexqonchilik va chorvachilik bo`lgan. Bronza davri yodgorliklari Zomonbobo yodgorligidir. Buni 50 yillarda YA. Gulomov o`rgangan. Kabristonlarda erkaklar yonidan o`q-yoy uchlari, pichoqlar, ayollar yonidan surmadon va taqinchoqlar topilgan. Zomonboboliklar dexqonchilik va xonaki charvachilik Bilan shug`ullanib, chaylasimon kulbalarda yashaganlar. Arpa va bug`doydan yorma tayyorlab go`ja, umoch, qugirmoch tayyorlaganlari Surxondaryo voxasida Ulonbuloksoy, SHerobod, Bandixon, mirshodi makonlari topilgan. Bundan tashqari bu erdan 1968 yil Termizdan 70 km shimoliy-garbda joylashgan Sopollitepa o`rganilgan. Maydoni 4 gek bo`lib, 3 ta madaniy qatlam bo`lgan: O`choqlar devor ichiga o`rnatilgan paxsa va xom g`ishtdan bo`lgan. 138 ta Bronza davri qabri bo`lgan.CHorvadorlarning manzilgoxi Bronza davri qabristoni Samarqand yaqinidagi Muminobod qishlog`idan topilgan. Bu erdan shoxli xayvonlarni suyaklari topilgan. Kushni Kashqadaryoda so`nggi Bronza davriga xos Gujayli qabristoni bo`lgan.

**3-asosiy savol:** Ilk temir davri va urug`chilik jamoasini emirilishi va sinfiy jamiyatning vujudga kelishi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Bronza davrida dexqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilik riviojlanishida erkaklar etakchilik qilganlar, xotinlar egalik qilishdan maxrum bo`lganlar va ona urug`i o`rnini ota urug`i tizimi egallaydi.

Natijada bu davrda va ilk temir davrida Markaziy Osiyoda mulkiy tabaqalanish vujudga keldi. Mil. avv. XII- VIII asrlarda Markaziy Osiyoning janubida temir buюmlar paydo bo`ldi.

## NAZORAT TOPSHIRIKLARI:

1. Eneolit davrining o`ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Misning brozadan farqi nimada?
3. Bronza davri kashfiyotlarini sanab bering.
4. Ota urug`iga o`tish nima sababdan юz berdi?
5. Mulkiy tabaqalanish sabablarini tushuntiring.

## Adabiyotlar:

1. O`zbekiston tarixini o`qitish va o`rganishining yagona konstitustiyasi. Toshkent. 1996. Yil
2. A. A. Askarov. O`zbekiston tarixi. Toshkent 1994 yil
3. A.S.Sa`dullaev va Z.T.Eshov. O`zbekiston tarixi. T. 1997 yil.
4. SH. Karimov. R. SHamsutdinov. Vatan tarixi. Toshkent 1997.
5. Askarov A.A. Drevnezmledelьcheskaya kulьturom epoxi bronza Юjnogo Uzbekistana. Tashkent . 1997 g

6. A. A. Askarov. Jurakulov M. J. Eneolit va bronza davrida O`rta Osiyo. Samarqand. 1987 yil
7. Boynazarov F. O`rta Osiyoning oltin davri. Toshkent 1991 yil
8. Srednyaya Aziya v Epoxu kamnya i bronzы. M. 1966.
9. O`zbekiston Enstiklopediyasi Toshkent 1997 yil

## 6-mavzu: O`rta Osiyo hududida ilk davlatlarning tashkil topishi

### Fanni o`qitish texnologiyasi:
### «O`rta Osiyo hududida ilk davlatlarning tashkil topishi» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda zardushtiylik dinining vujudga kelishi haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Zardushtiylikning paydo bo`lishi haqida biladi.<br>• "Avesto"ning yozilish tarixini ta`riflaydi, mavzuni ochib beradi.<br>• "Avesto"dagi geografik, ijtimoiy-siyosiy ma`lumotlar dolzarbligi haqida tushuncha beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Zardusht, Avesto, Axura-Mazda, Vanxvi Datvyo, Videvt, YAsht, YAsna, Visparad.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Zardushtiylik dinining qaysi jihatlari muhim deb o`ylaysiz?<br>• Zardushtiylik dini qanday paydo bo`lgan?<br>• "Avesto"ning o`rganilish tarixini tavsiflang | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: Zardushtiylik dinining o`ziga zos xususiyatlarini ko`rib chiqish va tezis tayerlash. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Zardusht tarixiy shaxs sifatida.
2. "Avesto"ning yozilishi va tarqalishi.
3. "Avesto"ning o`rganilishi va tarixi.
4. "Avesto"dagi geografik, ijtimoiy-siyosiy ma`lumotlar.

**Tayanch iboralar:** Zardusht, Avesto, Axura-Mazda, Vanxvi Datvyo, Videvt, YAsht, YAsna, Visparad.

**1-asosiy savol:** Zardusht tarixiy shaxs sifatida.

**1-asosiy savol bayoni:**

***"Avesto"dek o`lmas asar yaratgan tabarruk tuproq - Xorazm zamini butun dunyoga ma`lum va mashxurdir.***

***I. Karimov***

O`rta Osiyo, Eron, Xindiston, Ozarboyjon xalqlarini xayoti turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e`tikod va akidalari xakidagi eng kadimgi manba "AVESTO" bulib, uning yaratilgan Vatani Xorazm xisoblanadi.

BMT ЮNESKO tashkilotining 1999 yil noyabrda Parijda utkazilgan 30 sessiyasida mukaddas "AVESTO"NING 2700 yilligini nishonlash tugrisida karor kabul kilindi. 2001 yilda Uzbekistonda Xususan Xorazmda utkazilishi belgilandi.

Demak, "AVESTO" bundan 2700 yil oldin yaratilgan yozma manba xisoblanadi. Ammo "AVESTO" Otashparastlik paygambari Zardushtni goyalari asosida yaratilgan. Beruniy bergan ma`lumotlarga karaganda Zardusht mil. avv. 589 yilda eron Ozarbayjoni deb ataladigan kadimgi Midiya davlati xududida yashagan Koxin Safid ibn Tumon (Paurushasp) va uning xotini Duchdoadan dunyoga kelgan. Zardushtning yoshligi chorvadorlar orasida utgan. SHuning uchun uni keksa tuya egasi, sarik tuya mingan odam deganlar. Zardusht Eron shoxi vaziri Gistasining vaziri Farishishtrani kizi Xavoviga uylangan va 3 ugli (Istavatra, Urvatatnara, Xvarechitra) xamda 3 ta kizi (Freni, Triti, Tourichisti) bulgan. Zardusht Xorasmi, Margiyona va Sug`diy erlarida yashagan. U odamlar orasida mexr-okibat urug`ini sochishga va yakka Xudo-Axura-Mazdaga sig`inishga chakirgan.

**2-asosiy savol:** "Avesto"ning yozilishi va tarqalishi.

**2-asosiy savol bayoni:**

S. Tolstov "AVESTO" Zardusht tomonidan Xorazmda yozilgan deb yozadi. Zardusht 77 yil yashagan va mil. avv. 512 yilda Balx (Mozori sharif) dagi ibodatxonada sajda kilayotgan vaktda xanjar sanchib o`ldiriladi. "AVESTO"da 12 ming yillik tarix (mil. avv IX asrdan milodiy III asrgacha bulgan katta tarixiy davrni uz ichiga olgan).

"AVESTO"da Ar`yanam Vayjax (uchok xalklar) ya`ni Xorazm erlari tug`risida suz юritiladi. Trek-pokonlar istilosidan keyin Zardushtni Zoroastr (asron-юlduz), izdoshlarini esa Zorastriylar deganlar.

"AVESTO" taxlil etilganda mil. avv. II-I yilliklar chegarasida ya`ni bronza davrida mulmalada bulgan degan xulosalar bor. Lekin bizgacha etib kelgan kismlari mil. avv III-VII asrlardan Fors belgidan iborat bulgan paxlaviy yozuvida bitilgan. Fors manbalarida "AVESTO" so`zi Apastak yoki Assos shaklida yozilgan. Aslida "AVESTO" ning ma`nosi madx etmok, ukimok iboralariga yakin bulib kat`iy urnatilgan ma`nosini beradi. kitobning kadimgi kismi Sade ya`ni sof. Keyingi davrda tiklangani esa zend ya`ni tushuntirish yoki izox deb ataladi. Sosoniylar davrida 21 ta (32 ta) kitob (nask) dan iborat bulgan. Lekin bizgacha 1\4 kismigina etib kelgan. Beruniy ma`lumoticha podshox xazinasida "AVESTO"ning 12000 kora mol terisiga tillo bilan bitilgan nusxasi bor deb yozgan va Iskandar bularni vayron kilgan deb ko`rsatgan. SHarkshunos olim E. E. Bertelski ma`lumoticha "AVESTO"ni ilk nusxasi 8 min. 300 suzdan iborat bulgan. Lekin mil. avv. SHerdi Sosoniylar buyrug`i bilan zend "AVESTO"ni 348 bobda 345 700 suzni tiklashga erishilgan. Oddiy odamlar uchun Xorde-"AVESTO" (Kichik "AVESTO") xam bulgan. Zardusht ibn Safid Tuman tomonidan yozilgan "AVESTO" Doro I ni buyrug`i bilan 4 nusxada kuchirildi va Eron poytaxti Persenolь (4 staxr) da saklandi. Bizgacha fakat "AVESTO"ni YAska, Vispered, Vedevdat va YAsht kismlari etib kelgan.

Zardusht Xorazmda vaktida g`oyaviy jixatdan kuchli bulgan giminlar, kushiklar, madxiyalar kismini yozgan.

**3-asosiy savol:** "Avesto"ning o`rganilishi va tarixi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Grek-makedon istilosidan keyin Eron va Urta Osiyodagi otashparastlik dini vakillarini ko`pchiligi Xindistonga kochib ketadi va bugungi kunda Gujarat shtatida 2. 000. 000 dan ortik forslar Zardushtiylik g`oyalariga sadokatli bo`lib kolmokdalar. VII-VIII asrlarda Eron va Turonga xujumi natijasida Islom dinining tarkalishi natijasida otashparastlik ta`kib kilinib, Islom akidalariga e`tikod kilindi. Lekin oradan 1 ming 300 yildan kuprok vakt utsada Eron va Urta Osiyoda xususan Xorazmda otashparastlikni kupgina akidalari saklanib kelmokda. "AVESTO" chet mamlakatlar kitoblarida xam kup uchraydi.

M: Nemis olimi Rittern uzini 12 jildli 1829-53 y yozgan "Falsafa tarixi", Мюllerning 40 jildli "SHarkning mukaddas kitoblari" (1879-1904), Avstriyalik Zaxau 1873 yil. Xorazm tarixi va xronologiyasiga doir 2 jildli kitobini yozib, unda "AVESTO" xakida fikr юritadi. Unda Xorazmni Kayrizao deb tilga oladi va Xorazmni mug`illar boskiniga kadar bulgan kadimgi tarixini yozadi xamda Beruniyning "Kadimgi xalklardan kolgan yodgorliklar" asarini 1 chi bulib 1872 yilda Leydin shaxrida tarjima kiladi va arabshunos olim sifatida taniladi. Nemis olimi V. Markvart Zardushtiylikda Xorazmga katta e`tibor berilganligini va Ar`yanem Vayjax deb tilga olinganligini Xorazm degan fikrni 1901 yilda ilgari suradi. Prof. Mirsodik Iskandarov zardushtiylikni mukaddas olovi dastlab Xorazmni Xozarasp kal`asida yokilgan degan.

**4-asosiy savol:** "Avesto"dagi geografik, ijtimoiy-siyosiy ma`lumotlar.

**4-asosiy savol bayoni:**

Zardusht uzi yashagan va kurgan xududlardagi tog`lar, daryolar, kullar xakida odamlarni turmush tarzi, xujalik ishlari, diniy akidalar xakida ma`lumotlar bergan, xususan Videvt kitobida

1) Odamlarni yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni Vanxvi Datvyo dunyosi kirgogidagi Ar`yanem Vayjaxga asos soldim.

2) Axura - Mazda va eng yaxshi ulka Sug`ddagi Tava makoniga asos soldim.

3) Eng yaxshi mamalkata va ulka Mauruga (Margiyona) asos soldim.

4) Baland tog`li go`zal Baxdiga asos soldim deb ko`rsatilgan.

Demak, kurinib turibdiki Axura Mazda yaratgan birinchi mamlakat Агьyanem Vayjax ekan.

"Yasht" kitobida Xind erlari va Raxna (Amudaryo)ning boshlanshi joyidagi mamlakatlar xakida xikoya kiladi va uning 19 bob 7 kasidasida dunyoda 2244 ta tog` borligini xikoya kiladi.

"YAsna" kitobida Axura Mazdaga bag`ishlangan 12 ta duo mavjud bulgan. Keyinchalik 72 taga etgan. Duolarning xammasi "Axura Mazdaga shon-sharaflar" degan suzlar bilan boshlangan. "Avesto"ning "Visparad" kitobi 24 bobdan iborat bulib xozirgacha 22 bobi Tula saklanib kolgan.

Avesto kitobi tug`risida nimalarni bilasiz?

Avesto - Turonzamin xududlarida shakllangan eng kadimgi din - Zardushtiylik dinining mukaddas kitobidir. Avestoda aks etgan asosiy konun-koidalar, diniy e`tikodlarning etakchi tushunchalari tarixiy shaxs - Zardusht nomi bilan boglik.

U bundan 2700 yillar ilgari yashagan. Zardusht yashagan davr ibtidoiy munosabatlar urnini sinfiy jamiyat kadimiy davlatchilik asoslari shakllanayotgan davr edi. Zardusht esa usha davrda ulkaning turli kabililarini birlashtirish g`oyasini, ya`ni ilk buюk davlatchilik g`oyasini ilgari surdi. U yakka xudolilikni targib kilib chikdi.

Zardusht eroncha suz bulib, ushtra - tuya, zarat - sarik, ya`ni keksa tuyachi, tuyachilar avlodidan degan ma`noni bildiradi.

zardusht uta iste`dodli shoir, iloxiyot bilimdoni va faylasuf olim edi. Uning g`oyasi yagona xudoga ishonib, jamiyatni YAngi tarakkiyot boskichiga kutarish deb xisobladi.

Zardushtning 6 ta farzandi bulgan. Zardusht davrida yigilgan diniy marosimlar, duo-takbirlar, sura-ю oyatlar xakida xakida yigilgan xujjatlar tartibga solib uning ulimidan sung unga mukaddas kitob - Avesto kitobi nomi beriladi. Avestoning ma`nosi urnatilgan, kat`iy kilib belgilangan konun-koidalar demakdir.

1-kitob Videvat (devlarga karshi konun) deyiladi. Bunda Turon ulkasi va Eronning uziga xos tarixiy geografiyasi bayon etilgan.

Zardusht ta`limotida olov, er, tuprok, suv va xavo mukaddas xisoblanadi. ularni iflos kilish gunox xisoblanadi.

zardushtiylik iymon 3 tayanchga asoslanadi:

1) Fikrlar sofligi, 2) Suzning sobitligi, 3) amaldorlarning insoniyligi.

Avestoda odam ulgach uning joni 3 kun tanasida turadi, 4 kunida guzal kiz kiyofasidagi farishta boshchiligida narigi dunyoga chinvot (kil kuprik) dan utib jannatga kiradi. Gunoxkorlar esa chinvotdan uta olmay jaxannamga gark buladilar. YAxshilar esa yashashni davom ettiradilar, odamlar dunyosiga xar 3000 yilda kaytib turadilar deb yozilgan.

2-kitob "YOsin" (Zardushtning xat va nomalarini mazmunini tashkil kiladi) bu kitob 72 bashoratdan iborat, shulardan 19 bashorati Xudodan shukrona kilish, poklanish, tanani shayton va iblislardan saklash, iymonni saklab kolish va x. k.

3-kitob Visparad (olamni va xamma narsalarni bilishda pandu nasixatlar) bu kitob 25 kismdan iborat.

Xulosa: Zardushtiylik mil. avv. VII asrdan to milodimizning VIII asrigacha kariyb ming yil Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjonda diniy e`tikod sifatida yashadi. Avesto mil. avv. IX-VIII asrlarda ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy va madaniy xayot xakida ma`lumot beradi.

**NAZORAT TOPSHIRIKLARI:**

1. Zardushtiylik dinining qaysi jihatlari muhim deb o`ylaysiz?
2. Zardushtiylik dini qanday paydo bo`lgan?
3. “Avesto”ning o`rganilish tarixini tavsiflang.
4. “Avesto”dagi geografik joy nomlarini tavsiflang.

**Adabietlar:**


1. I. A. Karimov Xivaning 2500 yillik юbileyidagi ma`ruzasi: "Avesto"ning vatani Xorazm. 1997 yil
2. M. Maxmudov Xorazm-"Avesto"ning vatani 2000 yil
3. O`zbekiston enstiklopediyasi. Tosh. 1997 yil
4. O`zbekiston tarixi. Tosh. 1997 yil
5. Vatan tarixi. Tosh. 1997 yil
6. O`zbekiston tarixi (jurnal) 1999 yil 11-son
7. A. Askarov. O`zbekiston tarixi. 1994 yil
8. M. Matniyazov. "Avesto"ning vatani Xorazm. 2000. Yil
9. Irisov A. "Avesto" kitobi. San`at nuri. 1991 y 3 son.


## 7-mavzu: O`zbekiston xududida dastlabki shaxar va davlatlarning shakllanish bosqichlari va dastlabki davlatlar. Kadimgi Xorazm, Sug`diyona, Baktriya.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:

### «O`zbekiston xududida dastlabki shaxar va davlatlarning shakllanish bosqichlari va dastlabki davlatlar. Kadimgi Xorazm, Sug`diyona, Baktriya» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| | **Tayyorlov bosqichi** | |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | **1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda ilk davlat uюshmalarining vujudga kelishi haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Davlatning eng qadimgi formasi haqida ma`lumot beradi.<br>• Dastlabki davlatlarining ijtimoiy, madaniy hayoti to`g`risida tushuntiradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Tabaqaviy, Tarixiy jamoalar, Sak va massagetlarning qabilaviy ittifoqlari, Markaziy shaharlar, Madaniy va savdo aloqalari, SHaharsozlik, Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So`g`diyona.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Ilk davlatlarning shakllanishiga olib kelgan sabablar xususida talabalarning fikrlarini aniqlash.<br>• O`rta Osiyodagi ilk davlatchilik uюshalari to`g`risida tushuna hosil qilish.<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Ilk davlatlarning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan omillarning qaysi biri eng muhim deb o`ylaysiz?<br>• Qanday O`rta Osiyo ilk davlatilik uюshmalarini bilasiz?<br>• Dastlabki shahar -davlatlarni tavsiflang | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: Antik tarixilarning O`rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlar to`g`risidagi a`lumotlarini ko`rib chiqish va tezis tayerlash. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**

1. Ibtidoiy jamoa mulkining emirilishi va sinfiy jamiyatning юzaga kelishi.
2. Dastlabki shaxar-davlatlarning shakllanish sharoitlari va bosqichlari.
3. Markaziy Osiyodagi dastlabki davlatlar: Kadimgi Baktriya, Kadimgi Xorazm, Sug`diyona.

**Tayanch iboralar:** Tabaqaviy, Tarixiy jamoalar, Sak va massagetlarning qabilaviy ittifoqlari, Markaziy shaharlar, Madaniy va savdo aloqalari, SHaharsozlik, Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So`g`diyona.

**1-asosiy savol:** Ibtidoiy jamoa mulkining emirilishi va sinfiy jamiyatning юzaga kelishi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

Mil.avv. 3 ming yillikka kelib ota (patriarxat) urug`i davri boshlanadi. Bu davr Markaziy Osiyo xududida bronza davriga to`g`ri keladi. Natijada bu davrga kelib ekin maydonlari kengayib ortiqcha maxsulot paydo bo`ladi. Bu esa chorvachilikni dexqonchilikdan ajralib chiqishiga, ya`ni birinchi yirik mexnat taqsimotining vujudga kelishiga olib keladi.

SHunday qilib, so`nggi bronza davri va ilk temir davriga o`tish jarayonida urug`chilik tuzumi emirilib, sinfiy jamiyat qaror topadi. Bu davrda dastlabki shaxar ko`rinishidagi

manzilgoxlar topildi. Jarqo`ton, Sopollitepa, Afrosiyob, Erqo`rg`on, Uzunqir, Ko`zaliqir kabi qadimiy shaxarlar vujudga kelgan.

Shaxarlarning xammasiga xos xususiyat ularning mudofaa devorlari bilan o`ralganligi edi. Xo`sh, qaysi omillar shaxarlarning vujudga kelishini tezlashtirdi?

1. Axolining юqori zichligi, o`troq dexqonchilikning paydo bo`lishi.
2. Xunarmandchilikning dexqonchilikdan ajralib chiqishi. Buning natijasida ayrim axoli manzilgoxlarida asosan maxsus ishlab chiqarish (xunarmandchilik) bilan shug`ullanadigan axolnining to`plana boshlaganligi. Demak, xunarmandchilikning dexqonchilikdna ajralish jarayoni bilan shaxarlarning paydo bo`lish jarayoni bir vaqtda borgan.
3. Dastlabki shaxar tipidagi axoli manzilgoxlarida axoli xunarmandchilikdan ko`ra ko`proq dexkonchilikdan foydalanganlar. Shaxarlarning asta-sekin rivojlanib borishi bilan xunarmandchilik shaxar xayotida tobora muxim o`rin egallay boshlagan.
4. Xunarmandchilikning metallurgiya va kulolchilik kabi tarmkolarining юksalishi shaxarlarning shakllanish jarayonini tezlashtirgan.
5. Jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish xamda boshqaruv tizimini tobora murakkablashib borishi xam shaxarlarning shakllanishini юzaga keltirgan.
6. Axoli munosabatlari va savdo-sotikning rivoji vazifasini kimmatbaxo toshlar (lazurit, fil suyaklari, metall, zargarlik buюmlari o`ynagan) xam shaxarlarning vujudga kelishini tezlashtirgan.
7. Shaxarlarning shakllanishida diniy tushunchalardagi o`zgarishlarning vujudga kelishi.
8. Xarbiy-siyosiy vaziyatning mavjudligi. Bu esa axolini bosqinchilardan ximoya qilish maqsadida shaxar atrofida mudofaa inshootlarini qurishni zarur qilib qo`ygan.

**2-asosiy savol:** Dastlabki shaxar-davlatlarning shakllanish sharoitlari va bosqichlari.

**2-asosiy savolning bayoni:**

SHuningdek, ilk davlatchilikning xam quyidagi rivojlanish bosqichlariga ega ekanliklarini xam bilib olishimiz zarur:

1. Davlatning eng qadimgi formasi - shaxar-davlat bo`lgan. Bular mil.avv. 3 ming yillik oxiri-2 ming yillik boshlarida paydo bo`lgan. Ular uncha katta bo`lmagan xududlarni egallaganlar. Ayrim xollarda shaxar-davlatlar biron-bir tabiiy chegara (tog`, dengiz, cho`l) bilan chegaralangan. Bunday shaxar-davlatlarning markazi "Olloxga bag`ishlab qurilgan ibodatxonalar bo`lgan. Shaxar- davlatlarga Oltintepa, Nomozgoxtepa, Ulug`tepa, Jarqo`ton kabilar misol bo`la oladi.
2. Xududiy davlat (podshoxliklar) - davlatchilik rivojlanishining II bosqichi xisoblanadi. Xududiy davlatlar shaxar-davlatlarning xarbiy ittifoqi xarakterida bo`lgan va kuchsizroqlari kuchliroqlariga xiroj yoki xarbiy yordam berishga majbur bo`lganlar. Mil.avv. VII-VI asrlardan O`zbekiston xududida eng qadimgi davlat birlashmalari Kadimgi Xorazm, Kadimgi Baqtriya va Sug`diyona davlatlari vujudga kelgan.
3. Davlatchilik rivojlanishining III bosqichi "imperiya" deb nomlanib, yagona davlatga zo`rlik bilan biriktirilgan. Bunga iqtisodiy, jug`rofiy, madaniy va etnik jixatdan bir xil bo`lmagan ulkan xududlar kirgan va yagona markazdan boshqarilgan. Imperiyalar podshoxliklardan farq qilib, viloyat, o`lka satrapliklariga, ya`ni ma`muriy jixatdan bo`lingan. Bunday imperiyalarga Axamoniylar va A.Makedonskiy davlatlarini ko`rsatish mumkin.

Lekin, davlatchiliknig shakllanish jarayoni turli xududlarda turli davrlarda kechgan. Bu tabiat, iqlim, er unumdorligi kabi xususiyatlar bilan izoxlanadi. iqlimi qulay bo`lgan Misr va SHumerda davlatchilik ertaroq mil.avv. IV-III ming yilliklarga to`g`ri keladi. Markaziy Osiyoda esa keyinroq sun`iy sug`orish taraqqiy etgan bronza davri oxirlarida shakllana boradi. Xorazm sharoitida ilk davlatchilikning shakllanishiga savdo-sotiqning va ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishi turtki bo`ldi.

**3-asosiy savol:** Markaziy Osiyodagi dastlabki davlatlar: Kadimgi Baktriya, Kadimgi Xorazm, Sug`diyona.

**3-asosiy savolning bayoni:**

Kadimgi Xorazm davlati. Mil.avv. 1 ming yillikning o`rtalarida mavjud bo`lib, mil.avv. VII-VI asrlardan davlat birlashmalari vujudga kelgan. Xorazm davlat birlashmasi Xorazmdan tashqari Kuyi Amudaryo oqimidagi shimoliy erlar, Murg`ob voxasi va Parfiya xududlari kirgan. Gerodotning ma`lumot berishicha, "Xar tomoni adir bilan o`rlargan tekislikda kachonlardir Xorasmiylar yashagan".

Kadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko`zaliqir shaxri bo`lgan. 2000 yilning 10-12 oktyabr kunlari Ellikqal`ada "Xorazm sivilizastiyasi"ga bag`ishlangan anjuman bo`lib o`tdi. CHunki 1994 yildan buyon o`zbek olimlari Avstraliya va rus olimlari (YAgodin, Nezarin) bilan birgalikda arxeologiya tekshirishlar olib borib, 50 gektarga teng bo`lgan Oqjaxon qal`a mil.avv. IV-III asrga oib va Toshxirman qal`a mil.avv. V asrga oid bo`lgan qal`alarni aniqladilar. Oqjaxon qal`aning Ichan va Deshan qal`alari bo`lib, podshoxlarining qarorgoxlari bo`lganligini aniqladilar.

Tolstov ma`lumotiga ko`ra, mil.avv.VI asrda Xorazm davlatining ilk podshosi Saksafar (SHoushafar) bo`lgan. Kadimgi Xorazmning qadimgi qal`alaridan biri 1951-1957 yillarda aniqlangan Ko`yqirilgan qal`a bo`lgan. Bu qal`a mil.avv. IV-III asrga tegishli bo`lib doira shaklida qurilgan. Kal`aning tashqarisida 9 ta burji bo`lgan. Kal`a ichida doira shaklida 2 kavatli bino bo`lib pillapoyalari bo`lgan. 3 kator mudofaa devor bilan o`ralgan. Tashqi devorning юqori kismida kamonchilar uchun tuynuklar bo`lgan. Kal`ada kulolchilik rivojlanib, idishlar sirtiga qizil rangdan naqsh berilgan. Kuzalarning dastasi arslon boshli kiyofada bo`lgan. YAna birlarida sersoqol mo`ysafid bir bosh uzumni ushlagan tasviri, yana birida taxtda o`trigan ayolning o`z chaqalogini bag`riga bosgani tasirlangan. Kal`ada uzumdan ichimlik tayyorlaganlar. Kal`adan bir qo`lida uzum, ikkinchisida bog`bon pichogi tutgan erkak tasviri topilgan. Bayram lisbosida tasvirlangan Naxid bir qo`lida bokal, ikkinchisida amfora (qush dastali grafin) tutgani tasvirlangan. Kal`adan III asrga oid oromiy tipidagi SHarkiy Eron til laxjasida yozilgan yozuv topildi. YOzuvda Aspabadan (aspa-ot, badak-ketuvchi, ya`ni otda ketuvchi, ot ustidagi sipoxiy) so`zi yozilgan. YAna qal`adan ko`pgina ostadonlar (tobutlar) topildi. Kal`ada xayot milordiy IV asrda tugaydi. Xorazm - Avesto (Xvarizam), Bexistunda (Xvarazmish), юnon manbalarida Xorasmiya deyilgan.

Sug`diyona - Zarafshon va Kashkadaryo voxalari chegaralaridagi xudud. Axolisi sug`diylar. Sug`diyona xozirgi Samarqand, Navoiy, Buxoro va Kashqadaryo viloyatlari xududlarida joylashgan. Antik davr tarixchilari Sug`diyonani Baktriyaga qaraganda cho`l zonasida, axolisi zich, bog`-rog`lari ko`p va Zarafshondan suv ichgan deydilar. Arxeologik tekshirishlar natijasida So`g`diyonadan Erqo`rg`on, Afrosiyob, Tallibarzu kabi yodgorliklar topilgan. Kulolchilik юksak darajada rivojlangan. Sug`d yozuvi bo`lgan.

Afrosiyob qadimgi Samarqand bo`lib, sugdiylar Samarqand, юnonlar Maroqanda deb юritganlar. IX asr o`rtalarida forschada Samarqand deb atalgan. Turkiyda Semiskant, xitoycha Kan bo`lgan. Afrosiyobda xayot mil.avv. VI asr va milodiy XIII asrgacha bo`lgan. Sug`diyona mil.avv. VI-IV asrlarda Eron axamoniylariga tobe bo`lgan. Sug`diyona mil.avv. III asr o`rtalaridan Юnon-Baktriya tarkibiga, keyinchalik Kushonlar qo`l ostida rivojlangan. Milodiy II asrda Qang` davlatiga qaragan. Samarqand bu paytda "Sharq darvozasi" rolini o`ynagan. Sug`diylar savdoda tengi yo`q bo`lgan. Sug`d tili ilk o`rta asrlarda xam jaxon savdo tili bo`lgan.

Baktriya - Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston, Afgonistonning shimoliy viloyatlarini tashkil etgan. Mil.avv. VIII- VII asrlarda shakllangan madaniy юrtdir. Axamoniylar xukmronligi davrida ularga tobe bo`lgan. O`rta Osiyoda birinchi bo`lib Iskandar ko`shinlariga bo`ysungan. Mil.avv. III asrda Baktriyada, Юnon-Baktriya davlati tashkil topadi.

Mil.avv. VIII-VII asrlarda bu xududda Kadimgi Baktriya podsholigi tashkil topadi. O`zbekistondagi eng qadimgi shaxar bu xududda shakllangan. Keyin Kushonlar tarkibida bo`lgan. Baktriya Avestoda Baxdi, Bexistun yozuvlarida Vaktrish, юнон-rim manbalarida Baktriana yoki Vaktriya deyilgan.

Tekshirishlar natijasida Oltin-1, Oltin-10, Baktra (Janubiy Baktriyadan). SHimoliy Baktriyadan Kuchuktepa, Kiziltepa, Talashgantepa, Bandixon yodgorliklari topildi. Ktesiyning yozishicha, (mil.avv. V asr oxiri va IV asr boshlari) Vaktriya bilan Ossuriyaga ikki o`rkachli tuyalarda lazurit qatnaganlar, deb yozadi. YAna mil.avv. VIII-VII asrlarda Baktriyaning qudrati, shon-shuxrati, minglab shaxar va qishloqlari, chorvalari xaqida yozadi.

Markaziy Osiyoda ilk davlat uюshmalari dexqonchilik, chorvachilik, ixtisoslashgan xunarmandchilikning ajralishi va shaxar markazlari shakllanishi asosida paydor bo`lgan va ular rivojlanishining quyidagi davrlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

1. Bronza davri. Unchalik katta bo`lmagan dexqonchilik voxalar ilk davlat uюshmalarining shakllanishi. Bu davr davlatchiligi jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini aks ettiruvchi qishloq xo`jalik jamoalanining xududiy bo`linishi, sug`orma dexqonchilik jamoalarining vujudga kelishi, ixtisoslashgan xunarmandchilikka asoslangan almashinuv va savdo-sotiqning rivojlanishi.

2. Bronza asridan Temir asriga o`tish davri (mil.avv. X-VIII asrlar). Ilgari odamlar yashamagan joylarda yangi axolii manzilgoxlarining shakllanishi (Margiyona misolida).

3. Ilk temir davri (mil.avv. VII-VI asrlar). Davlat uюshmalarining paydo bo`lishi bilan xarakterlanadi. Bunday davlat uюshmalarining paydo bo`lishiga va tezlashuviga ichki sabablardan tashqari tashqi kuchmanchilarning xujumlari sabab bo`lgan (SHimoli-g`arbiy Eron chegaralarigacha kelgan Midiya xarbiy siyosati).

**NAZORAT TOPSHIRIKLARI:**

1. Ilk davlatlarning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan omillarning qaysi biri eng muhim deb o`ylaysiz?
2. Qanday O`rta Osiyo ilk davlatilik uюshmalarini bilasiz?
3. Dastlabki shahar -davlatlarni tavsiflang

**Adabiyotlar:**


1. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T, 1998.
2. M.M.Isxakov. Xaqiqat eng oliy ne`mat. Fan va turmush, 1993 y 3- son.
3. M.M.Isxakov. Xurshid YAsht. Saodat, 1996 y 5-son
4. SH.Karimov, R.SHamsutdinov. Vatan tarixi. T, 1997.
5. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
6. "O`zbekiston tarixi" jurnali. 1999 y 1-son.
7. Abu Rayxon Beruniy. Kadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 1-jild. 1968.
8. L.I.Albaum. Jivopisь Afrasiaba. 1975.
9. R.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze. Severnaya Baktriya. 1990.
10. S.P.Tolstov. Kadimgi Xorazm madaniyatini izlab. 1964.
11. V.A.SHishkin. Varaxsha. 1963.


## 8-mavzu: Eron Axamoniylarning Markaziy Osiyoga xujumi. Tumaris, Frada, SHiroq kaxramonligi.

**Fanni o`qitish texnologiyasi:**
**« Eron Axamoniylarning Markaziy Osiyoga xujumi. Tumaris, Frada, SHiroq kaxramonligi » mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi**

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| | **Tayyorlov bosqichi** | |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | **<u>1.1 Dars maqsadi</u>**: Talabalarda Eron Axaoniylarining O`rta Osiyoga юrishlari va Axamoniylar hukronligi davrining o`ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish.<br>**<u>1.2. Identiv maqsadlar:</u>**<br>• Axamoniylar davlatining tashkil topishi va uning ijtimoiy-iktisodiy tizimi haqida tushuncha beradi.<br>• Axamonyilar xukmronligi davrida Markaziy Osiyo xalqlari xo`jaligi, madaniyati tarixini ta`riflaydi.<br>**<u>1.3.Asosiy tushunchalar:</u>** Kir II, Doro I, To`maris, SHiroq, Frada, Sharqiy satrapliklar, tanga-pullarning tarqalishi, Avesto.<br>**<u>1.4.Dars shakli:</u>** Ma`ruza.<br>**<u>1.5. Metod va usullar</u>**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**<u>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</u>** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **<u>Guruhda ishlash.</u>**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Axamoniylarning O`rta Osiyoga hujumlari qaon boshlandi?<br>• Qaysi joylarda axamoniylarga qarshi kurash jadal olib borildi?<br>• Axamoniylar davri boshqaruv tizimi va ijtimoiy hayotini tavsiflang | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **<u>O`quv mashg`ulotini yakunlash.</u>**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: YOzusiz xaritada Axamoniylarning bosqinilik yo`llarini belgilang. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Axamoniylar davlatining tashkil topishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi.
2. Kir II ning xarbiy юrishlari. Tumaris qaxramonligi.
3. Doro I ning xarbiy юrishlari. Frada va SHiroq qaxramonligi.
4. Axamoniylar davrida davlat boshqaruv tizimi va miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati.

**Tayanch iboralar:** Kir II, Doro I, To`maris, SHiroq, Frada, Sharqiy satrapliklar, tanga-pullarning tarqalishi, Avesto.

**1-asosiy savol:** Axamoniylar davlatining tashkil topishi va uning ijtimoiy- iqtisodiy tizimi.
**1-asosiy savolning bayoni:**

Miloddan avvalgi VI asrda Eronda axamoniylar davlati vujudga kelgan. Bu davlat 2 asr (200 yil) yashagan. Uning xududlari Misrdan to SHimoliy g`arbiy Xindistonga qadar cho`zilgan. Axamoniylar davlatining poytaxti Persepolь shaxri bo`lgan.

Forslarga qadar bu o`lkada Elamitlar yashagan. Forslar dastlab janubiy Eronda yashaganlar. So`ngra butun Eronni egallaganlar. Forsiylar "Avesto" da Azodlar deb tilga olingan.

Fors podsholarining eng qadimgi sulolasi podsho Axamon (Axmon) davrida boshlangan. Axamon miloddan avvalgi VII asrning boshlarida fors qabilalariga boshchilik qilgan va Axamoniylar sulolasiga asos solgan. Axamonning o`g`li Chishpish

mil.avv. VII asrda fors qabilalari Ittifoqini tuzadi va shu tariqa Eronda Axamoniylar sulolasi (mil.avv. 558-329 yy) xukmronlik qiladi.

**2-asosiy savol:** Kir II ning xarbiy юrishlari. Tumaris qaxramonligi.
**2-asosiy savolning bayoni:**
Axamoniylar davlatining shuxrati Kir II davrida kuchaygan. U Midiya, Elam, Vaviloniya, Lidiya podsholiklarini bo`ysundirib, dunyoda birinchi saltanatga asos soladi va o`zining bosqinchilik nigoxini Markaziyo Osiyo xududiga qaratadi.

Gerodotning yozishicha, "Kir II Bobilni, Baktriyaliklarni va Misrni bosib olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan va sarkardalariga buюrgan", deydi.

Demak, Kir II ning bu rejasi tasodifiy emas edi. U oldindan Markaziy Osiyo xalqlarining kuch va xarbiy tayyorgarligidan xabardor bo`lgan. Kir II mil.avv. 539 yilda Bobilni o`ziga bo`ysundiradi va Misrga borishga tayyorgarlik ko`ra boshlaydi. Ammo, Axamoniylar davlatining shimoli-g`arbida, ya`ni Markaziy Osiyoda massaget qabilalar o`rtasidagi o`zaro ziddiyatlar, axamoniylar davlatiga xujumlari Kirni Misrga юrishni keyinga koldirishiga sabab bo`ldi. Bu paytda massagetlar malikasi To`maris (tumorli kiz) bo`ladi. Kir esa Araks (Amudaryo) daryosiga ko`priq qurdirib, o`z elchilari orqali To`marisga sovg`a-salomlar va unga turmushga chikishini so`ratadi. To`maris esa uning niyatini payqab, urush kilmaslik, tinch yashash to`g`risida fikr bildiradi. Bu fikrga qo`nmasdan Kir mil.avv. 530 yilda massagetlar ustiga 200000 kishilik qo`shin bilan bostirib kiradi. Jangda Kir II makkorlik bilan To`marisning o`g`li Sparganisni o`ldiradi. Bu xabarni eshitgan To`maris o`g`lining qasosini olish maqsadida Kir bilan qayta jangga kirishadi va g`alabaga erishadi. Kirning esa kallasini gavdasidan judo qilib qon to`lgazilgan meshga tashlaydi.

Mil.avv. 530 yilning avgustida Axamoniylar taxtiga Kirning o`g`li Kambiz o`tiradi. U qattiqqo`l shaxs bo`ladi. U Misrga юrish qilishdan oldin o`z ukasi Bardiyani o`ldiradi. Bundan xabar topgan koxini Guamata o`zini mil.avv. 522 yilda Bardiya deb e`lon qiladi. Buni eshitgan Kambiz Erondan qaytadi va yo`lda vafot etadi.

**3-asosiy savol:** Doro I ning xarbiy юrishlari. Frada va SHiroq qaxramonligi.
**3-asosiy savol bayoni:**
Mil.avv. 522 yilning sentyabrida 7 oylik xukmronlikdan so`ng Guamata xam fitnachilar tomonidan o`ldiriladi. Uning o`rniga axamoniylardan bo`lgan Doro I (mil.avv. 522-486) podsholik qiladi. Doro I ga qarshi dastlab Marg`iyonaliklar ko`zg`olon ko`taradi. Ko`zg`olonga Frada boshchilik qiladi. Doro I esa Baktriya satrapi Dadarshishni qo`zg`olonchilarga qarshi jo`natadi. Ko`zg`olonda 55000 marg`iyonalik qatl etiladi va 6000 kishi asir olinadi. Frada esa asir olinib, o`ldiriladi.

Doro I mil.avv. 519-518 yillarda saklar ustiga юrish qiladi. Saklarning ko`pchiligi o`ldiriladi, ularning yo`lboshchisi Skunxa xam asir olinadi. Polienning ma`lumotiga ko`ra, saklarnin axamoniylarga qarshi qaxramonona kurashida oddiy cho`pon yigiti SHiroqning jasorati katta bo`lgan. Natijada mil.avv. VI-IV asrlarda Markaziy Osiyoda axamoniylar xukmronligi o`rnatildi.

**4-asosiy savol:** Axamoniylar davrida davlat boshqaruv tizimi va miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati.
**4-asosiy savol bayoni:**
Bosib olingan viloyatlar - Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Marg`iyona, Sug`diyona va sak qabilalari yashagan xududlar aloxida satrapliklarga (viloyatlarga) bo`lindi. Gerodotning ma`lumotiga ko`ra, Markaziy Osiyo viloyatlari 4 ta satraplikga (xokimlikka) bo`lingan. Jumladan:

1) Kaspiy bo`ylarida yashovchi ko`chmanchi qabilalar XI satrapiya bo`lgan va forslarga 200 talant (Bobil kumush pul birligi bo`lib, 1 talant 30 kg kumushga teng) miqdorida soliq to`lagan.
2) Baktriya XII satrapiya bo`lib, 360 talant soliq to`lagan.
3) Saklar XV satrapiya bo`lib, 250 talant soliq to`lagan.
4) Xorazm, Sug`d va Parfiya XVI satrapiya bo`lib, 300 talant mikdorida soliq to`lab to`rgan.

Axamoniylar xukmronligi davrida Markaziy Osiyo xalqlari sug`orma dexkonchilik va chorvachilik bilan shug`ullangan. Xunarmandchilik soxalari xam rivojlangan.

1877 yilda Kubodiyon bekligi (Toj) dagi kanallar qazilayotganda tilla va kumushdan iborat katta xazina topiladi. Bu xazina "Amudaryo xazinasi" nomini oldi. Buni maxalliy axoli Buxorolik savdogarlarga sotib юboradi. Savdogarlar esa Xindistonga olib boradi va u erda ingliz olimlari qo`liga tushib, Londonga olib ketiladi (xozir Britaniya muzeyida saqlanmoqda). Kubodiyon xazinasi maxalliy ustalar ijodi bo`lib, mil.avv. V-IV asrlarga oiddir. Arxeologlar Zarafshon va Kashqadaryo voxalarida mil.avv. VI-IV asrlarga oid 50 dan ziyod (Uzunqir, Erqo`rg`on, Daratepa, Kiziltepa, Sangirtepa, Lolazor, Xuja-Buston, Afrosiyob, Korovultepa, Ko`rg`oncha) ko`xna shaxarlarni o`rganganlar. Markaziy Osiyo Axamoniylarga tobe bo`lgan vaqtda Suzadagi podsho saroyini qurishda oltin Baktriyadan, qimmatbaxo toshlar Sug`diyonadan, firuza Xorazmdan olib ketilgan.

Bu davrda Markaziy Osiyo xalklari davlat ishlarida oromiy yozuvdan foydalangan. Markaziy Osiyo xalqlari doimo erk va mustaqillik uchun olib borgan kurashlari natijasida mil.avv. IV asrga kelib mustaqillikka erishdilar. Birinchi bo`lib Xorazm voxasi o`z mustaqiligiga ega bo`lgan. Baktriya esa Iskandar Zulqarnayn istilosiga qadar axamoniylar xukmronligi ostida bo`lgan.

## NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Axamoniylarning O`rta Osiyoga hujumlari qaon boshlandi?
2. Qaysi joylarda axamoniylarga qarshi kurash jadal olib borildi?
3. Axamoniylar davri boshqaruv tizimi va ijtimoiy hayotini tavsiflang

## ADABIETLAR:

1. B.YA.Staviskiy "Temir darvozadan janubroqda". 1977
2. "O`zbekiston tarixi" 1997 yil
3. "Vatan tarixi" 1-kitob 1997 yil
4. Isomiddinov M. "Sopolga bitilgan tarix" 1993 yil
5. Mirkarim Osim. "Jayxun ustida bulutlar" 1975 yil

## 9-mavzu: Makedoniyalik Iskandarning Markaziy Osiyoga юrishlari va uning oqibatlari.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:
### « Makedoniyalik Iskandarning Markaziy Osiyoga юrishlari va uning oqibatlari» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| | **Tayyorlov bosqichi**<br>**<u>1.1 Dars maqsadi</u>**: Talabalarda юnon-makedonlarning O`rta Osiyoga kirib kelishi haqida tushuncha hosil qilish.<br>**<u>1.2. Identiv maqsadlar:</u>**<br>• Iskandarning istilochilik юrishlari haqida batafsil yoritib beradi.<br>• Iskandar imperiyasining inqirozi sabablarini tushuntiradi.<br>**<u>1.3.Asosiy tushunchalar:</u>** Iskandar, Spitamen qo`zg`oloni, Oksiart, | |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | **1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Iskandar юrishi yo`nalishlarini tavsiflang.<br>• Spitamen qo`zg`oloni haqida gapirib bering.<br>• Юnon-makedonlar bosqini oqibatlari nimalarda namoyon bo`ldi? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: Iskandar aos solgan shaharlar haqidagi ma`lumotlarni tahlil qilish. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Iskandarning Axamoniylar davlatiga qarshi юrishi va bosib olishi.
2. Iskandarning Markaziy Osiyoga istilochilik юrishlari. Spitamen qo`zg`oloni.
3. Markaziy Osiyoda grek-makedon bosqinchiligining oqibatlari va Iskandar imperiyasining xalokati.

**Tayanch iboralar:** Iskandar, Spitamen qo`zg`oloni, Oksiart.

**1-asosiy savol:** Iskandarning Axamoniylar davlatiga qarshi юrishi va bosib olishi.

**1-asosiy savol bayoni:**

Kadimgi dunyo tarixida mil.avv. IV asrda bir qancha siyosiy o`zgarishlar юz berdi. Mil.avv. 360 yilda Filipp II Makedoniya taxtiga o`tiradi. U butun Makedoniyani birlashtirib, mil.avv. 349 yildan boshlab юnon shaxarlarini o`z davlatiga qo`shib ola boshlaydi.

Filipp II xarbiy isloxot o`tkazib, tartibli va yaxshi qurollangan qo`shin tuzdi va Makedoniya Bolqon yarim orolidagi kuchli davlatga aylandi.

Filipp II mil.avv. 337 (336) yilda Korinf shaxrida umumюnon anjumani o`tkazib, o`zini Юnoniston podshosi deb e`lon qildi. Bu davrga kelib Makedoniya bilan Axamoniylar o`rtasida ziddiyatlar kuchayib borayotgan edi. SHu bois mil.avv. 336 yilda Axamoniylar davlatiga qarshi kurash boshlandi. CHunki mil.avv. VI-V asrlarda Kichik Osiyo masalasida nizo kelib chiqdi. Xar ikkala davlat xam bu xududda o`z ta`sirini kengaytirish, iqtisodiy va siyosiy jixatdan юqori mavkeni egallashga xarakat qila boshladilar. Xususan, Filipp II mil.avv. 338 yilda Xeroniyadagi jangda юnon askarlarini mag`lubiyatga uchratib, Eronni bosil olish kuyiga tushdi. Lekin, Filipp II o`z niyatiga erisha olmay mil.avv. 336 yilda Saroy bazmida fitna orqali o`ldiriladi. Uning o`rniga o`g`li Iskandar (mil.avv. 356-323) 20 (19) yoshida taxtga o`tiradi.

Filipp II o`g`li Iskandarning tarbiyasiga katta e`tibor bergan va 13 yoshidan buюk olim Arastu tarbiyasiga bergan edi. Iskandar yoshligidan falsafa, etika, юnon adabiyoti, san`ati, tibbiyot fanlari, geografiya fanlaridan saboq oladi. Filipp II mil.avv. 340 yillardan boshlab Iskandarni davlat ishlariga aralashtira boshlaydi. Iskandar mil.avv. 336 yilda otasining o`rniga taxtga o`tiradi va o`z mavqeini mustaxkamlab oladi. Keyin Kichik

Osiyodan Parmenion boshliq qo`shinlarini chaqirtirdi. Xarbiy kengash tuzib, quruqlikda va suvda xarakat kiladigan qo`shin tuzib, ular oldiga aniq vazifalar qo`ydi. Ko`shinga raxbar qilib Iskandarga yaqin va ishonchli kishilardan tayinlandi. Iskandar 2 yil davomida forslar bilan bo`ladigan jangga tayyorlandi.

Mil.avv. 334 yil baxorida Iskandar "urush olovini Osiyoga, Osiyo baxtini o`zimizga qaratamiz" shiori ostida forslarga Karshi юrish boshladi. Юnonlar va forslar o`rtasidagi dastlabki to`qnashuv mil.avv. 334 yilning mayida Granik daryosi yonida bo`ldi. Jangda forslar mag`lubyaitga uchrab Milet tomonga qochib ketdilar. Bu g`alabadan so`ng Iskandar Kichik Osiyo portlariga chiqish imkoniyatiga ega bo`ldi va jaxon saltanatini tashkil qilishga bel bog`ladi. Natijada, mil.avv. 333 yilda Kichik Osiyoda Iskandar xukmronligi o`rnatildi.

Mil.avv. 333 yilning noyabrida jang xarakatlari Issa (Suriya yakinida) shaxri yonida bo`ldi. Nixoyatda daxshatli bo`lgan bu jangda xam forslar mag`lubiyatga uchradilar. Issa jangidan keyin forslar chekina boshladi va mil.avv. 331 yilning baxorigacha Iskandar qo`shinlari shiddatli janglar olib borib Suriya, Falastin, Finikiya, Misr kabi davlatlarni bosib olib, Axamoniylar davlatining markaziy qismiga xarakatlar boshladilar.

Mil.avv. 331 yilning oktyabrida Gavgamela (shimoli-sharkiy Mesopotamiya) yonida navbatdagi jang bo`lib, forslar 30000 jangchisidan ajralgan va ularning boshlig`i Doro III esa Midiyaga qochadi. Bu payt axamoniylar sulolasining so`nggi vakili Doro III shimoli-sharkiy chegara bo`ylab Baqtriyaga o`tib ketadi.

Arrianning ma`lumotiga qaraganda, Doro III ga Baktriyada fitna uюshtirilib u asirga olinadi. Baqtriya satrapi Bess esa o`zini axamoniylarning Osiyodagi podshosi deb e`lon qiladi va Artakserks (ulug` podsho) degan nom oladi.

Mil.avv. 330-329 yillarda Iskandar Afg`onistonning janubini egallab, Xindikush tog`lari orqali shimolga xarakat qiladi. Bu payt unga Bess qarshi chiqadi. Bess qo`shinlari mag`lubiyatga uchraydi. Natijada Iskandar Baqtriya poytaxti Baqtro (Balx) shaxriga kirib boradi. Bess esa yaqin kishilari bilan Sug`diyonaga qochadi. U erda Spitamen raxbarligidagi qo`zg`olonchilar uni asir qilib Iskandarga topshiradilar.

**2-asosiy savol:** Iskandarning Markaziy Osiyoga istilochilik юrishlari. Spitamen qo`zg`oloni.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Iskandar mil.avv. 329 yilning baxorida Oks (Amudaryo) dan xashak to`ldirilgan qoplardan qayiqlar yasab 6 kunda suzib o`tadilar. Iskandar qo`shinlari Termiz yaqinidan Navtaka viloyatiga va shu erda Sug`diyona poytaxti Maroqanda (Samarqand) shaxriga yo`l oladilar. Bu erda qattiq qarshilikka uchramagan Iskandar qo`shinlari shimoli-Sharqqa xarakatlanib, eng og`ir jang Usturshonaning (Samarqand va Jizzax oralig`i) tog`li xududlarida bo`ladi. Bu jangda Iskandar qo`shinlari ko`p talafot ko`radi, o`zi esa og`ir yarador bo`ladi. Keyin Iskandan YAksart (Sirdaryo) tomon xarakatlanadi. Ko`zg`olonning markazi bo`lgan Kiropolь shaxrini юnonlar qamal qiladilar. SHuningdek, Sug`diyona markazida xam qo`zg`olon ko`tarilib, mil.avv. 329 yilning kuzida bunga maxalliy sarkardalardan bo`lgan Spitamen raxbarlik qilgan.

Spitamen Maroqandda Iskandar qoldirgan qo`shinni qirib tashlab, shaxarni egallaydi. Iskandar YAksart bo`yida 17 (20) kun ichida Aleksandriya Esxata ("CHekkadagi Iskandariya" - xozirgi Bekobod va Xo`jand oralig`ida) shaxrini qurdiradi. Bu shaxar Iskandarning Markaziy Osiyodagi so`nggi tayanch nuqtasi edi. Bu payt Spitamen Politimet (Zarafshon) orqali to`satdan xujum qilib, Maroqandani qamal qildi. Unga Iskandarning o`zi xujum qildi. Spitamen esa bu payt xiyla ishlatib, cho`lga chekindi.

Politimet jangi xaqida Arrian shunday yozadi: "Karangipparx (otlik qo`shin boshlig`i) Andromaxga xabar qilmasdan otliqlarni berkitish uchun daryodan o`tadi. Spitamen askarlari Iskandar askarlarini o`rab olib, barchasini qirib tashlaydi".

Kursiy Ruf esa "bu jangda 2000 piyoda va 300 ta chavandoz xalok bo`ladi. Bu mag`lubiyatni Iskandar sir tutishga xarakat qiladi. Mag`lubiyatdan alamga kelgan

Iskandan Maroqanda va Buxoro oralig`idagi 120000 tinch axolini qirib tashlaydi" deb yozadi. Iskandar Maroqandada katta qo`shinni qoldirib, o`zi Baktriyaga (Navtaka) qaytadi. Bu erda Xorazm xukmdori Farasman bilan muzokara olib boradi. Mil.avv. 328 yilda Iskandan na Spitamen kurash olib bordi. Bu esa Spitamen raxbarligidagi kurashning II bosqichi boshlangan davr edi. Iskandar bu payt 30000 kishilik qo`shinni 5 guruxga bo`lib, eng ishonchli sarkardalarga (Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken, Artabaz) topshiradi. Mil.avv. 328 yilning oxirlarida bo`lgan jangda Spitamen o`ldiriladi. Kurцiy Rufning ma`lumot berishicha, xar doim xavf-xatarda bo`lgan xotini erining kallasini Iskandarga jo`natadi va o`z xavfsizligini ta`minlaydi.

Spitamenning o`limi Iskandarning bosqinchilik xarakatlarini to`xtatmadi, faqat ikkinchi bosqichini yakunladi, xolos.

Rus tarixchisi Grigorьev Spitamenning vatanparvarligiga xurmat bilan qarab, "Doro Iskandardan o`z podsholigi ximoya qila olmadi, Bess razil, nomard bo`lib chiqdi, ammo Turonda Spitamenga o`xshagan dovюraklar topildi", deb yozadi.

Mil.avv. 328-327 yillarda bosqinchilarga qarshi qo`zg`olonning III bosqichi boshlanadi. Iskandar maxalliy axoli bilan yaqinlashish maqsadida Oksiartning kizi Roksanaga uylanadi va mil.avv. 327 yilda Sug`diyona butunlay bosib olinadi xamda ko`zg`olon bostiriladi. Natijada Iskandarga karshi 3 yil davomida olib borilgan kurash tugaydi.

**3-asosiy savol:** Markaziy Osiyoda grek-makedon bosqinchiligining oqibatlari va Iskandar imperiyasining xalokati.

**3-asosiy savol bayoni:**

Mil.avv. 327 yilda Iskandar Sug`dda Artabazni koldirib Xindistonga xujum qiladi va Panjob viloyatini bosib oladi. SHu payt Iskandar qo`shinlari ichida ziddiyat kelib chiqqanligi sababli u g`arbga - Bobilga qaytadi. Mil.avv. 324 yilda Iskandar yangi юrishlarni rejalashtirgan edi, ammo mil.avv. 323 yilda Bobilda vafot etadi.

Iskandar Markaziy Osiyoda Aleksandriya Esxata, Aleksandriya Ariya (Xirot), Oyxonim, Baqtriya Aleksandriyasi, Marg`iyona Aleksandriyasi, Oks buyidagi Aleksandriya kabi shaxarlarni qurdiradi. Iskandar vafot etishi bilan u tuzgan davlat Misr, Makedoniya va Salavkiylar davlatiga bo`linib ketadi. Iskandar юrishi davrida Xorazm, Choch, Farg`ona va saklar o`z mustaqilligini saqlab qoldilar.

## NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Iskandar юrishi yo`nalishlarini tavsiflang.
2. Spitamen qo`zg`oloni haqida gapirib bering.
3. Юnon-makedonlar bosqini oqibatlari nimalarda namoyon bo`ldi?

## ADABIYOTLAR :


1. Arrian. Poxod Aleksandra. M, 1926.
2. Kvint Kurstiy Ruf. Istoriya Aleksandra Makedonskogo, M, 1963.
3. SHaxermayer D. Aleksandr Makedonskiy. M, 1986.
4. SHlomberje D. Ellinizirovanniy Vostok. M, 1985.
5. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
6. Vatan tarixi. 1-kitob. T, 1997.
7. Gafurov B.T., Kibunidis D.I. Aleksandr Makedonskiy i Vostok. M, 1990.
8. O`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 2000.
9. O`zbekiston Respublikasi Enstiklopediyasi, 1997.

**10-mavzu: Salavkiylar davrida Turon xalqlari.**
**Fanni o`qitish texnologiyasi:**
**«Salavkiylar davrida Turon xalqlari» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi**

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**<u>1.1 Dars maqsadi</u>**: Talabalarda salavkiylar davlati haqida tushuncha hosil qilish.<br>**<u>1.2. Identiv maqsadlar:</u>**<br>• Salavkiylar davlatidan boshqarish 3 bo`g`indan iboratligi to`g`risida tushuncha beradi.<br>• Markaziy Osiyoda Salavka I va Antiox I davrida muxim iqtisodiy- ijtimoiy va siyosiy voqealarini ochib beradi.<br>**<u>1.3.Asosiy tushunchalar:</u>** Ellin davlatlari, Salavkiylar davlati, ellin madaniyati.<br>**<u>1.4.Dars shakli:</u>** Ma`ruza.<br>**<u>1.5. Metod va usullar</u>**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**<u>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</u>** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **<u>Guruhda ishlash.</u>**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Iskandar davlati parchchalanishi sabablari nimalardan iborat?<br>• Salavka va Antiox haqida nimalarni bilasiz?<br>• Salavkaiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot qanday edi? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **<u>O`quv mashg`ulotini yakunlash.</u>**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Iskandar vafotidan keyin saltanatning parchalanishi va Ellin davlatlarining tashkil topishi.
2. Salavkiylar davlati va uning tashkil topishi.
3. Turon xalqlari Salavkiylar xukmronligi ostida.
4. Salavkiylar davlatining kuchsizlanishi va parchalanishi.

**Tayanch iboralar:** Ellin davlatlari, Salavkiylar davlati, ellin madaniyati.

**1-asosiy savol:** Iskandar vafotidan keyin saltanatning parchalanishi va Ellin davlatlarining tashkil topishi.

**1-asosiy savol bayoni:**
Sug`diyonada va Markaziy Osiyoning qolgan viloyatlarida o`z xokimiyatini mustaxkamlaganidan keyin Iskandar ikkinchi marta Xindikush dovonidan oshib Xindiston erlariga xujum qildi. Mil.avv. 326 yilda Panjob viloyatini bosib oldi. Lekin Aleksandr qo`shinlari o`rtasida norozilik chiqib, Iskandar g`arbga, Bobilga qaytishga majbur bo`ladi. Mil.avv. 324 yilda Iskandar o`z qushinlari orasida bir qancha isloxotlar o`tkazib, o`zgarishlar qiladi, ya`ni qushindagi forslar va markaziy osiyoliklar teng xuquqqa ega bo`ladilar, maxalliy zodagorlarning farzandlaridan iborat 30000 kishilik

qo`shin tuziladi. Faqat yoshlardan iborat bu qushin юnonlar odati bo`yicha kiyintirilib, qurollantiriladi va o`qitiladi. Ammo Iskandar yangi юrish rejasini boshalar paytda mil.avv. 323 yilda Bobilda kasallik tufayli vafot etadi va rejalari amalga oshmay qoladi. Iskandar Markaziy Osiyoda юnon-makedon xokimiyatini mustaxkamlash maqsadida ko`plab tayanch shaxarlar: Aleksandriya Esxata, Aleksandriya Ariya (Xirot), Oyxonim, Baktriya Aleksandriyasi, Margiyona Aleksandriyasi (Marv), Oks buyidagi Aleksandriya (qulob yoki Termiz atroflari) kabi 12 ta shaxar barpo ettiradi. Bu shaxarlarda bir nechta minglab юnon-makedon qo`shinlari zaxirada turgan. Iskandarning xarbiy юrishlari natijasida Bolkon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va Markaziy Osiyo, Xind daryosining quyi okimigacha bo`lgan xududlarda Iskandarning saltanati o`rnatilib, Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tashkil topgan edi. Ammo bu imperiya xam Axamoniylar imperiyasi kabi turli xalqlar va qabilalar yig`indisidan iborat bo`lib, faqat qo`rqitish va qurol kuchi bilan boshqarilar edi. Iskandar vafot etishi bilan bu imperiya parchalanib Misr, Makedoniya va Salavkiylar davlatiga bo`linib ketadi.

**2-asosiy savol:** Salavkiylar davlati va uning tashkil topishi.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Mil.avv. IV asr oxiri-III asr o`rtalarida Baqtriya Iskandarning eng ishonchli sarkardasi bo`lgan Salavka asos solgan Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi. Mil.avv. 312 yilda Salavka atrofidagi sarkardalar bilan kurash olib borib, Bobilni bosib oladi, o`z davlat chegaralarini g`arb va sharqqa tomon kengaytirib, Eron va Markaziy Osiyo xududlarini xam bosib oladi.

Юnon tarixchisi Pompey Trog yozishicha, "Salavka ba`zi joylarni muzokaralar yo`li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug`d erlarida u kattaik qarshilikka duch keladi va og`ir janglar olib borishga majbur bo`ladi". Arrianning yozishicha, "Salavka Baqtriyaliklar, sug`diylar, parfiyaliklar, girkaniyaliklar (Kaspiy bo`yi) bilan ko`p urushlar olib borgan". Markaziy Osiyoning janubiy viloyatlari Salavkalar tomonidan mil.avv. 306 yilda bosib olingan.

**3-asosiy savol:** Turon xalqlari Salavkiylar xukmronligi ostida.

**3-asosiy savol bayoni:**

Salavka davlat boshqaruvida satrapliklarni maydalab, 72 taga , bo`ladi. Bundan maqsad satrapliklarning kuch-qudratini pasaytirib, ular ustidan xukmronlikni kuchaytirishdan iborat bo`lgan.

Salavkiylar davlatidan boshqarish 3 bo`g`indan: satraplar, eparxlar va gipparxlardan iborat bo`lgan. Satraplarning qo`lida katta xokimiyat birlashtirilgan, ammo ularning ixtiyorida oliy xarbiy xokimiyat bo`lmagan.

Oliy xarbiy xokimiyatni markaziy xukmdor (podsho) tayinlagan qo`shinlar qo`mondoni - strateg boshqargan. Bu esa markaziy xokimiyat ustun ekanligini ko`rsatadi.

Salavka Iskandar davrida mil.avv. 329 yilda Spitamenning qizi Apamaga uylanadi va shundan bo`lgan to`ng`ich o`g`li Antiox I ni mil.avv. 293 yilda Markaziy Osiyoga xukmdor qilib tayinlaydi va shu asosda Salavkiylar sulolasining xukmronligi yanada mustaxkamlanadi.

Юnon olimi Pliniyning yozishicha, "Sirdaryo ortidagi ko`chmanchi qabilalarga qarshi Salavkiy sarkardasi Demodam raxbarligida qo`shinlar junatildi. Antiox I ning xarbiy-siyosiy va diplomatik maxorati tufayli salavkiylarga qarshi xarakatlar bostirildi.

Markaziy Osiyoda Salavka I va Antiox I davrida muxim iqtisodiy- ijtimoiy va siyosiy voqealar ko`p bo`lgan. YA`ni Baktriyada dastlabki tangalar - oltin, kumush, mis drxam va tetradrxam (pul birligi) zarb kilina boshlandi. Antiox davrida tinch xayot boshlangan, qishloq xujaligi, xunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. Markaziy Osiyo savdo, xarbiy-strategik jixatdan Buюk Ipak yo`li markazida joylashganligidan katta axamiyatga ega bo`lgan. SHuning uchun Salavkiylar davrida shaxar va qishloqlar ko`plab qurilgan.

Marg`iyonada Antioxiya shaxri qurilib, Murg`ob atrofi 250 km devor bilan o`ralgan. Salavkiylar xokimiyati Markaziy Osiyodagi xarbiy manzilgoxlarda - katoykiyalarda joylashgan xarbiy kuchlarga tayangan. Axoliga jabr-zulum qilishda maxalliy xukmron sinf vakillaridan xam foydalanganlar. Natijada, maxalliy axoli ikki tomonlama zulm ostida qoladi. SHunday bo`lsada, Salavkiylar davri Markaziy Osiyoning юnon-makedon юrishlari davrida vayron bo`lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarining tiklanishi xamda Baktriya, Sug`diyona, Parfiyaliklarning bosqinchilarga qarshi birlashuv davri bo`lgan.

**4-asosiy savol:** Salavkiylar davlatining kuchsizlanishi va parchalanishi.

**4-asosiy savol bayoni:**

Salavka I o`limidan keyin (mil.avv. 280 yil) Antioxning ta`siri sharqda sezilmasdan qoladi. CHunki g`arbiy viloyatlarda vaziyat uning qo`shini bilan birga bo`lishini taqozo etgan. Sharqiy viloyatlardagilar ularga oltin, fil, lazurit bilan jarima to`lab tursalar xam, ichki va tashqi siyosatda mustaqillikka ega bo`lish siyosati kuchaya boshladi. Bunday vaziyat, ayniqsa mil.avv. III asr o`rtalariga kelib kuchaygan. Natijada Salavkiylar davrida xokimiyat uchun, taxtni boshqarish uchun o`zaro kurash avj olib ketadi. Bu esa Salavkiylar davlatining parchalanishiga olib keladi. Buning ustiga xo`jalikning tiklanib borishi bilan mil.avv. III asr o`rtalarida O`rta Osiyo xalqlarini Salavkiylarga qarshi kurashi tezlashadi.

Mil.avv. 250 yilda Markaziy Osiyoda Salavkiylar davlatidan ikkita davlat - dastlab Parfiya, keyin Юnon-Baqtriya davlati ajralib chiqib ketadi.

## NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Iskandar davlati parchchalanishi sabablari nimalardan iborat?
2. Salavka va Antiox haqida nimalarni bilasiz?
3. Salavkaiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot qanday edi?

## ADABIYOTLAR :


1. A.A.Asqarov. O`zbekiston tarixi. T, 1994.
2. A.S.Sagdullaev va Z.T.Eshov. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
3. Vatan tarixi. T, 1997.
4. F.Boynazarov. O`rta Osiyoning antik davri. T, 1991.
5. B.Turgunov. O`zbekiston antik madaniyati. T, 1976.
6. O`zbekiston Enstiklopediyasi. T, 1997.


## 11-mavzu: Юnon-Baqtriya va Parfiya davlatlari.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:

### «Юnon-Baqtriya va Parfiya davlatlari» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda Юnon-Baqtriya va Parfiya davlatlari haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Юnon–Baqtriya davlati sarxadlariga kiruvchi shaxarlar to`g`risida to`liq ma`lumot beradi.<br>• Maxalliy axolining an`anaviy madaniyati va o`ziga xos san`atini to`liq ta`riflaydi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Юnon-Baqtriya, So`g`diyona, Parfiya, юechji, Arshakiylar, Mitridat I va Mitridat II, Rim, sosoniylar.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, | **O`qituvchi** |

| | | |
|---|---|---|
| | videoproektor. | |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **<u>Guruhda ishlash.</u>**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Юnon-Baqtriya va Parfiya davlatlari qachon tashkil topdi?<br>• Ellinlashtirish nima?<br>• Юechjilar xujumi natijalarini tavsiflang. | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **<u>O`quv mashg`ulotini yakunlash.</u>**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: Юnon-Baqtriya va Parfiya aloqalari to`g`riida a`lumot tayyorlash. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Юnon-Baqtriya davlatining tashkil topishi va sarxadlari.
2. Юnon-Baqtrining ijtimoiy tuzumi va xujalik xayoti.
3. Parfiya davlatining tashkil topishi.
**4.** Parfiyaning ijtimoiy tuzumi, xujaligi va madaniyati.

**Tayanch iboralar:** Юnon-Baqtriya, So`g`diyona, Parfiya, юechji, Arshakiylar, Mitridat I va Mitridat II, Rim, sosoniylar.
**1-asosiy savol:** Юnon-Baqtriya davlatining tashkil topishi va sarxadlari.
**1-asosiy savol bayoni:**

Mil.avv. 250 yilda O`rta Osiyoning katta qismida Salavkiylarning Baqtriya satrapiyasi o`rnida Юnon-Baqtriya podsholigi tashkil topadi. Юnon-Baqtriya davlatiga Baqtriya, Sug`diyona, Marg`iyona va extimol Choch va Dovon viloyatlarining bir qismi kirgan.

Mil.avv. 170 yilda bu davlatdan avval Sug`diyona, keyin Choch ajralib chiqib, Kang` davlati tarkibiga kirgan. Юnon-Baqtriya davlati salavkiylardan bo`lgan Diodot davrida tashkil topadi. Bu davlatning asosini Baqtriya tashkil etadi. Юnon-Baqtriyaga Evtidem, Demetriy, Evkratidlar davrida Xindistonning shimoli-g`arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o`rtasidagi katta erlar qo`shib olindi. Poytaxti SHimoliy Afg`onistondagi Baqtro shaxri edi. Юnon-Baqtriya davlati mil.avv. III asrning 2-yarmi va II asrning 1-yarmida gullab yashnadi. Markazlashgan davlatga aylandi. Xokimiyatni podsho boshqarardi, viloyatlar podshoga bo`ysunardi. Юnon-

**2-asosiy savol:** Юnon-Baqtrining ijtimoiy tuzumi va xujalik xayoti.
**2-asosiy savolning bayoni:**
Baqtriya podsholigi davrida Markaziy Osiyoda qishloq xo`jaligi, madaniy xayot, xunarmandchilik va shaxarlar rivojlangan. Lekin Parfiya tomonidan xavf kuchli bo`lgan. Ayniqsa, mil.avv. 208 yilda Parfiya podshosi Antiox III Evtidemga qarshi xujum qiladi. Tajan bo`ylaridagi bo`lgan kuchli janglarda Evtidem 10000 kishilik otliq armiyasidan ajraladi. O`zi esa Baqtroga yashirinib, bu shaxar kuchli istexkomga aylanadi. Lekin Antiox III bu shaxarni 2 yil qamal qiladi. Baqtro taslim bo`lmadi, chunki Evtidem uni Baqtro podshosi deb e`lon qiladi. Mil.avv. 206 yildagi shartnomaga ko`ra, Evtidem podsholik

unvonini saqlab qoladida, Antiox III ga bir necha fil berish, tashqi siyosatda bamaslaxat ish ko`rish majburiyatini oladi. Mil.avv. 206 yildan boshlab Юnon-Baqtriya uchun Salavkiylar xavfi tugatiladi. CHunki Antiox III g`arbda Suriya uchun Misrliklar bilan jang qiladi. Lekin shimoldan Юnon-Baqtriyaga sak-massagetlarning xavfi bor edi.

Evtidem davlati tarkibiga Baqtriya, So`g`d, Areya (xozirgi Afg`onistonnning markazi) av Marg`iyona kirgan. Bu erlar O`rta Osiyoning serunum erlari bo`lgan. Evtidem o`z davlatining chegarasini kengaytirish maqsadida Xindistonga юrish qilishni rejalashtirdi. Ammo bu ish Evtidemning o`g`li Demetriy (mil.avv. 199-167) davrida amalga oshadi. U ichki siyosatda Iskandar va Antiox I lar yo`lidan boradi va erli aslzodalar bilan til biriktirishga xarakat qiladi. O`z nomi bilan tangalar zarb qildiradi. Davlatni boshqarish borasida isloxot o`tkazadi. Isloxot bo`yicha davlatni mayda xokimliklarga bo`lib boshqargan. Xarbiy istexkomlar - qal`alar qurishga katta e`tibor beradi. Xatto Amudaryo soxilidagi Termiz Demetriy davrida kurilgan. Uning davrida davlat poytaxti janubga Taksilaga ko`chiriladi. Lekin Юnon-Baqtriyaning shimolida kelib chikib, mil.avv. 174 yilda Baqtriyada davlat to`ntarishi bo`ladi. Bu erda юnon xarbiy qo`mondoni Evkratid raxbarligida Demetriyga qarshi qo`zg`olon ko`tariladi. Bu paytda Demetriy Xindistonda bo`ladi va bu xabarni eshitib Baqtriyaga qaytadi va jangga kiradi. Jang Demetriyning o`limi bilan tugaydi. Natijada, mil.avv. 167 yilda xokimiyat Evkratid qo`liga o`tadi.

Юnon-Baktriyaga g`arbda Parfiya xam xavf soladi. Bu davr Parfiyada Mitridat I ning xukmronlik davri bo`ladi. U Marg`iyonani egallaydi. Natijada, Sug`diyona Юnon-Baqtriya davlatidan ajralib chiqadi. Bu xol Юnon-Baqtriyaning tangligini kuchaytiradi. Buning ustiga mil.avv. 155 yilda Evkratidni o`z o`g`li Geliokl o`ldiradi. Bu bilan Geliokl otasi davlatini bir butun saqlab qola olmaydi, faqat Baqtriya xududi uning qo`lida qoladi. Kolgan qismini Parfiya bosib oladi. Buning ustiga shimoldan юe-chjilarning xujumi boshlanadi.

Mil.avv. 141 va 128 yillar o`rtasida Юnon-Baqtriya davlatining taqdiri uzil-kesil xal bo`ladi. Demak, antik davr Sharqidagi buюk davlat Юnon-Baqtriya юe-chji qabilalari tomonidan bosib olinadi. Юnon-Baktriya davlati 120 yildan ortiq yashagan.

1939-1940 yillarda Baqtriyaning qadimgi Begram shaxri tekshirilganda fil suyagiga ishlangan san`at asarlari topilgan. 1978-1979 yillarda Tillatepa (janubiy Baqtriya)dan 25000 dona oltindan ishlangan buюm topilgan. Bularning kupchiligi Юnon-Baqtriya davriga oid. 1972 yilda Dalvarzintepadan 34 kg tilladan ishlangan 115 ta buюmlar topilgan. Юnon-Baqtriyada Toshga ishlov berish san`ati rivojlangan. Baqtriya "1000 shaxar mamlakati" deb юritilgan. Юnon-Baqtriya davrida moddiy va ma`naviy madaniyat юksak darajaga ko`tarilgan.

Maxalliy axolining an`anaviy madaniyati va san`ati o`ziga xos rivojlanishda davom etib юnon dunyosida (ellinizm) ko`zga tashlangan юksak me`omrchilik san`atini o`zida aks ettirdi. Bu rivojlanish Kushonlar davrida xam davom etdi. Юnon-Baqtriya davri madaniyati Samarqand yaqinidagi Talibarzu tepaligidan topilgan.

**3-asosiy savol:** Parfiya davlatining tashkil topishi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Parfiya davlati - xozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o`z ichiga olgan va mustaqil imperiya sifatida 500 yil yashagan. Parfiyaning tarixi kam o`rganilgan. Strabonning yozishicha, day (dax)larning Oxu (Tajan) daryosi bo`larida yashovchi parnlar deb юritilib, bir qismiga Arsak (Arshak) boshchilik qilgan. Antik davr tarixchilari parn qabilalari Parfiyaning asoschisi sifatida tilga olingan deb e`tirof etadilar. Parfiya to`g`risidagi dastlabki manbalar mil.avv. VII asrga oid Ossuriya xujjatlarida uchraydi. Mil.avv. VI asr boshlarida Parfiya Midiya xukmronligiga tushib qoladi. Parfiya erlari serxosil bulmagan, shaxarlari kam bo`lgan. Masson "Koraqum - Parfiyaning beshigidir" deb yozgan. Ammo Parfiya xarbiy strategik axamiyatga ega bo`lgan muxim erda joylashgan.

Parfiyaliklar Lidiyaliklarga skiflar xujumidan saqlanish uchun kerak bo`lsa, Kir uchun Xorazm voxasiga chiqish uchun darvoza vazifasini o`tagan. Iskandar uchun Parfiyani istilo qilishga sabab shimoldagi ko`chmanchi qabilalarni itoatda tutish bo`lsa, Salavkiylar uchun Parfiyani qo`lda saqlash shimoliy chegaralarning xavfsizligini ta`minlash uchun edi.

Mil.avv. 247 yilda Arshak boshchiligidagi parnlar salavkiylardan ajralib chiqadi va Nisoni egallaydi. Mil.avv. 247 yilda parnlar Arshakni o`ziga podsho qilib sayladilar. Arshak tashkilotchiligi, jasurligi va moxir diplomat bo`lganligi uchun mustaqil davlat tuzishga erishdi.

**4-asosiy savol:** Parfiyaning ijtimoiy tuzumi, xujaligi va madaniyati.

**4-asosiy savol bayoni:**

Mitridat I (mil.avv. 171-138) Parfiya davlatini kengaytiradi va mil.avv. 155 yilda Midiya xamda 141 yilda Bobilni bosib oladi. Mitridat I dan keyin o`g`li Fraat (Arshak IV) taxtga o`tiradi. Mil.avv. II asr o`rtalarida юе-chjilar sak qabilalarini Parfiyaning g`arbiy chegaralariga surib borgan. Mil.avv. 128 yilda Mitridat II taxtga o`tiradi. Uning davrida Rim va Parfiya kuchli raqibga aylangan. Mil.avv. 88 yilda Mitridat II vafot etadi. Arshak IX nomi bilan Toshraz taxtga o`tiradi. Uning davrida Parfiyada inqiroz davri boshlanadi. Milodning III asrigacha Arshakiylar sulolasi xukmronlik qiladi. Milodning 207-222 yillarida Vologez V xukmronlik qilib, davlat ikkiga ajraladi: 213 yilda Vologez V raxbarligida Mesopotamiya va Artaban V raxbarligida Midiya davlatiga. Bu davrda fors erlarida kuchli Sosoniylar davlati vujudga kelmoqda edi va Parfiyani ag`darib tashladi.

Parfiya xayoti to`g`risida Niso topilmalari xabar beradi. Parfiyada oromiy yozuvi bo`lgan. Pompey Trog Parfiyada qullar ko`pligi, ularni ozod qilish davlat tomonidan man etilganligi, askarlar kullardan olinganligi xaqida yozadi.

## NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Юnon-Baqtriya va Parfiya davlatlari qachon tashkil topdi?
2. Ellinlashtirish nima?
3. Юechjilar xujumi natijalarini tavsiflang.

## ADABIYOTLAR :


1. Axmedov B. Uzbekiston xalqlari tarixi manbalari. T, 1991.
2. Isomiddinom M. Sopolga bitilgan tarix. T, 1993.
3. Trever K.V. Pamyatniki greko-baqtriyskogo iskusstva. M, 1940.
4. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
5. Asqarov A. O`zbekiston tarixi. T, 1994.
6. Vatan tarixi. 1-kitob. T, 1997.
7. O`zbekiston Enstiklopediyasi. T, 1997.


## 12-mavzu: Qang` va Dovon davlatlari.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:

### «Qang` va Dovon davlatlari» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda Qang` va Dovon davlatlari haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Tadqiqotchilarning bu davlatlar to`g`risida bergan ma`lumotlarni o`rgatadi.<br>• davlat boshqaruv tizimini ochib beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Qang` davlati, Dovon (Farg`ona) davlati, “Samoviy” otlari, Xitoy bilan munosabatlar, Xorazm, Jonbosqal`a, Qo`yqirilganqal`a, Tuproqqal`a , qal`a va saroy qurilishlari. | |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | **<u>1.4.Dars shakli:</u>** Ma`ruza.<br>**<u>1.5. Metod va usullar</u>**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**<u>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</u>** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **<u>Guruhda ishlash.</u>**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Qang` davlati manbalarda qanday nomlanadi?<br>• Qang` davlati haqida nimalar bilasiz?<br>• Xorazm va Dovon davlatlari, ularning egaralari va ijtimoiy tuzumi haqida so`zlab bering. | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **<u>O`quv mashg`ulotini yakunlash.</u>**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br>• Mustaqil ish topshirig`i: YOzusiz xaritada Qang`, Dovon, Xorazm davlatlari egaralarini belgilang. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Qang` davlatining tashkil topishi va xududlari.
2. Qang` davlatining ijtimoiy tuzumi, xo`jaligi va shaxarlari. Madaniyati.
3. Farg`ona-Dovon davlatining tashkil topishi.
4. Dovon-Xitoy munosabatlari. Dovon madaniyati.

**Tayanch iboralar:** Qang` davlati, Dovon (Farg`ona) davlati, “Samoviy” otlari, Xitoy bilan munosabatlar, Xorazm, Jonbosqal`a, Qo`yqirilganqal`a, Tuproqqal`a , qal`a va saroy qurilishlari.

**1-asosiy savol:** Qang` davlatining tashkil topishi va xududlari.

**1-asosiy savol bayoni:**

Mil.avv. III asr boshlarida юnon-makedon xukmronligiga qarshi kurashlar va ichki nizolar keskinlashuvi davrida Kang` davlati tashkil topadi. Qang` davlatining xududi dastlab Sirdaryoning o`rta oqimidagi erlardan, ya`ni Toshkent voxasi xamda unga tutash tog` va cho`l zonalarini egallagan.

Mil.avv. II asrning boshlariga kelib Kang` davlatining erlari kengayib sharqda Fargona vodiysi, ya`ni Dovongacha shimoli-sharqda usun, юe-chji qabilalarigacha shimoli-g`arbda Sarisu daryosi, g`arbda Sirdaryogacha borgan. Bu katta xudud Toshkent voxasini, Talas vodiysini, qisman Chu daryosining quyi oqimidagi erlarni o`z ichiga olib Kang` davlatining asosiy erlarini tashkil etgan. Mil.avv. II-I asrlarda Kang`liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi erlarni va Xorazmni o`zlariga bo`ysundirganlar.

**2-asosiy savol:** Qang` davlati ijtimoiy tuzumi, xo`jaligi, shaxarlari, madaniyati.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Mil.avv. I va milodiy II-I asrlarda Kang` davlati iqtisodiy va madaniy jixatdan ancha rivojlangan davlat bo`lgan. Kang` davlatining tashqi siyosati qo`shni davlatlar bilan savdo-sotiq alokalarini o`rnatish, keskinlashgan vaziyatning oldini olish va o`z chegarasida osoyishtalik o`rnatishga qaratilgan edi. Kang`liklarning eng ashaddiy dushmanlari usun qabilalari edi. Usunliklar mil.avv. II-I asrlarda Xitoy imperatorlari

bilan yaqinlashib, xunnlar va kang`liklar bilan kurash boshlaydilar. Xitoyliklar esa bunday vaziyatdan foydalanib, o`z erlarini kengaytirish uchun Kashg`ar, YOrkent, Dovon erlariga xujum qiladi. Kang`liklar esa xitoyliklarning bu maqsadlarini anglab, ularni o`z chegaralariga yaqinlashtirmaslikka xarakat qiladilar. SHuning uchun xam Xitoy qo`shinlari mil.avv. 104-101 yillarda Dovonga xujum qilganida Qang`liklar yordamga kelib, bosqinchilarga Karshi kurashadilar.

Qang` davlatining asosiy axolisi o`troq va yarim o`troq bo`lib, uning xududida qo`chmanchi chorvadorlar xam yashagan. O`troq axolisi vodiyda yashagan, dexqonchilik, bog`dorchilik va xunarmandchilik bilan shug`ullangan. Dexqonchilikda omoch bilan er xaydash taraqqiy qilgan. Sug`orma dexqonchilik rivojlangan ko`plab katta-kichik kanallar qazilgan. Toshkent voxasida yashagan kang`arlar arpa, bug`doy, tariq, no`xat, sholi ekkanlar. O`troq axoli dexqonchilik bilan birga chorvachilik bilan xam shug`ullanib, sut-katiqqa mollari bo`lgan, zotdor otlari bo`lgan. SHuning uchun boy chovadorlar ko`p bulgan. Qang` xukmdorlarining markaziy shaxarlari ikkita, ya`ni xukmdorlar yozni O`trorda (xozirgi Aris va Turkiston oralig`ida) qishki Kang`da (Qang`dez - Bityaнь), ya`ni xozirgi Toshkent viloyatining Oqqo`rg`on tumanida o`tqazganlar. Kang`liklarning shaxar va qo`rg`onlari dushman xujumiga bardosh beradigan qilib qurilgan. Axoli yashagan uylar paxsa va xom g`ishtdan qurilgan. SHaxar va qo`rg`onlarda xunarmandchilik rivojlangan. Kang` davlati madaniyati arxeologik tekshirishlar natijasida Junariq bo`ylaridagi tepaliklardan, Kovunchitepa, CHoshtepa va Toshkent voxasidagi tepaliklardan topilgan. Mil.avv. III-II asrlarda Xitoyning shimoli-g`arbida Xitoy bo`lmagan ko`chmanchi qabilalar kuchayib, xunn-usun, юe-chji qabilalari o`rtasida konli urushlar avj olib, ko`chmanchilar bir necha yo`nalish bo`yicha ko`chib юrganlar:

1) sak-usunlar janubga tomon ichkari kirib borganlar. Xindistonda bir necha sak-xind mulklarini barpo etganlar.

2) Xitoy bilan dushman bo`lgan юe-chjilar sharqiy Turkiston va Tibetda xarakat qilganlar.

3) xunnlar xarakati. SHuningdek, mil.avv. II asrning 2-choragida xunnlar va юe- chjilar o`rtasida qonli tuqnashuvlar bo`lib, юe-chjilar Markaziy Osiyo erlariga surib chiqariladi. Ular Xitoy manbalarida da-юechje (buюk) yoki katta юe-chjilar deb atalgan.

Chjan STyanning ma`lumotiga ko`ra, юe-chjilar Sharqiy Turkiston orqali xunlarning siquvi natijasida kelganlar va Dovon (Farg`ona) xamda Sug`dni egallagach, janubga xarakat qilib, Baqtriyani bosib oladi va Юnon-Baqtriyaga chek qo`yadi. Demak, юe-chjilar mil.avv. 140-130 yillarda kelib "katta юe-chji" davlat uюshmasini tashkil etadilar. Bu uюshmaga 5 ta xokimlik (xi-xeu) kirgan bo`lib, ular Xюmi, SHuanmi, Guyshuan, Xise va Dumi bo`lgan. Tangashunoslarning ma`lumotiga ko`ra, katta юe-chji davlati birdaniga tashkil topmasdan, dastlab SHimoliy Baqtriyada (Afg`onistonda) ikkita xokimlik, keyinroq janubda (janubiy Uzbekiston, janubiy Tojikiston) uchta xokimlik paydo bo`ladi, deb kursatadilar. Kadimgi Farg`ona, ma`lumotlariga qaraganda, mil.avv. III yoki IV asrlarda shakllangan. Mil.avv. II-I asrlarda keng, boy va axolisi ko`p bo`lgan mamlakat deb tilga olinadi. Mil.avv. III asrda bu davlat Dovon, keyinroq Boxon va Polona nomlari bilan tilga olingan. Polona - bu Farg`onaning xitoycha nomi. Xitoy manbalarida esa Dovon deb atalgan.

**3-asosiy savol:** Farg`ona-Dovon davlatining tashkil topishi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Xitoy ma`lumotlariga ko`ra, mil.avv. II asrda Farg`onada 300 ming axoli yashagan. Voxada shaxarlar ko`p bo`lib, poytaxti ershi (Marxamat) shaxri bo`lgan. Manbalarda qadimgi Farg`onaliklar "Odamlari chuqur ko`zli, sersoqol, savdo-sotiqda moxir, xotinlarini xurmat qiladigan kishilar bo`lgan". Dovon qishloq xo`jaligi юksak darajada rivojlangan mamlakat bo`lgan. Dexqonlari arpa, sholi, beda kabi ekinlar ekkanlar.

Uzumchilik bilan shug`ullanganlar. Uzumdan sharbatlar va vinolar tayyorlab, sopol xumlarda saqlaganlar. Xitoy sayyoxi CHjan STyaнь mil.avv. II asrda Dovonliklarning madaniy saviyasi, urf-odatlari rivojlanganliklarini, dexqonchilik ютuqlarini yozib qoldiradi. Bundan tashqari, dovonliklar cho`l va dasht xududlarida yashaganlari, chorvachilik bilan shug`ullanganliklarini, ot ustida turib kamon otishga moxir mergan ekanliklarini xam yozib qoldiradi.

**4-asosiy savol:** Dovon-Xitoy munosabatlari. Dovon madaniyati.

**4-asosiy savol bayoni:**

O`sha davrda Farg`ona "samoviy" otlari bilan mashxur buladi. Dovon arg`umoklari Xitoyda xam qadrlangan. SHuning uchun bo`lsa kerak mil.avv. II asr oxirlarida Xitoy imeratori (Xan) Dovonni bosib olishga xarakat qiladi. Mil.avv. 104-101 yillarda Xitoy imperatorining 60 ming kishilik qo`shini Dovonga bostirib kiradi. Natijada Xitoy qo`shinlari Dovon qal`alari qarshiligini sindirishga ojizlik qiladilar. Mil.avv. 101 yilda Xitoyliklar Dovonga ikkinchi marta юrish qiladilar va Ershini qamal qiladilar. Xitoyliklarning bu safargi urinishlari xam befoyda bo`ladi. Ershi axolisi Xitoyliklarga buysunishni xoxlamagach, Xitoyliklar Ershi axolisini suvsiz qoldirishga xarakat qiladilar. Lekin Ershiliklar o`zlari qazigan quduqlardan foydalanib, o`zlarini ximoya qiladilar. Natijada Xitoy xukmdori Dovonni egallash uchun qushni davlatlardan yordam suraydi.

Dovonliklar qarshiligiga uchragan Xitoyliklar Dovonga "samoviy arg`umoq berish" majburiyatini юklaydilar. Lekin bu majburiyatni bajarish borasida Dovonliklar orasida nizolar kelib chiqadi va xukmdori Mug`uani o`ldiradilar. Xitoyliklar 10 ta arg`umoq va 3000 boshqa turdagi otlarga ega bo`ladilar. Dovon xukmdori Mug`uaning
ukasi Motsoy bo`ladi, undan keyin Mug`uaning ikkinchi ukasi bo`ladi. SHu tariqa Dovon davlati O`rta Osiyoda Eftalitlar davlati qaror topgunga qadar mustaqil faoliyat ko`rsatadi.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Qang` davlati manbalarda qanday nomlanadi?
2. Qang` davlati haqida nimalar bilasiz?
3. Xorazm va Dovon davlatlari, ularning egaralari va ijtimoiy tuzumi haqida so`zlab bering.

**ADABIYOTLAR :**


1. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T, 1998.
2. F.Boynazarov. O`rta Osiyoning antik davri. T, 1991.
3. Ю.A.Zadneprovskiy. Drenvnezemledelьcheskaya kulьtura Ferg`anы. M, 1962.
4. T.A.Koshelenko. Rodina Parfyan. M, 1977.
5. R.A.Pugachenkova, L.I.Rempelь. Vыdaющiyesya pamyatniki arxitekturы Uzbekistana. T, 1958.
6. K.SHanyazov. Kang` davlati va kang`liklar. T, 1990.
7. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
8. O`zbekiston Enstiklopediyasi, t, 1997.


## 13-mavzu: Xorazm davlati. Kushonlar saltanati va Buюk ipak yuli.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:

### Xorazm davlati. Kushonlar saltanati va Buюk ipak yuli» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda Xorazm davlati, Kushonlar saltanati haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Kushon davlati davrining madaniyatini o`rgatadi. | |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | • Юe-chjilarni 5 ta oilaga ajratadi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Jonbosqal`a, Tuproqqal`a, Ayozqal`a, Kalaliqir, Kuzaliqir, Xazorasp, Kalajik (Kardaranxos), Olmaotishgan, Vayanganqal`a, Xazorasp kanali, Xaykanik (Polvonyop), Madra (Gazovot) va Vadan (SHovot) kanallari, Kiokzюkю (Kudzula Kadfiz), юe-chji, Guyshuan, Kushon, Kanishka, Lojuvard yo`li, Buюk ipak yo`li.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Antik davrda Xorazm davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayoti haqida nimalar bilasiz?<br>• Xorazmning antik qal`alarini tavsiflab bering.<br>• Kushonlar saltanati tashkil topishi haqida gapirib bering.<br>• Buюk ipak yo`li qanday shakllangan? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Antik davrda Xorazm davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayoti.
2. Xorazmning antik qal`alari.
3. Kushonlar saltanati.
4. Buюk ipak yo`li.

**Tayanch iboralar:** Jonbosqal`a, Tuproqqal`a, Ayozqal`a, Kalaliqir, Kuzaliqir, Xazorasp, Kalajik (Kardaranxos), Olmaotishgan, Vayanganqal`a, Xazorasp kanali, Xaykanik (Polvonyop), Madra (Gazovot) va Vadan (SHovot) kanallari, Kiokzюkю (Kudzula Kadfiz), юe-chji, Guyshuan, Kushon, Kanishka, Lojuvard yo`li, Buюk ipak yo`li.

**1-asosiy savol:** Antik davrda Xorazm davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayoti.

**1-asosiy savol bayoni:**

Mil.avv. 1 ming yillik boshlariga kelib Xorazmda katta siyosiy vokea юz berdi. Ibtidoiy jamoa tuzumi emirilib, quldorlik, ya`ni sinfiy jamiyat bilan almashdi. Xorazm yirik madaniy va siyosiy markazga aylandi. Xorazmda qudratli davlat xokimiyatining barpo bulishi dexqonchilik va sun`iy sug`orish ishlarini rivojlantirib юbordi. Kanal qazish, damba qurish, yangi erlar o`zlashtirish natijasida sug`orma dexqonchilik yangi bosqichga ko`tarildi. Demak, Xorazm dexqonchilik tarixida tabiiy toshqin suvlardan foydalanishdan bosh magistral kanallar yordamida sug`orish bosqichiga o`tildi. Bu o`zgarish Xorazmning bobodexqonlari orttirgan boy tajribasi xamda o`sha davrda voxaning siyosiy xayotida юz bergan siyosiy o`zgarishlar natijasi bo`ldi. Xorazmda antik irrigastiya xo`jaligining taraqqiy etishi Qang`uy davrida, ya`ni 1 ming yillik o`rtalarida va milodning boshlariga to`g`ri keladi. Bu davrda Xorazm davlatining iktisodiy-siyosiy va xarbiy qudrati юksaldi. Uning qo`shni Eron, Xitoy va Xindsiton kabi davlatlar bilan

iqtisodiy va savdo aloqalari rivojlandi. Kanallar atrofida Jonbosqal`a, Tuproqqal`a, Ayozqal`a, Kalaliqir, Kuzaliqir, Xazorasp, Kalajik (Kardaranxos), Olmaotishgan, Vayanganqal`a kabi ko`pgina antik davr shaxarlari qad ko`tardi.

O`sha davrda kurilgan kanallar - Gavxura kanal 70 km uzunlikda, CHirmanyop - uzunligi 200 km, Xazorasp kanali, Xaykanik (Polvonyop), Madra (Gazovot) va Vadan (SHovot) kanallari aloxida axamiyatga ega bo`lgan. S.P.Tolstov ma`lumotiga ko`ra, Xorazmda Amu va Sirdaryo oralig`ida juda keng maydonlarga suv chiqarilgan. Faqatgina Amudaryoning quyi oqimida 1,3 mln gektardan 700000 gektarga suv chiqarilgan.

O`sha davrda Xorazmda donli ekinlar, polizchilik ekinlari, bog`dorchilik ekinlari, texnik ekinlardan paxta va zig`ir ekilgan. Xorazmda mil.avv. VII-VI asrlarda ilk shaxarlar vujudga keldi. Antik shaxarlarning vujudga kelishida sug`orma dexqonchilikka o`tish va irrigastiya inshootlari qurilishi, savdo va xunarmandchilikning rivojlanishi muxim ro`l o`ynadi.

**2-asosiy savol:** Xorazmning antik qal`alari.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Xorazmdagi ilk shaxarlardan Kuzalikir, qal`alikir, Oybug`ur qal`alaridir (mil.avv. VII-VI asrlarda). Keyinchalik mil.avv. IV-III asrlarda qal`alar qurilishi kengaydi.

Jonbosqal`a - mil.avv. IV asrga oid bo`lib, xajmi 200x170 metr, to`g`ri to`rtburchak shaklda, qalinligi 5 metr, balandiligi 2-10 metr devor bilan o`ralgan. qal`aning darvozasi bo`lgan. Devorda 2 qatorli shinaklar joylashgan. SHaxar darvozasidan qarama-qarshi 30 metr kenglikda ko`cha bo`lib, shaxarnin shimolidan ibodatxonaga olib borgan.

Ko`yqirilganqal`a - antik davr qal`alaridan eng ko`p o`rganilgan qal`adir. U aylana shaklda bo`lib, 86 metr uzunlikdagi kalinligi 5 metr keladigan devor bilan o`ralgan. 9 ta minorasi bo`lgan. qal`a markazida ikki qavatli silindr shaklidagi uy joylashgan. Tolstovning fikricha, sayyoralarni kuzatadigan joy bo`lgan. qal`adan mil.avv. III-II asrlarga oid qadimgi Xorazm (oromiy) tush bilan yozilgan yozuv topilgan. Bu qal`a Xorazmning gullab yashnagan davriga to`g`ri keladi.

Tuproqqal`a (SHovot tumanidagi) - 1958-1960, 1979-198 yillardagi arxeologik tekshirishlar natijasida o`rganilgan. Shaxar aylana shaklida bo`lib, xajmi 4 gektar, 260 metr mudofaa devor bilan o`ralgan. 24 ta burji bo`lib, ular orasidagi masofa 22-30 m. Shaxar mil.avv. IV-III asrlarga oid.

Tuproqqal`a (Xiva tumanidagi) - Xiva shaxridan 17 km shimoli-g`arbda joylashgan. qal`a to`rtburchak shaklda qurilgan. Xajmi 167-168-170 m. Shaxar 2 katorli devor bilan o`ralgan. Mil.avv. IV-III asrlarga oid.

Xiva - g`arbdan sharqqa tomon cho`zilib, 2 qismdan iborat bo`lgan (Ichon qal`a va Deshon qal`a).

Ichon qal`a to`g`ri burchak bo`lib, xajmi 400 m. Kadimdan mudofaa devor bilan o`ralgan, xozirgi qoldig`i 7,8 m.

Deshon qal`a uzunligi 2 km, eni 1,5 km. Kal`a 10 ta qurilish davrini o`z boshidan kechirgan. 1) manzili qumlok erda paydo bo`lgan. Devor xom g`ishtdan to`rt tomoni teng 40x40 m. Kal`a 2 qatorli mudofaa devori bilan o`ralgan. 2) mil.avv. I-IV asrlarga to`g`ri kelib, devorning qalinligi 7,5-9 m. 3) mil.avv. VI-VIII asrlarda Shaxarda xayot taraqqiy etgan. XII-XIV asrlarda Ichon qal`a butunlay o`zlashtirilmagan. Demak, Xiva mil.avv. VII-VI asrlarda qurilgan.

Tuqqal`a - Nukusdan 14 km shimoli-g`arbda joylashgan. Maydoni 8 ga. 1946 yilda S.P.tolstov tekshirgan. Kal`a 2 qatorli mudofaa devor bilan o`ralgan. Kal`a mil.avv. IV asrga oid. Katta Oybug`irqal`a - SHumanaydan 41 km shimoli-g`arbda joylashgan. 1946 yilda tekshirilib, mil.avv. IV va milodiy I asr bilan belgilanadi. Xajmi 10 ga. Mabetullaev qal`ani mil.avv. V-III va milodiy I-IV va XI asrlar bilan belgilaydi.

Kaparas qal`a - Tuyamo`yin suv ombori yonida joylashgan, to`rtburchakli. 120-105 metrli paxsa devor bilan o`ralgan. Kal`a mil.avv. IV-III asrlarga oid.

Ayozqal`a - Sulton Uvays tog`i yakinida, 2 qatorli devor bilan o`ralgan. Milodiy II-IV asrlarda bunyod etilgan. Gaurqal`a - Sulton Uvays tog`ida joylashgan bo`lib, milodiy II-III asrlarda qurilgan.

Katta Guldursin - Kirqqiz bilan Tuproqqal`a kanallarining ajralgan joyida qurilgan. Maydoni 280-230 m. 2 qatorli paxsadevor bilan o`ralgan. Mil.avv. II-I asrlarda qurilgan. Kurg`oncha yoki Kublandixqal`a - Taxtakupirdan 18 km uzoqda joylashgan. Maydoni 400x380 m. Milodiy II-III asrlarda qurilgan. Vayanganqal`a - SHovot tumanidagi Monok qishlog`ida joylashgan. Milodiy I-IV asrlarga taalluqli. Maydoni 280-360 m. Devori milodiy II-III asrda qurilgan. Vayanganqal`a qadimgi savdo yo`li chorraxasida joylashgan.

Tuproqqal`a - Elliqqal`a tumanida joylashgan. Turtburchak shaklda, maydoni 17,5 ga. Kal`a 2 qatorli paxsa devor bilan o`ralgan. SHimoli-garbida saroy bo`lgan. Saroyda podsho zali, askar zali, galaba zali, bugular zali bo`lgan. Teri va yogochga bitilgan 120 ga yaqin Xorazm tilidagi yozuv topilgan. Shaxar milodiy III asrga oid. Kalajiq - Bogotdan 17 km janubda joylashgan. 2 qatorli paxsa devor bilan o`ralgan, xom g`isht bilan tiklangan. Tashqi devorining qalinligi 2 m, balandigi 1 m, kengligi 2,6 m. Ichki devorining balandiligi 12-14 m, qalinligi 5-6 m. SHimoliy devorining o`rta qismida Ark joylashgan. Kal`a mil.avv. IV-II asrga oid bo`lib, bu erda xayot IX-XI asrlargacha davom etgan.

Kirkiztepa - Xazaraspdan shim-g`arbda joylashgan to`g`ri to`rtburchak shaklda bo`lib, maydoni 75X95 m qal`a mil.avv. IV-II asrlarga borib taqaladi.

Kunaqal`a - Kushko`pirdan 20 km janubiy-g`arbda. Kal`a to`g`ri burchak shaklda, maydoni 071 gek. Mudofaa devori xom g`ishtdan qurilgan. Kal`a mil.avv.IV-II asrlarga oid. Xazarasp qal`asi - 1936 yilda YA.Gulamov tomonidan tekshirilgan. Maydoni 440X320m. Kal`a 2 qatorli mudofaa devor bilan o`ralgan. Ichki devor qalinligi 2m, tashqi devorniki 1,81-2m. Devor qung`uralar bilan mustaxkamlangan. Kal`a mil.avv. V-asrga oid Ko`rg`oshin qal`a - To`rtko`l tumanida joylashgan. Maydoni 132X89m. Kal`a 2 qavatli devor bilan o`ralgan. Kal`a xom g`ishtdan qilingan. Kal`a mil.avv IV-III asrga oid.

Xumbuztepa - Xazaraspdan 17 km SHarkda. Kal`ani uzunligi 520m, kengligi 65-82m. Kal`a mil.avv VI-V asrlarga oid. Bu qal`a Xorazm voxasiga sopol buюmlar etkazib bergan xunarmandchlik markazi bo`lgan CHingiztepa 1-3 - Xazaraspdan 16-18 km Sharqda. Bundan topilgan sopol buюmlar mil.avv IV-II asrlarga oid.

Kat (Kyash) - SHovot tumanida joylashgan. Kal`a turtburchak shaklida qurilgan. Garbiy devorni uzunliligi 300 m, sharki esa 256 m. Kolgan tomonlari 281m. Kal`ada xayot mil.avv. IV-III asrda vujudga kelgan. Tanaffuslar bilan XVII asrgacha xatto asrimizning 30 yillarigacha davom etgan.

Tuproqqal`a - YAngiarik tumanida joylashgan, to`rtburchak shaklda, maydoni 0,6 ga. Kal`a mil.avv. IV-II asrlarga oid. Kichik Kirqqizkal`a - Elliqal`a tumanida, Kirqqizning qo`rib qolgan irmog`ida, Kizilqum etagida joylashgan. 1938 yilda S.P.Tolstov tomonidan tekshirilgan. Kal`a mil.avv. IV-III asrlarga oiddir.

Okjaxonqal`a - 2000 yil 10-12 oktyabr kunlari Ellikqal`ada "Xorazm цivilizaцiyasi tarixi"ga bag`ishlangan anjumanda Okjaxonqal`a borligini va uni Avstraliyalik olimlar bilan Rossiya olimlari 1994 yildan boshlab areologik tekshirishlar olib borganligi va uning yakuni xakida so`z bordi. Kal`a mil.avv. IV-III asrlarga oid. Maydoni 11 ga. Xatto Xorazmning vaqtincha poytaxti xam bo`lgan. Kal`a 2 qavat devor bilan o`ralgan: Deshon va Ichon qal`a. Kal`ada Xorazm podsholarining qarorgoxi bo`lgan. Toshxirmonqal`a - mil.avv. V asrga oid. Tekshirishlar natijasida madaniy qatlam topilgan. Mudofaa devor bilan o`ralgan. Devor kunguralar bilan mustaxkamlangan. Bu qal`a xam юqoridagi olimlar tomonidan tekshirilgan Okjaxon qal`a bilan bir vaqtda. Kizilqal`a - Beruniydan 27 km sharkda joylashgan. Kal`a Tolstov tomonidan 1936 yilda tekshirilgan. U qal`ani milodiy I-IV asrlarga oid deb xisoblagan.

Olmaotishgan qal`a - Xiva shaxridan 18 km sharqda, shaxar to`rtburchak shaklda qurilgan. Kal`ani kengligi 161-170 m. Kal`a milodiy I-VIII asrlarga oid.

**3-asosiy savol:** Kushonlar saltanati.
**3-asosiy savol bayoni:**
Mil.avv. I asrga kelib katta юe-chji uюshmasidagi 5 ta xokimlikda Guyshuan (Kushon) xokimligi kuchayib Kushon davlati tashkil topadi. Guyshuan xokimi Kiokzюkю kolgan 4 ta xokimlikni birlashtirib o`zini Guyshuan xokimi deb e`lon qiladi.

Kiokzюkю (Kudzula Kadfiz) xamma mulklari birlashtirib Jobuliston va Kandaxorni bosib oladi. Kushon davlati milodiy I asr boshlarida Xitoy, Parfiya va Rim saltanatlari bilan rakqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning qudratli davlatlaridan biri sifatida tashkil topadi.

Kadfiz o`z nomini yabg`uchilikdan shoxlar shoxi darajasigacha ko`taradi va tangalar zarb qildiradi. Kudzuladan keyin Vima Kadfiz taxtga o`tiradi. U mamlakatda pul isloxoti o`tkazib oltin tangalar zarb kildiradi. U Xindistonning bir qismini bo`sundirib, Rim saltanati bilan aloqa bog`laydi. Vimadan keyin Kanishka taxtga o`tirib, uning davrida davlat gullab-yashnaydi. Panjob va Kashmir viloyatini qo`shib oladi. Kanishka budda diniga kattae`tibor beradi. Termiz shaxri Kushonlar davrida juda rivojlanadi. Kushon davri yodgorligi Koratepa, Fayozьepadan topilgan. Samarqand yaqinidagi Tolibarzu yodgorliklaridir.

**4-asosiy savol:** Buюk ipak yo`li.
**4-asosiy savol bayoni:**

Qadimgi xalqlarning turli tomonlama rivojlanishida savdo va tranzit yo`llarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Mil. avv. III ming yillikka kelib, O`rta Osiyoning ko`pgina hududlari qadimgi aholi tomonidan o`zlashtirib bo`lingan edi. CHo`l va dasht hududlardagi ko`chmanchi chorvador aholi vohalardagi o`troq aholi bilan o`zaro aloqalarni bronza davriga kelib yanada rivojlantiradilar. Tarixiy adabiyotlardan ma`lum bo`lishicha, Buюk ipak yo`li tashkil topmasdan ancha ilgariyoq Qadimgi Sharq va O`rta Osiyo hududlarida o`zaro almashinuv yo`llari mavjud edi.

Bronza davridagi (mil. avv. III—II ming yilliklar) ana shunday yo`llardan biri «Lojuvard yo`li» deb atalib, uning bir tarmog`i Badaxshon, Baqtriya va MarQiyona hududlarini Xorazm, So`g`d, Markaziy Qozog`iston va Ural bilan bog`lagan. YAna bir tarmog`i esa, Baqtriya va Marg`iyonani Mesopotamiya bilan bog`lagan. Bu yo`l Pomir tog`laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo, Misr orqali o`tgan. Badaxshon Lojuvardining Hind vodiysi, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi yo`llardan yana biri, Eron ahmoniylarining yo`li bo`lib, bu yo`lning bir tarmog`i mil. avv. VI—IV asrlarda kichik Osiyo shaharlarini hamda O`rta Er dengizi bo`yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog`lagan bo`lsa, yana bir tarmog`i Erong`Baqtriya orqali So`g`diyona, Toshkent vohasi va Qozog`iston hududlaridan o`tib Oltoygacha borgan. Tarixiy adabiyotlarda bu yo`l «shoh yo`li» deb ataladi.

Mil. avv. 138 yilda Xitoy imperatori U-Di CHjan Цyanni O`rta Osiyo erlariga jo`natadi. Elchi CHjan Цyan (mil. avv. 138g`126 yillarda) Xitoyning xunnlarga qarshi kurashi uchun ittifoqchi izlab kelgan edi. Mil. avv. II-I asrlarga kelib, CHjan Цyan юrgan yo`llarda Xitoyni O`rta va o`arbiy Osiyo bilan bog`layigan karvon yo`li paydo bo`ladi. Bu yo`l Buюk ipak yo`li deb atalib, umumiy uzunligi 12 000 km dan iborat edi. Ilk o`rta asrlarga kelib, Ipak yo`lining yanada rivojlanganligini kuzatish mumkin. O`z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo`lgan bu yo`lning dastlabki tarmog`i Xitoydagi Sianь shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O`rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O`rta Er dengizigacha cho`zilgan.

Buюk ipak yo`lining tarmoqlari:

Xitoyning Anosi shahriga kelib, Ipak yo`li bir necha tarmoqlarga bo`linib ketgan. Xususan bir tarmoq Anosi-Xami-Qoshg`ar orqali Qo`qonga, undan esa Toshkentga o`tgan. Bu erdan Jizzax va Samarqand orqali Buxoroga kelgan yo`l Urganch orqali Gurьevga, u

erdan Oqsaroy orqali Qora dengiz bo`ylariga chiqqan. YAna bir tarmoq esa Dunxuan orqali Xo`tanga, undan Loxurga o`tib ketgan.

Undan tashqari Buxoroga kelib, bu tarmoq ikkiga bo`lingan. Janubiy yo`nalish Buxoro-Qarshi-Termiz orqali Nishopurga o`tgan va Hirot orqali Hindistonga o`tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Tehron-Qazvin-O`amadon-Bog`dod-Palmira yo`nalishi bo`ylab O`rta Er dengizi bo`yidagi Tir shahrigacha cho`zilgan. Umuman olganda Ipak yo`lining janubiy tarmog`i O`zgan orqali O`shga o`tib, Quva — Marg`ilon-Qo`qon orqali Xo`jand, Samarqand, Buxoroga o`tgan. SHimoliy yo`nalishi esa, Xazar xoqonligi va Bulg`or davlati orqali Kiev Rusi va Evropa mamlakatlariga borib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Ipak yo`lining asosiy karvon yo`llaridan tashqari ichki savdo yo`llari ham mavjud edi.

Buюk ipak yo`lining ahamiyati. O`rta Osiyo hududlarida antik davrdan boshlab, rivojlanish jarayonlari Buюk ipak yo`li bilan uzviy bog`liqdir. Xususan, mil. avv. II asrdan boshlab Xitoy va O`rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg`ona, So`g`d va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo`li rivojlanib borgan sari savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Kushonlar va eftalitlar davriga kelib (I-VI asrlar), O`rta Osiyo orqali o`tuvchi Ipak yo`li tarmoqlari nazoratini mahalliy so`g`diy aholi qo`lga oladilar. Qo`shni davlatlar ham Ipak yo`lidan manfaatdor bo`lganligi sababli ilk o`rta asrlarda Eron va Vizantiya hukmdorlari so`g`diylar bilan qonli kurashlar olib bordilar.

Milodning boshlarida qadimgi dunyoning ilg`or madaniyatli davlatlari asosan to`rttaga: Rim, Parfiya, Xitoy va Kushon davlatlariga bo`linar edi. G`arbda Britan orollaridan sharqda Tinch okeani sohillarigacha cho`zilgan bu zabardast saltanatlar insoniyat tarixida birinchi bo`lib «Buюk ipak yo`li» deb nomlanuvchi yo`l bilan bog`landilar. Ipak yo`li rivojlanib borgan sari podsholarning o`zaro elchilar юborishlari, bir-birlariga har xil sovg`alar in`om etishlari an`anaga aylandi. Savdo-sotiq misli ko`rilmagan darajada rivojlanib bordi. SHuningdek, Sharq bilan G`arb madaniyatining birg`biriga ta`siri kuchaydi. Davlatlar rivojlanishidagi ko`plab madaniy o`xshashliklar ham shu tufayli юzaga keldi.

Buюk ipak yo`li bo`ylab ko`plab karvonsaroylar, shaharlar barpo etildi. Bu yo`ldan borayotgan savdogarlar ko`pincha yo`lning oxirigacha bormas edilar. O`rta Osiyo viloyatlari bu yo`lning o`rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Xorazm, Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda o`z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilar edilar. O`rta asrlar O`rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko`plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo`li ustidagi ko`hna shaharlar va manzilgohlardagi arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizning dalilidir.

Mil. avv. II asrda paydo bo`lib, milodning XVI asriga qadar faoliyat ko`rsatgan Buюk ipak yo`li shu davr ichida Sharq va o`arb xalqlarining keng miqyosidagi o`zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bu yo`l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o`zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo`lib xizmat qildi. O`zbekiston hududlari bu yo`lning chorrahasida joylashgan bo`lib, bu erga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me`morlar tashrif buюrganlar.

ЮNESKO tomonidan «Buюk ipak yo`li - muloqot yo`li» dasturining ishlab chiqilishi Evrosiyodagi 30 dan ortiq etakchi davlatlarning 2000 yilga qadar ilmiyg`madaniy faoliyati uchun yo`nalish bo`ldi. Respublikamiz hududlarida ham ilmiy ekspediцiyalar tashkil etildi. Buning natijasida ko`pgina tarixiyg`madaniy obidalar o`rganildi, qadimgi yo`llar va yo`nalishlar aniqlandi, milliy va ma`naviy boyligimiz hamda an`analarimiz o`rganildi. Juda ko`pchilik tadqiqotchilar ishtirok etayotgan «Buюk ipak yo`li - muloqot yo`li» dasturining asosiy vazifasi Sharq va o`arb xalqlari o`rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o`rnatgan hamda rivojlantirgan bu yo`lni xalqlarning birodarlik, o`zaro hamkorlik va samimiy muloqot yo`liga aylantirishdan iboratdir.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Antik davrda Xorazm davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayoti haqida nimalar bilasiz?
2. Xorazmning antik qal`alarini tavsiflab bering.
3. Kushonlar saltanati tashkil topishi haqida gapirib bering.
4. Buюk ipak yo`li qanday shakllangan?

**ADABIYOTLAR :**


1. YA.G.Gulomov. Xorazmning sug`orilish tarixi. T, 1959.
2. Xorazm tarixi. 1-kitob. Urganch, 1996.
3. K.Nurjanov. Xorazm tarixidan lavxalar. Urganch, 1992.
4. S.P.Tolstov. Kadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T, 1964.
5. A.Askarov. O`zbekiston tarixi. T, 1994.
6. O`zbekiston Enцiklopediyasi. T, 1997.
7. Vatan tarixi. T, 1997.
8. Ellikqal`a anjumani materiallari. 10-12 oktyabr 2000 y.


## 14-mavzu: Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va mustaqil davlatlar.

**Fanni o`qitish texnologiyasi:**

**«Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va mustaqil davlatlar» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi**

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda er egaligi shakllari, ilk o`rta asrlarda mustaqil davlatlarning tashkil topishi haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Erga egalik munosabatlarining shakllanishi natijasida axolining iqtisodiy-ijtimoiy xayotidagi o`zgarishlarni o`rgatadi.<br>• Davlatlar tug`risida ma`lumot beradigan manbalarni ta`riflaydi, o`rgatadi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** . Erga egalik munosabatlari, Kadivarlar va kashovarzlar, Xorazm davlati, Xioniylar davlati, Kidariylar, Eftaliylar, Turonzamin.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va dexqonlar tabaqasining vujudga kelishi haqida gapirib bering.<br>• Kadivarlar va kashovarzlar haqida nimalar bilasiz?<br>• Turonzamizdagi mustaqil davlatlar: a) Xorazm davlati; b) Xioniylar davlati; v) Kidariylar; g) Eftaliylar davlatlari haqida fikr юriting.<br>• IV-VI asrlarda Turon xalqlarining madaniyati qanday xususiyatlarga ega edi? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va dexqonlar tabaqasining vujudga kelishi.
1. Kadivarlar va kashovarzlar.
2. Turonzamizdagi mustaqil davlatlar: a) Xorazm davlati; b) Xioniylar davlati; v) Kidariylar; g) Eftaliylar
3. IV-VI asrlarda Turon xalqlarining madaniyati.

**Tayanch iboralar:** Erga egalik munosabatlari, Kadivarlar va kashovarzlar, Xorazm davlati, Xioniylar davlati, Kidariylar, Eftaliylar, Turonzamin.
**1-asosiy savol:** Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va dexqonlar tabaqasining vujudga kelishi.
**1-asosiy savol bayoni:**
Ilk feodal davrda shaxarlarda axolining gavjumlashuvi, xunarmandchilikning rivoj topishi ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan shubxasiz qishloq xujalik maxsulotlariga bo`lgan extiyoj ortib, shaxarlar tevarak-atrofdagi ziroatkor erlarning xududlari tobora kengayib bordi. Natijada:
1) Mamlakat iqtisodiy xayotida xom-ashyo manbai sifatida qishloqlarning nufuzi ko`tarilib, bir tomonidan erga, xususan ziroatkor maydonlarga bo`lgan munosabat, ularga egalik qilish udumlari asta-sekin o`zgara boshladi.
2) O`troq ziroatkor axoli bilan chorvador qabilalar o`rtasidagi aloqalar gavjumlashib, mamlakatning dasht va tog` oldi mintaqalarida yashovchi ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi axolining o`troqlashuvi kuchayadi.
3) Dexqonchilik uchun yaroqli obikor erlarga bo`lgan extiyoj tobora ortib boradi.
4) Kuriq va bo`z erlarga suv chiqarib yangi erlarning o`zlashtirilishi jadallashadi.
5) Obodonchilik ishlarini amalga oshirishda el-юrtning ijtimoiy xayotida katta nufuzga ega bo`lgan mulkdor va quldor zodagon vakillar qishloq oqsoqollari, urug` va qabila boshliqlari ishboshi sifatida faol qatnashadigan bo`ldilar.
6) Kuriklarda ochilgan yangi er maydonlarining ma`lum bir ulushi o`sha zamon udumi bo`yicha qonuniy ravishda sarkorlar tasarrufiga o`tadi va ularning vorisiy mulkiga aylanadigan bo`ldi.
Natijada mulkdor sarkorlar o`zlariga tegishli er maydonlarini sug`orish tarmoqlarining юqori qismidan, ayniqsa, to`g`on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu bilan ular suvdan dexqonchilikda bemalol foydalanish, kolaversa, suv taqsimotini nazoratga olish imkoniga ega bo`ladi. SHu tariqa ular qishloqlarda o`z ta`sir doirasini kengaytirib, bora-bora ziroatkor axoli ustidan xukmronlik qila boshladi. SHuning uchun ular ilk o`rta asrlarda "dexqon", ya`ni "qishloq xokimi" nomi bilan mashxur bo`ladilar. Dexqonlar ilk o`rta asrlarda endigina shakllana boshlagan yangi ijtimoiy munosabatlarning o`rnatilishi oqibatida puldor zodagon tabaqa bag`rida dunyoga kelgan va jamoani feodallashib borayotgan xamda quldor katta er egalari edi. Ular quldorlik tuzumining so`nggi bosqichida paydo bo`ladi.
Dexqonlarning shaxarlarda xashamatli qasr va saroylari, savdo va xunarmandchilik do`kon rastalaridan iborat katta xujaliklari bo`lgan. Kishloqlarda esa ekinzorlardan tashqari, ko`shk istexqomli qo`rg`onlari, objuvozlari, tegirmonlari bo`lgan. Xar bir dexqonning mol-mulki va o`zini qo`riqlaydigan 30-40 va 50-100 kishidan iborat chokarlari (shaxsiy gvardiyasi) bo`lgan. Dexqonlar chokarlari bilan dushmanga qarshi xarbiy юrishlarda katnashgan, tinchlik paytida esa ularga suyanib qishloqning ozod ziroatkor axli ustidan o`z xukmlarini юrg`izishga xarakat qiladilar.

**2-asosiy savol:** Kadivarlar va kashovarzlar.
**2-asosiy savolning bayoni:**

Dexqonlar o`z tasarrufidagi xizmatkorlarni o`ziga qaram qilib oldilar va qishloqni ziroatkor bunday axli "kadivar", ya`ni qishloq ko`rg`onida yashovchilar deb ataladi.

SHunday qilib, feodal munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jaomasi ichida o`z erkidan maxrum bo`lgan kadivarlar paydo bo`ldi. Ziroatkor jamoalarining oddiy mexnatkash a`zolari "kashovarz", ya`ni erni xaydovchi (qushchi) deb юritilgan.

Natijada dexqonlar ko`l ostida katta mol va kuch tuplanib, ularning mavqei nixoyatda oshib ketadi. Milodning I ming yilligi o`rtalarida Kadimgi Turon axolisining ijtimoiy-iqtisodiy xayotida sodir bo`lgan o`zgarishlar besh asr atrofida xukmronlik qilgan zamonasining ikki buюk davlati Qang` va Kushon imperiyalarining inqirozga юz tutib, mamlakat mayda davlatchalarga bo`linib ketishiga sabab bo`ladi.

**3-asosiy savol:** 3. Turonzamizdagi mustaqil davlatlar:

a) Xorazm davlati
b) Xioniylar davlati
v) Kidariylar
g) Eftaliylar

**3-asosiy savol bayoni:**

Xorazmshoxlar davlati - milodiy III asrda zaiflashib borayotgan Qang` davlati tasarrufidan birinchi bo`lib Xorazm davlati ajralib chiqdi. Uni Afrig`iylar sulolasiga mansub Xorazmshoxlar idora qila boshladi. Tarixdan ma`lumki, o`rta asrlarda Xorazmda davlatni Xorazmshoxlarning 4 ta sulolasi boshqargan. Afrig`iylar 305-995, Ma`muniylar - 995-1017, Oltintoshlar - 1017-1034, Anushteginlar -1097-1231.

Bu paytda Xorazmshoxlar davlatining poytaxti Tuproqqal`adan, Xorazmshox Afrig`ning buyrug`i bilan Katga ko`chirilgan milodiy 305 yildan boshlab, Kat kayta tiklanib uning yonida joylashgan va uch qator devor bilan o`ralgan Al-fil qasri ichida shox o`rniga yangi saroy qurdirgan. Afrig`iy podsholari kumush tanga zarb qildirgan va mamlakatni ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil faoliyat юritganlar.

Beruniy ma`lumotlariga qaraganda, VIII asrgacha 21 ta Afrig`iy shoxlari xukmronlik qilganlar.

Xioniylar - IV asr o`rtalarida O`rta Osiyoga Sharq (Ettisuv va Sharqiy Turkiston) dan kelgan ko`chmanchi chorvador Xiyon qabilalari (xiyoniylar) ning xujumi boshlanadi. Xiyoniylar qadimiy turkiy Xunnu qabilalariga qon-qarindosh bo`lgan. Xiyoniylarni Grumbat ismli podshoxi bo`lgan. Milodiy 353 yilda xiyoniylar Sug`dga bostirib kiradilar, so`ngra ular Eronda tashkil topgan va o`z tazyiqini O`rta Osiyoda kuchaytira borayotgan Sosoniylar bilan to`qnashadi. Jangda Sosoniylar shoxi SHopur II (309-379) engiladi.

IV asrning 60-yilarini oxiri va 70-yillari o`rtasida SHopur II boshliq Sosoniylar Amudaryo xavzasiga 2 marta bostirib keladilar. Xar ikki safar xam xiyoniylardan engiladilar. SHunday qilib, IV asrning 70-yillarida xiyoniylar O`rta Osiyoda uzil-kesil xukmronlikni o`rnatishga muvafaq bo`ladilar. Sirdaryo bo`ylaridan to Amudaryoga cho`zilgan keng maydonda xiyoniylarni kuchli davlati tashkil topadi. Bu davlat 120 yildan ortiq yashadi. Kidariylar davlati - V asrning 20 yillarida Sharqdan Sirdaryo Orol bo`ylari orqali Xorazm xamda Amudaryo xavzasiga yana bir chorvador axoli - toxarlar kirib keladi. Toxarlar I-IV asrlarda Kushon podsholigi tarkibida bo`lib, Kidar ismli xukmdor ularga yulboshchi bo`ladi. SHuning uchun ular kidariylar deb tilga olinadi. Kidariylar tezda Amudaryo xavzasi xamda g`arbiy va janubiy Sug`d erlarini ishg`ol qilib, xiyoniylar davlatining janubiy qismida o`z xukmronligini o`rnatadi. Amudaryoning so`l soxilidagi Balx shaxri bu davlatning poytaxti bo`ladi. Kidariylar Sosoniylar bilan xiyoniylar o`rtasidagi qalqonga aylanadi.

Kidariylar bilan Sosoniylar o`rtasida Marv voxasida soson shoxi Baxrom (Varaxran V) Gur (420-438) o`rtasidagi jangda shoxni qo`li baland keladi. Bu jangdan keyin 2 davlat o`rtasida chegara belgilanib, Talikon yaqinida toshdan chegara minora o`rnatiladi. Varaxran V nazorat o`rnatish uchun Xuroson vodiysi qarorgoxini Balxga ko`chiradi.

Lekin 2 davlat o`rtasidagi qarama-qarshilik to`xtamadi, chunki YAzijirdni (438-457) davrida xam jang qilishga majbur bo`ldi. 456 yildagi xarbiy to`qnashuvda kidariylar talofat ko`rib, sosoniylardan engildilar va o`zini o`nglab ololmadilar.

Mamlakatimiz xududida ilk feodalizm davrida tashkil topgan davlat Eftalitlardir. Eftalitlarni etnik jixatdan qaysi qabilaga mansubligi to`g`risida xar xil fikrlar bor. Kupchillik eftaliylarni mil.avv. I asr bilan milodiy IV asr o`rtalarida Ettisuvdan sharqroqda Orol dengizi bo`ylaridagi xunnlar bilan aralashib ketgan, turkiy tilni qabul qilgan deydilar.

Xitoy manbalarida eftaliylarni ida, yeda, idan, idyan deb, Suriya va lotin manbalarida eptalit, eftalit, adal, Arman manbalarida idal, tetal, xeptal, arab va fors manbalarida xaytal, yaftal, xetal, Xind manbalarida xuna deganlar.

Xitoyliklar eftalitlarni turklar (tukюe) bilan bog`laydilar. Vizantiyaliklar eftalitlarni xunnlardan deydilar, chunki ularning tanalari oq deb ko`rsatadilar.

Eftalitlar degan nom V asrning 2 yarmida paydo bo`lgan. Eftaliylar shoxi Vaxshunvar Extalon bo`lgan. Arman manbalarida eftaliylar degan nom "xaft" (etti), ya`ni massagetlarning ettinchi qabilasi nomidan olingan deydilar. Eftaliylar bilan sosoniylar o`rtasidagi birinchi to`qnashuvlar V asrning 30-yillarida sodir bo`ldi. Sosniylar bilan xal qiluvchi kurashlar davri shox Peroz (Feruz) (459-484) davriga to`g`ri keladi. Peroz davrida eftalitlarga qarshi 3 marta юrish qilinadi.

1) Perozning eftaliylarga qarshi qilgan 1 юrishidayoq mag`lubiyatga uchradi. Vizantiyaning yordami bilan asirlikdan ozad bo`ladi. Peroz chegaradagi Talkon shaxrini eftalitlarga topshirish va Varaxran V Baxromgur belgilagan chegaradan o`tmaslik majburiyatini oladi.

2) Peroz birinchi mag`lubiyatdan xulosa chiqarmay yana юrish qiladi

3) Bu юrishga Perozning aldashi bo`lib, bu юrish 484 yilda bo`ladi. Bu kurash Marv yaqinida Sosoniylarning tugal mag`lubiyati bilan tugallanadi.

Manbalarga qaraganda, Peroz pistirmada xandaqqa tushib eftalitlar tomonidan toshburon qilib o`ldirilgan. Urushdan keyingi xonavayronliklar natijasida xalq o`rtasida norozilik xarakatlari boshlanib, diniy tus ola boshlaydi. Bu xarakatlarga Mazdak Xamdadaon (470-29) raxbarlik qiladi. Mazdakning g`oyasi - kishilar dunyoning ne`matlaridan barobar foydalanishlari, er-suv, mol-mulkka barobar egalik qilish, xammaning o`zaro tengligiga erishishlari lozim, deydi. Mazdakning tarafdorlari ko`payib, dastlab Eronda, keyin Markaziy Osiyoga yoyiladi. Mazdak xarakatining kuchayganligidan xavsirab Kubodshoxning o`zi Mazdak bilan xisoblashishga majbur bo`ldi. Kubod esa Mazdakni zardushtiylikning koxini darajasiga ko`taradi. Lekin 529 yilda Mazdak qatl etiladi.

Eftalitlar o`z qo`l ostida Toxariston, Badaxshon, Sug`d, Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyoning ba`zi erlarini birlashtiradilar va Markaziy Osiyo xalklari tarixida muxim o`rin tutib, keyinchalik o`z o`rnini 563-567 yillardagi kurashdan sung Turk xoqonligiga bo`shatib beradi.

Feodal munosabatlari rivojlangan bu davrda erkin dexqonlar zodagonlar asoratiga tushib, ular karam -kadivarlarga aylanmoqda edi. Sug`orma erlarning bir qismi ibodatxonalar ixtiyorida bo`lib, ularni vagnze deganlar.

Eftalitlar kuchli qo`shinga ega bo`lgan. Suvoriylar moxir kamonboz bo`lgan. Sug`orish kanallari: Zaxarik, Bo`zsuv, Darg`am kanallari qaziladi (V asrda). Eftalitlar davrida xos bo`lgan qalin mudofaali feodal qo`rg`onlari: Naxshab voxasidagi Zaxoki-Moron qal`asi, Buxorodagi shaxri Vayron, Xorazmdagi Fir (Fil) qal`alaridir.

Bundan tashqari, tashqi dushmandan saqlash maqsadida qalin mudofaa devorlari: Samarqand voxasidagi 12 ta darvozadan iborat Devori Kiyomat, uzunligi 336 km li Buxorodagi Kampirak va Toshkent voxasidagi Kampirdevorlar qurilgan. Me`morchilikda qasrlar qurish odat tusiga kirgan.

**4-asosiy savol:** IV-VI asrlarda Turon xalqlarining madaniyati.

**4-asosiy savol bayoni:**

Kasrlar 2 kavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo`lgan. Pishiq g`ishtlar ishlatilgan. Devorlar rangdor tasvirlar bilan bezatilgan Bolaliktepani (Surxondaryo) ko`rsatish mumkin. Xorazmdagi Tuproqqal`a xarobasidan 100 ga yaqin turar joylar, 8 ta Saroy topildi. Eftalitlar me`morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyidir. Bu saroy VI-VII asrlarda Buxorxudotlarning qarorgoxi bo`lgan. SHuningdek, Oqtepadan (Toshkent), Junarigi yaqinidan, Poykentdan xam eftalitlar davri yodgorliklari topildi.

Chochda o`q-yoy (kamoniy-Chochiy) nomini olgan. Poykand eftalitlarning poytaxti bo`lgan. Eftalitlar Eron, Vizantiya, Xindiston, Xitoy bilan savdo aloqalari olib borgan. Buюk ipak yo`li nazoratida asosiy o`rinni egallamoqchi bo`ladilar, lekin sug`dlar etakchilik qiladi. YOzuv yodgorliklari Zangtepa, Koratepa, Afroisyob, Kofirqal`a xarobalaridan topilgan.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Erga egalik munosabatlarining shakllanishi va dexqonlar tabaqasining vujudga kelishi haqida gapirib bering.
2. Kadivarlar va kashovarzlar haqida nimalar bilasiz?
3. Turonzamizdagi mustaqil davlatlar: a) Xorazm davlati; b) Xioniylar davlati; v) Kidariylar; g) Eftaliylar davlatlari haqida fikr юriting.
4. IV-VI asrlarda Turon xalqlarining madaniyati qanday xususiyatlarga ega edi?

**ADABIYOTLAR :**

1. Xorazm tarixi. 1-jild, 1996.
2. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
3. Vatan tarixi. 1-kitob. T, 1997.
4. O`zbekiston Enцiklopediyasi. T, 1997.
5. Jaloliddin Manguberdi. T, 1999.
6. L.N.Gumilev. Eftalitы i ix sosedi v IV vekax. M, 1959.
7. V.A.Nilьsen Stanovlegnie feodalьnoy arxitekturы Sredney Azii (V-VIII vv). T, 1966.
8. N.V.Pigulevskaya. Mazdaxidskoe dvijenie. M, 1949.

## 15-mavzu: Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo.
## Fanni o`qitish texnologiyasi:
## « Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda Turk xoqonligi haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Turk xoqonligi to`g`risida birinchi ma`lumotlar qaysi manbalarda bayon etilganligi to`g`risida ma`lumot beradi.<br>• Turk xoqonligi boshqaruv tizimi haqida tushuncha beradi.<br>• Turk xoqonligi madaniyati haqida ma`lumot beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Ashina, Bumin, Turk xoqonligi, xoqon-kagan, Utukan, Istami, yabg`u, G`arbiy turk xoqonligi, to`dun, Runin yoki Kukturk bitiklari.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |

| | | |
|---|---|---|
| 3 | **<u>Guruhda ishlash.</u>**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **<u>Mustahkamlash va baholash:</u>**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Turk hoqonligining qanday tashkil topdi?<br>• Turk hoqonligida iqtimoiy-iqtisodiy hayot qanday edi?<br>• Turk hoqonligida boshqaruv tizimi qanday edi?<br>• Buxoroda Abruy qo`zg`oloni haqida gapiring. | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **<u>O`quv mashg`ulotini yakunlash.</u>**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Turk xoqonligining tashkil topishi.
2. G`arbiy turk xoqonligi va uning davlat boshqaruv tizimi.
3. G`arbiy turk xoqonligida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot.
4. G`arbiy turk xoqonligida madaniy xayot.

**Tayanch iboralar:** Ashina, Bumin, Turk xoqonligi, xoqon-kagan, Utukan, Istami, yabg`u, G`arbiy turk xoqonligi, to`dun, Runin yoki Kukturk bitiklari.

**1-asosiy savol:** Turk xoqonligining tashkil topishi.

**1-asosiy savol bayoni:**

V asrning 2-yarmida va VI asrning 1-yarmida Oltoy va Janubiy Sibirda Ashina-ashi qabilalari bo`lib, ularning yabg`ulari Asan (Asyan)shod va Tuu (460-545) lar turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o`g`li Bumin (turkcha) - Tumin (xitoycha) o`ziga tele qabilasini bo`ysundiradi va mustaxkamlanib olib o`zlari qaram bo`lib turgan jujanlardan xalos bo`lish yulini qidiradilar. Bumin 551 yilda Markaziy Osiyodagi eng kuchli bo`lgan jujanlar xonini mag`lub etadi. O`sha yili Bumin yangi davlat - Turk xoqonligiga (551- 744) asos soladi va "xoqon" (xukmdor) deb e`lon qilinadi. Ili daryosi bo`yida xukmdor deb e`lon qilingach, "ilixon" degan unvon xam oladi. Turklar xukmdori o`zini xoqon-kagan (turkcha) deb xam atay boshlaydi. Oltoydagi Utukan shaxri yangi turk xoqonligining poytaxti qilib belgilanadi. Bumin o`z ukasi Istamiga (turkcha - istemi, xitoycha - Sedimi, arabcha - Sinjibu, юnoncha - Stembi) birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaldori darajasiga to`g`ri keluvchi "yabg`u" (baxodir) unvonini berib, u bilan birgalikda o`z davlatini kengaytirish payiga tushadi. Istami ko`proq g`arbiy yunalishga boshchilik qilib shu orada Sharqiy Turksitondagi nushibi, turkash, uzli qabilalarini o`ziga bo`ysundiradi. Turklar xukmronligi shu paytlarda Xorazmga xam yoyilib, xoqonlik chegarasi Eftallar davlati xududlarigacha boradi.

Muqanxon (554-576) xukmronligi davrida Turk xoqonligi eng qudratli davriga ko`tariladi. Mukanxon 554 yilda Sharqqa юrish qilib, Uzoq Sharq o`lkalarini o`ziga bo`ysundiradi va Tinch okeani kirg`oqlariga chiqadi. U Urxun, Tug`la, Selenga daryolari bo`ylaridagi qabilalarni, Enisey daryosi bo`yidagi qirg`izlarni, Baykal atroflaridagi uyg`urlarni o`ziga bo`ysundiradi. Mukanxon Eftallarni tugatish uchun 554 yil Eron shoxi Xisrav I Anushervonga (531-579) elchi юboradi. Bu taklif uzok vaqt eftallar tazyiqida yashagan sosoniylarga ma`qul bo`ladi va ular xam eftallarning mag`lubiyatidan manfaatdor edilar.

558 yilda turklar Ural va Volga bo`ylarini zabt etib SHimoliy Kavkazdagi ko`chmanchi amarlar bilan to`qnashadi. Turklar Eftalitlar va avarlarga qarshi kurashda Vizantiya va

Eron bilan do`stona aloqani mustaxkamlay boshlaydi. Vizantiyadan foydalangan Eron Eftalitlardan Toxariston, CHag`aniyon va Kobul atrofidagi erlarni tortib oladi.

536 yildan Eftalitlarga qarshi shimoldan turklar Choch vodiysiga bostirib kiradilar. Tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallandi. Eftalitlar Xuttalon, Termiz, Balx, Amul, Zamm shaxarlaridan yordam olib, Buxoro yaqinida katta jangga tayyorgarlik ko`radilar. 8 kunlik shiddatli jangda eftalitlar turklarda. Turklar tezlik bilan xarakat qilib, iloji boricha eftalitlarning erlarini ko`proq o`z qo`llariga olishga xarakat qilardi.

Amudaryoning janubiy soxiligacha bo`lgan erlar, Eron, uning shimoliy soxillaridan Kaspiygacha bo`lgan erlar turklar qo`liga o`tadi. Eftalitlardan qolgan qutganlari Zarafshon voxasida yashab turklarga soliq to`lab turadilar. Janubdagi eftalitlar erlari sosoniylar tomonidan bir oz vaktdan keyin butkul bo`ysundirib olinadi.

Eftalitlar davlatining mag`lubiyatidan so`ng bevosita ittifoqchilar o`rtasida kelishmovchiliklar paydo bo`la boshladi. Xoqonlikning bevosita g`arbiy qismini boshqarib turgan Istami va bosh Xoqon Muqanxon xam savdo yuli va uning axamiyatini yaxshi tushunib bu masalani tinchlik yo`li bilan xal qilishga xarakat qila boshladilar.

Istami yabg`u Sug`d ixshidiga bu masalani xal etish vazifasini topshiradi. Eronga mashxur Sug`d savdogari va diplomati Moniax boshchiligida elchilar guruxi jo`natiladi. Xisravshox o`z atrofidagi amaldorlarning maslaxatiga kirib, sug`diylar olib kelgan ipakliklarni sotib olib, so`ng uni elchilar ko`zi oldida yigib yokib tashlaydi. Istami bu vokeadan so`ng qattiq ranjisada, Xisravshox xuzuriga ikkinchi marotaba o`z elchilarini юboradi. Bu elchilar guruxi faqat turklardan iborat bo`ladi. Lekin bu safar turk elchilari zaxarlab o`ldiriladi va bir nechtasigina sog` qolib, xoqon xuzuriga etib keladilar. Sosoniylar esa bu voqeani turklarning o`zlariga qo`yib "turklar issik xavoni kutara olmadilar", deb berkitadilar. Istami esa Xisrav I Anushervon qo`shinalarini tor-mor qilib, Eronning shimoliga bostirib kiradi.

Eftalitlar o`z erlarini Eronga tushib qolgan qismini yana o`zlariga qaytarib oladilar. Eron tinchlik sulxiga kelishib, 4000 Vizantiya tillasi to`lash majburiyatini oladi. Undan so`ng Eron bilan Vizantiya (Юstin II) o`rtasida xam urush boshlanib ketib, sosniylar davlati juda nochor axvolga tushib qoladi.

576 yilda Muqanxon va Istami yabg`ularning vafotidan keyin Turk xoqonligining ta`siri ancha zaiflasha boshlaydi. Eron sarkardasi Baxrom CHubin CHurbaga xoqon qo`mondonligidagi 300000 kishilik turk qo`shinini tor-mor qiladi. CHurbaga xoqon jangda xalok bo`ladi. Baxrom CHubin Buxoro yaqinidagi Poykend shaxriga bostirib kirib, xoqonning o`g`li Barmuda Teginni asirga oladi. Xoqon xazinasini esa Eron shoxi Xurmuzdga юboradi.

Muqan xoqondan keyin taxtga ukasi Arslon Tuba (576-581) o`tiradi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jixatdan rivojlantirish choralarini ko`radi. Ammo Arslon Tuba vafotidan keyin Turk xoqonlari o`rtasida o`zaro kurash avj olib ketadi. Natijada xoqonlik 2 qismga: Sharqiy qism - Xitoy, Mo`g`ulistonning bir qismini o`z ichiga olgan, Arslon Tubaning kichik o`g`li Ishbara boshqara boshlaydi; G`arbiy qism - Ettisuv, Markaziy Osiyoning asosiy qismi, SHarkiy Turkiston, xozirgi Kozog`iston tasarrufidagi erlar, Istami yabg`uning o`g`li Kora CHurin boshqarar edi.

Bundan keyin xam bir qancha xoqonlar (Turomok, Arok) bo`lib, mamlakat ichidagi axvol keskinlashib, iqtisodiy tanazzul boshlanib ketadi. SHunday keskin vaziyat paytida turkiy shaxzoda Obruy boshchiligida (585-586) xalq xarakati bo`lib o`tadi. Obruy xaqida Nishopuriyning va Narshaxiyning asarlarida ko`rsatilishicha, Obro`yning qarorgoxi Poykandda bo`lgan, u boy zodagon va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o`rnatgan. Bunga chiday olmagan zodagonlar Turkiston tomonga yo`l olishgan. Obruy atrofida esa qashshoq qambag`al dexkonlar bo`lgan.

O`zaro urushlar mamlakatning parchalanib ketishiga va inqirozga юz tutishiga olib kelgan. 600 yillarda Kora CHurin qarib qolgan vaktda o`zini qaxramon xoqon deb e`lon

qiladi. Lekin davlatni imkoniyati yo`q edi. Bundan foydalangan Xitoy imperatori ichki nizolar keltirib chiqarishga xarakat qiladi. 582-603 yillardagi o`zaro urushlar natijasida 603 yilda xoqonlik to`la mustaqil 2 xoqonlikka ajraladi.

**2-asosiy savol:** G`arbiy turk xoqonligi va uning davlat boshqaruv tizimi.
**2-asosiy savolning bayoni:**

G`arbiy xoqonlikka Ettisuv, CHu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryolari bo`ylaridagi erlar, Markaziy Osiyoning erlari kirgan. Bu xoqonlik VII asrning 1-choragida kuchayadi. Ayniqsa Tunyabg`u (618-630) davrida kuchli bo`lib boshqaruv tartiblari islox qilinadi. Maxalliy xukmdorlarga "yabgu" unvoni berilardi va xoqonning noibiga aylanadilar. Lekin VIII asrning o`rtalarida G`arbiy xoqonlik zaiflashib boradi. CHunki vaziyatdan foydalangan Xitoy imperatori 657-659 yillarda Ettisuvga bostirib kiradi. VII asrning oxirlarida xoqonlik mustaqilligini biroz tiklab olib, Xitoy gumashtasi Xisrav Burishodni kuvib chiqaradi.

Turk xoqonligida oliy xukmronlik xoqon qulida bulgan. Bu lavozim merosiy bo`lmagan. Taxt soxibini "ulus oqsokollari" tayinlagan. Turkiylar xoqonni taxtga o`tqazganda qigizga o`tkazib, quyosh юrishi bo`ylab 9 marta aylantirganlar, ishtirokchilar uni qutlab turganlar. Keyin xonni otga mindirib, bo`yniga ipak mato solganlar. Keyin undan necha yil xon bo`lishini so`rav o`tqazganlar Xoqondan keyingi shaxs "yabg`u" (baxodir) davlatning birinchi amaldori (vaziri) bo`lgan. YAbg`u xam taxtga merosxur bo`la olmas edi. Taxt merosxo`ri "tegin" (shaxzoda) deb юritilgan.

Xoqonlikda "to`dun" unvoni bo`lib, bu xukmdorning joylardagi noibi (nazoratchisi) bo`lgan.

**3-asosiy savol:** G`arbiy turk xoqonligida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot.
**3-asosiy savol bayoni:**

CHorvador turklarda urug`-aymoqchilik kuchli bo`lgan. Bular ko`chmanchi chorvadorlar bo`lib, bularni "budun" yoki "qora budunlar" deganlar.

Markaziy Osiyoda bu paytda 15 ga yaqin mayda davlatlar bo`lib, ular: Sug`dda ixshidlar, Toxaristonda Malikshoxlar, Buxoroda Buxorxudotlar, Xorazmda xorazmshoxlar, Choch va Elokda budunlar, Farg`onada ixshidlar xukmronlik qilganlar.

Markaziy Osiyoning bu davrda yirik shaxarlari Marv, Poykand, Buxoro, Samarqand, Choch, Isfijob, Suyob bo`lgan.

Turkiylarning diniy urf-odatlari quyidagilarda ko`ringan:

- Xoqon qarorgoxiga Sharq tomonda kurilgan, bu esa quyoshga sig`inishni bildirgan;
- Xar yili xoqon o`z amaldorlari bilan g`orga borib, ota-bobolariga qurbonlik qilganlar;
- Xar yili 5 marta oy chiqishida xoqon yaqinlarini yig`ib, daryo bo`yida Tangriga qurbonlik qilganlar.
- Biror kishi qazo qilsa, uning yoniga buюm va asri ko`yib ko`mganlar.

**4-asosiy savol:** G`arbiy turk xoqonligida madaniy xayot.
**4-asosiy savol bayoni:**
Turklar xayotini o`rganuvchi ko`pgina ma`lumotlar bor. Runin yoki Kukturk bitiklari deb юritilgan turk manbalari, Mo`g`ulistonda topilgan Tunюkuk, Kultegin, Bilga xoqon va Ongin bitiktoshlari (bular birgalikda Urxun-Enisey yozuvlari deb юritiladi). Kultegin qabrtoshi VII asrning 1-yarmida yozilgan. Kabr toshining balandligi 3 m 15 sm, kengligi 1 m 24 sm, qalinligi 41 sm va 63 satrdan iborat bo`lgan. Bundan tashqari Xitoydan topilgan 104 satrli "Ta`birnoma" asari turklar xayotiga aloqadordir.

## NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Turk hoqonligining qanday tashkil topdi?
2. Turk hoqonligida iqtimoiy-iqtisodiy hayot qanday edi?
3. Turk hoqonligida boshqaruv tizimi qanday edi?
4. Buxoroda Abruy qo`zg`oloni haqida gapiring.

**ADABIYOTLAR :**

1. I.Karimov. Turkiston - umumiy uyimiz. T, 1995.
2. Nasimxon Raxmon. Turk xoqonligi. T, 1993.
3. K.Maxmudov. Turkiy xoqonliklar. Turon tarixi. T, 1992.
4. A.Axmedov. Turon. Muloqot, 6-son, 1991.
5. L.I.Gumilev. Drevnie tюrki. M, 1967.
6. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
7. O`zbekiston Enцiklopediyasi. T, 1997.

## 16-mavzu: Ilk o`rta asrlarda maxalliy davlatlar.
## Fanni o`qitish texnologiyasi:
## «Ilk o`rta asrlarda maxalliy davlatlar» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda Sug`d ixshidlari, Toxaristorn, Farg`ona, Choch va Eloq davlatlari haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Movaraunnaxr va Xorazmda shakllangan ilk shaxarlarning shakllanishi to`g`risida to`liq ma`lumot beradi.<br>• Turli manbaalardan olingan ma`lumotlarni ta`rifaydi, ma`lumot beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Sug`d ixshidlari, Toxaristorn, Farg`ona, Choch va Eloq, Samarqand, Burgutqal`a, Kurg`oncha, Ko`shk, qasr, qo`rg`on, zardushtiylik, budda, nasoro (xristian), moniy, qam (shomon).<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Ilk o`rta asrlarda maxalliy davlatlar: Sug`d ixshidlari, Toxaristorn, Farg`ona, Choch va Eloq davlatlari haqidka ma`lumot bering.<br>• Ilk o`rta asr shaxarlarining o`ziga xos xususiyatlari qanday edi?<br>• Ilk o`rta asrlarda madaniy xayot, din va diniy e`tiqodlar haqida gapiring. | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**

1. Ilk o`rta asrlarda maxalliy davlatlar: Sug`d ixshidlari, Toxaristorn, Farg`ona, Choch va Eloq.
2. Ilk o`rta asr shaxarlari.
3. Ilk o`rta asrlarda madaniy xayot, din va diniy e`tiqodlar.

**Tayanch iboralar:** Sug`d ixshidlari, Toxaristorn, Farg`ona, Choch va Eloq, Samarqand, Burgutqal`a, Kurg`oncha, Ko`shk, qasr, qo`rg`on, zardushtiylik, budda, nasoro (xristian), moniy, qam (shomon).

**1-asosiy savol:** Ilk o`rta asrlarda maxalliy davlatlar: Sug`d ixshidlari, Toxaristorn, Farg`ona, Choch va Eloq.

**1-asosiy savol bayoni:**

V-VI asrlarda Markaziy Osiyoda 15 dan ortiq mustaqil feodal davlat (xokimlik)lar tashkil topadi. Bunday davlatlardan eng kattasi Sug`d, Toxariston, Xorazm, Choch va Eloq xamda Farg`ona bo`lgan.

Sug`d ixshidlari (ixshid - forscha dexqon degani) - Sug`dning ilk feodal davlatlari ichida siyosiy nufuzga ega bo`lgan va Zarafshon va qashqadaryo vodiylarida joylashgan. Samarkand, Buxoro, Kesh, Naxshab, Maymurg`, Ishtiqoq, Kushoniya, Vardona xududlarini birlashtirgan. Bular mulkliklar bo`lib, xar biri o`z xokimiga va xarbiy choparlariga ega bo`lgan. Mulkliklar ichida Samarqanda siyosiy mavqe jixatidan nufuzli bo`lsada, Buxoro, Kesh va Naxshablar xam mustaqil edi. Sug`dda axoli zich yashagan va dexkonchilik, bog`dorchilik, uzumchilik rivojlangan bo`lib, xosildor erlardan iborat bo`lgan. Dexqonchilik bilan birga chorvachilik xam rivojlangan. Xunarmandchilik va savdo taraqqiy etgan.

Afrosiyobda topilgan devori rasmda Sug`d xokimi Varxumani CHag`oniyon, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan.

Toxariston - Surxondaryo viloyati, janubiy Tojikiston va SHimoliy Afg`onsiton xududlarida joylashgan bo`lib, 27 ta tog` va tog`oldi vilotlarni birlashtirgan. SHimoliy chegarasi "Temir darvoza" (SHaxrisabz bilan Termiz o`rtasidagi Buzgalaxona tog` darasi) orqali o`tgan. Turk xoqonligi tomonidan bo`ysundirilgan.
Budda dini asosiy din bo`lgan. 25 xarfli yozuvi bo`lib, kundalangiga chapdan o`ngga bitilgan.

Toxariston axolisi ipakchilik bilan shug`ullanganligi ularning ipak matolardan kiygan kiyimlaridan xam ko`rinadi. Tog` oldi axolisi chorvachilik bilan shug`ullanganligi ularning po`stin va jun chaqmon kiyganligidan ko`rinadi.

Kadimdan Toxaristonda konchilik rivojlangan, shishasozlik rivojlangan. Poytaxti Balx shaxri bo`lgan. Farg`ona - qadimda Dovon Parkana deb nom olgan Farg`ona davlat sifatida faoliyat ko`rsatdi. Farg`ona deb V asrdan юritila boshlangan. Podsholari ixshidlar deb юritilgan. Poytaxti Koson va Axsikat bo`lgan. Farg`ona erlari xosildor bo`lib, dexqonchilik rivojlangan. Farg`ona xunarmandlari tomonidan ishlab chikilgan maxsulotlar ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo`lgan.

Kadimdan Farg`onaliklar o`z arg`umoqlari bilan shon-shuxrat qozonganlar. Farg`ona strategik jixatdan qulay geografik o`ringa ega bo`lgan. Ilk o`rta asrlarda xam Farg`ona O`rta Osiyonning siyosiy xayotida muxim davlat bo`lgan.

Choch va Eloq - V-VII asrlarda CHirchiq va Oxangaron vodiylarida 2 ta mustaqil ilk feodal davlatlari - Choch davlati va Eloq mulki faoliyat ko`rsatgan. Choch Xitoy manbalarida SHi va CHjeshi deyilgan. Choch va Eloq shimoli-g`arbdan G`arbiy Turk xoqonligi, sharqdan Farg`ona, janubda Usturshona bilan chegaralangan.

Choch poytaxti Chochkat (Mingurlik tepaligida joylashgan), podshosi esa tudun deb юritilgan. Eloqning poytaxti Tunkat bo`lib, xokimlari dexqon deb atalgan. Choch viloyati V asrda Eftallarga, VI asrda Choch va Eloq birlashib mustaqilligini tiklab yagona davlatga aylanadi.

Choch va Eloqda sug`orma dexqonchilik, konchilik rivojlangan. Eloq O`rta Sharqda oltin va kumush olishda shuxrat qozongan. Karvon yo`lining Choch va Eloq xududidan o`tishi xam savdo- sotiqning kengayishiga, chetga ko`plab maxsulot chiqarishga sabab bo`lgan. VI-VIII asrlarda Chochliklar Sharqiy Turkiston bilan savdo- sotiq qilishda

Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi o`rinda turgan. Chochkat tashqi savdoning markazi bo`lgan.

VII-VIII asrlarda Chochda kumush va mis chaqalar yasaydigan zarbxona bo`lgan. Choch podsholari (tudun) old tomoniga mulkdorning portreti, orqasiga gajak dumli sher yoki qoplon tasviri bo`lgan chaqalar zarb qilgan. Sug`d tilidan rasmiy til sifatida foydalanganlar.

**2-asosiy savol:** Ilk o`rta asr shaxarlari.

**2-asosiy savolning bayoni:**

V-VII asrlarda O`rta Osiyoda ilk feodal munosabatlarning jadallashishi, ko`chmanchi qabilalarning o`troqlashishi ekin erlariga bo`lgan extiyojni kuchaytirdi. Shaxarlar gavjumlashdi, ya`ni sug`orma dexqonchilik maydonlarining kengayishi, qishloq xujalik maxsulotlarining ortib borishi, xunarmandchilik buюmlariga extiyojning kuchayishi, savdo-sotiqning avj olishi o`z navbatida shaxarlarning ravnaq topishiga ta`sir qildi.

Shaxarlar ko`p bo`lishi bilan maydonlari uncha katta emas edi. Eng katta shaxarlardan biri Samarqand shaxri edi. Uning maydoni 220 ga bo`lgan.

Dexqonchilik xujaligida feodal munosabatlarning jadallashuvchi-ko`chmanchi qabilalarning o`troqlashuvi bilan ekin maydonlariga extiyoj ortib, ziroatkor erlar kengaydi. Kanallar qazildi, yangi erlar o`zlashtirildi va shaxarlar gavjumlashdi. Ko`shk (istexkomli baland qo`rg`on), qasr (saroy, oliy va xashamatli bino), qo`rg`on va qo`rg`oncha (atrofi baland paxsa devor bilan o`ralgan darvozali turar joy) lar yirik sug`orish inshootlari boshida joylashdilar. Kurg`onchalar esa voxalardagi qal`a atrofida qad ko`tardi. Masalan: VI-VIII asrlarda Kadimgi Xorazmning Burgutqal`asida 100 ga yaqin ko`shk va qasrli qo`rgonlar va qo`rg`onchalar bo`lgan va bular bir-birlaridan 100-200 m masofada joylashganlar. Buxoroda esa 3 ta sug`orish tarmoqlari bo`ylab 4000 ga yaqin qasr qad ko`targan. Ko`shk va qasrlar qo`rg`onlarda zodagon dexqonlar, qo`rg`onchalarda ziroatkor maxnatkash axoli yashaganlar.

**3-asosiy savol:** Ilk o`rta asrlarda madaniy xayot, din va diniy e`tiqodlar.

**3-asosiy savol bayoni:**

Markaziy Osiyo xalqlarining dini va diniy e`tiqodi. V-VI asrlarda diniy e`tiqod bilan uzviy bog`liq bo`lgan tasviriy san`at - koroplastika - ma`budalarning sopol xaykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyildi. Eftalitlar davrida saroy av ibodatxona devorlarnini turli mazmundagi rangdor tasvirlar Bilan bezash odat tusiga kirgan. Bunday nodir tasviriy san`at naumnalari Bolaliktepa qasridan topildi.

VI-VIII asrlarda O`rta Osiyoda zardushtiylik, budda, nasoro (xristian), moniy, qam (shomon) dinlari keng yoyilgan. Mamlakatda ko`p dinlilik e`tikodlari keng yoyilsada, zardushtiylik asosiy din edi.

Zardushtiylik - mil.avv. I ming yillikning 1-yarmida Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Bu din ibtidoiy davrda odamlar tevarak atrofdagi tabiatni iloxiylashtirgan bir davrda юzaga kelgan. Ular suv, er, xavoni muqaddas deb bilganlar. Bu dinning asoschisi Zardusht (Zaratushtra) bo`lib, u mil.avv. I ming yillikning 1-choragida yashagan. Zardushtiylikning muqaddas iloxlari: Axuramazda (buюk va mutafakkir, Zardushtning xomiysi), Mitra (quyosh va yoruglik xudosi, tukin-sochinlikni ta`minlovchi), Anaxita (xosildorlik va suv xudosi), Xumo (baxt va boylik) iloxlaridir. Zardushtiylik dini bo`yicha dunyo 2 qismdan - yaxshilik va yomonlikdan tashkil topgan. Xayotning asosiy mazmuni - xayrli ish qilish, shirin so`z, adolatli turmush ko`rish. Zardushtiylik dini bo`yicha xayot yo`lini xar bir insonning o`zi belgilaydi.

Zardushtiylik o`rta asrlar davrida Xorazm, Sug`d, Choch viloyatlarida keng tarqalgan. Katta va kichik shaxarlarda zardushtiylikning ibodatxonalari (vagnlari) bo`lgan. Ibodatxonalarning bosh koxinlari, ya`ni vagnpatlari bo`lgan.

Muqaddas otash, ya`ni azarxurralari bo`lgan. Maxsus olovxonalari, ya`ni otashkadalari bo`lgan. Ibodatxonaning kichik koxinlari - atrabanlari bo`lgan. Ular Axuramazdaga barcha narsalarning yaratuvchisi sifatida sig`inganlar. U yovuzlik xudosi Axriman Bilan doimo kurash olib borgan. Ular olovga (quyoshga) sig`inganlar. CHunki kuyosh olamga xayot bag`ishlovchi, nur tarqatuvchi deb bilganlar. Zardushtiylik dini bo`yicha koinot 4 unsurdan olov, tuproq, suv, xavodan iborat bo`lgan. SHuning uchun ularni iflos qilish taqiqlangan. Xatto o`likni xam na tuproq, na suvga tashlamaganlar, balki ostadonlarga (assuariylarga) solib, xilxona (naus) ga kiritib supaga qo`yganlar.

Budda dini - O`rta Osiyoning janubiy viloyatlarida, Toxaristonda, Farg`ona, Ettisuv, Sharqiy Turkistonda, ayniqsa shaxar axolisi o`rtasida keng yoyilgan. Arxeologik tekshirishlar natijasida Farg`ona vodiysining Kuva, Terviz yakinidagi Zangtepa yodgorliklaridan budda dini xaykalchalari topildi.

Nasoro (xristianlik) - Samarqand viloyatining Urgut tumani axolisi e`tiqod qilgan va V-VI asrlarda bu din Sug`dga kirib kelgan. Arxeologik tekshirishlar natijasida Urgut yaqinida Kushtepa edgorligidan topildi.

Moniy dini - Vatanimiz xududida milodimizning III asr o`rtalaridan boshlab moniy dini xam keng tarqaldi. Uning asoschisi Moniy ibn Fatan (216-277) dir. Moniy 230 yilda Eron, Markaziy Osiyo, Xindiston bo`ylab safarga chiqib, 240 yildan moniylik dinini keng yoydi. Moniy ta`limotida olamning ibtidosi 2 qarama-qarshi yaratuvchi - yorug`lik va ezgulik, zulmat va yovuzlikdan iborat deb bilganlar.

Ibodat Kuyosh va Oyga bag`ishlanib, yakshanba va xayit kunlari ro`za tutilgan. Sadaqa berish burch xisoblangan. Moniy dinida savdo- sotiq rag`batlantirilgan, tasviriy san`at va musiqaga kata e`tibor berilgan. VI-VIII asrlarda Moniy dini Murg`ob voxasi orqali Toxariston, Sug`d, Sharqiy Turkiston va Xitoyga yoyilgan.

SHomon (qam) dini - Turk xoqonligining chorvador axolisi o`rtasida keng tarqalgan. Bu din jon va ruxlarga sig`inishga asoslangan. Kadimgi turklar o`z dinini qam deganlar, chunki shomon so`zi bo`lmagan. Ular Kuktangriga (osmonga) siginganlar, yakka xudolikni targ`ib qilganlar.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Ilk o`rta asrlarda maxalliy davlatlar: Sug`d ixshidlari, Toxaristorn, Farg`ona, Choch va Eloq davlatlari haqidka ma`lumot bering.
2. Ilk o`rta asr shaxarlarining o`ziga xos xususiyatlari qanday edi?
3. Ilk o`rta asrlarda madaniy xayot, din va diniy e`tiqodlar haqida gapiring.

**ADABIYOTLAR :**


1. U.Alimov. O`rta asrlarda Movarounnaxrda bog`chilik xujaligi tarixi. T, 1984.
2. B.Axmedov. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T, 1991.
3. A.Muxammadjonov. O`zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari. T, 1997.
4. A.S.Sagdullaev, B.J.Eshov. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
5. SH.Karimov, R.SHamsutdinov. Vatan tarixi. 1-kitob. T, 1997.
6. A.Muxammadjonov. O`zbekiston tarixi. T, 1999.


## 17-mavzu: Arablarning O`rta Osiyoga bostirib kirish va uning oqibatlari. Arablarga qarshi xalq qo`zg`olonlari.

### Fanni o`qitish texnologiyasi:

### « Arablarning O`rta Osiyoga bostirib kirish va uning oqibatlari. Arablarga qarshi xalq qo`zg`olonlari» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| | **Tayyorlov bosqichi**<br>**<u>1.1 Dars maqsadi</u>**: Talabalarda arablarning O`rta Osiyoga bostirib kirish va uning oqibatlari haqida tushuncha hosil qilish.<br>**<u>1.2. Identiv maqsadlar:</u>**<br>• Islom dinining maxalliy axolii xayotida tutgan o`rnini ochib beradi. | |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | • Arablar davri madaniyatini ochib beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Islom dini, Arab xalifaligi, Movarounnaxr, Xuroson, Kutayba ibn Muslim, Divashtich, Gurak.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Islom dinining kelib chiqishi va Arab xalifaligining tashkil topishi haqida gapiring.<br>• Arablarning O`rta Osiyoni bosib olishi va uning oqibatlari qanday bo`ldi?<br>• Xalifalikka qarshi xalq qo`zg`olonlari haqida nimalar bilasiz? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi. | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Islom dinining kelib chiqishi va Arab xalifaligi.
2. Arablarning O`rta Osiyoni bosib olishi va uning oqibatlari.
3. Xalifalikka qarshi xalq qo`zg`olonlari. Abu Muslim, Muqanna qo`zg`olonlari.

**Tayanch iboralar:** Islom dini, Arab xalifaligi, Movarounnaxr, Xuroson, Kutayba ibn Muslim, Divashtich, Gurak.

**1-asosiy savol:** Islom dinining kelib chiqishi va Arab xalifaligi.
**1-asosiy savol bayoni:**
Islom dining vatani Arabiston yarim oroli bo`lib, bu erda asosan ko`chmanchi chorvachilik, voxalarda dexqonchilik bilan shug`ullanganlar. VI asrning 2-yarmi va VII asrning 1-yarmida arablar xayotida ijtimoiy o`zgarishlar юz berdi. Arablarda urug`-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo`lib, endigina feodal munosabatlar vujudga kela boshlagan. Bunday o`zgarishlar mamlakatni birlashtirishni taqozo etgan. Savdogar va xunarmand axoli birlashish tarafdori bo`lib chiqdilar. Xalqni birlashtirishni yagona yo`li sifatida yakka xudolikni targ`ib qilish va islom dini nomi Bilan birlashtirishni Muxammad binni Abdullox (570-632) raxnamosi bo`lgan. Islom arabcha so`z bo`lib, xudoga o`zini topshirish, itoat, bo`ysunish, tobelik, bo`yin egish ma`nolarini anglatadi. Muxammadning izdoshlari muslim (musulmon) deyiladi.

Muxammad paygambarlik faoliyatini Makkada boshlagan va shu erda Ka`ba joylashgan. Ka`bani Odam ato barpo etib, Ibroxim payg`ambar o`g`li Ismoil bilan birga qurib, birinchi Xaj safarini uюshtirgan. Ka`baning ichida muqaddas tosh (xajar-ul-asvod) o`rnatilgan. Muxammadga qarshi kuraysh qabilasining ta`qibi kuchayadi va 622 yil 16 iюlda u do`sti Abu Bakr bilan Makkadan Madinaga xijrat qiladi, ya`ni ko`chadi va shu kundan boshlab musulmon olamida xijriy yil boshlanadi.

Xijriy yil xisobi 2 xil bo`ladi: xijriy kamariy, ya`ni oy xisobi bo`yicha va xijriy-shamsiy, ya`ni kuyosh xisobi bo`yicha. Muxammad vafot etgach, avval Abu Bakr (632-634),

so`ngra Umar (634-644), Usmon (644-656) va Ali (656-661) lar xalifa, ya`ni o`rinbosar deb e`lon qilinadi. Natijada Arabistonda islom dini to`la g`alaba qilib, markazlashgan musulmon davlati - Arab xalifaligi tashkil topadi.

**2-asosiy savol:** Arablarning O`rta Osiyoni bosib olishi va uning oqibatlari.

**2-asosiy savolning bayoni:**

VII asrning 2-yarmida xalifalik o`z erlarini kengaytirishga xarakat qiladi. Arablar Amudaryodan shimoldagi erlarni Movarounnaxr - daryoning narigi tomonidagi (daryoning ortidagi) erlar deb ataydilar. Xozirgi Arabistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqi xamda janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo`lgan erlar Xuroson deb юritilgan. Arablar O`rta Osiyoni bosib olishni Xuroson noibligi orqali boshqargan. Bosib olish 2 davrni o`z ichiga oladi:

Arablar Movarounnaxrni bosib olish uchun emas, dastlab uni xarbyi jixatdan tayyorgarlik qo`rish, maxalliy xukmdorlarni sinash maqsadida юrish qiladi. Arablarning Movarounnaxrga ilk bor xujumi 654 yilda Sug`ddagi Maymurg` qal`asiga bo`ladi. Keyinchalik 667 yilda CHag`oniyonga юrish qiladilar.

Narshaxiyning yozishicha, 673 yilda (kuzda) xalifa Muoviyaning (661-680) farmoni bilan Xuroson noibi Ubaydullox ibn Ziyod Amudaryodan o`tib Buxoro viloyatiga bostirib kiradi. Poykand va Romitanni egallaydi. Buxoroliklar esa bir lak (100000) dirxam (kumush tanga) boj to`laydilar.

676 yilda Xurosonning yangi noibi Said ibn Usmon yana Buxoroga bostirib keladi va uni bosib oladi. Said ibn Usmon Buxorodan Samarqandga yo`l oladi va uni bir oy davomida qamal qiladi. U Samarqanddan 30000 kishini asir olib kaytib, yo`l-yo`lakay Termizni xam bosib oladi. Samarqand yaqinidagi jangda paygambarning jiyani Kusam ibn Abbos ibn Abdul-mutallib vafot etadi. Uni SHoxi-Zinda (tirik shox) nomini olgan qabristonga ko`madilar. Xalifa YAzid vafotidan so`ng (683) toju-taxt uchun kurash boshlanadi. Xalifa Abdumalik ibn Marvon (685-705) davrida ichki nizolarga chek qo`yiladi va arab siyosatchilari Movarounnaxrga xaqiqiy юrish qilish vaqti keldi deb ko`rsatadilar. YAngi Xuroson noibi Kutayba ibn Muslimga (704-705) Iron noibi al-Xajjoj Muvarounnaxrni butkul egallashni topshiradi. Xarbiy юrishni Kutayba 705 yilda Balxni bosib olishdan boshlaydi. Natijada arablarning Movarounnaxrga 2-юrish davri boshlanadi. 707 yilda Kutayba katta qo`shin bilan Buxoroga kirib keladi va Poykandni 50 kun kamal qiladi. Poykand fojiasidan keyin Kutaybaga zarba berish uchun Sug`d podshosi Tarxun, Buxoro xukmdori Xununxudot, SHopurkon xokimi Vardanxudot boshliq katta qo`shin yigiladi va 40000 kishiga etadi. Kutayba Romitan oralig`ida qurshovda koladi. Lekin u makkorlik qilib Nabatiy (o`zining yaqin kishisi, juda mard kishi)ni Sug`d podshosi Tarxun xuzuriga vakil qilib юboradi va Tarxunga xavo sovushi bilan Marvga qaytajakligini aytadi. Bunga ishongan Tarxun Kutayba lageriga bosqinchilardan qutulsam bo`lgan deb, 2 mln dirxam юborib sulx tuzadi. Lekin arablar makkorlik qilib, 708-709 yillarda Buxoroni bosib oladi. Buxorxudot Tug`shodani va unga amir qilib o`z yaqinlarini tayinlaydi.

Tug`shoda 30 yil xokimlik qiladi. Kutayba Buxoro shaxristonini taqsimlab, Attorlar darvozasidan to Xisor va Nav (yangi) darvozalarigacha maxalla-uylarni arablarning rabi`a va mazay qabilalariga, qolganlarini yamanliklarga bo`lib beradi.

Kutayba Buxoro markazida joylashgan otashparastlik ibodatxonasini jome masjidiga aylantirib, sug`diy tili va xatida bitilgan otashparastlik asarlarini yo`qotadi. Masjidga katnaganlarga 2 dirxamdan pul beradi (dirxam=3,185 gramm).

710 yilda Kutayba SHuman, Nasaf va Keshni bosib oladi. Samarqandga юrishga tayyorgarlik ko`radi. Biroq Xorazmda boshlangan ichki nizo Kutaybani Xorazmni bosib olishini tezlashtiradi va u Samarqand юrishini kechiktirib, Xorazmga qo`shin tortadi. Xorazmshox CHag`on ukasi Xurzod boshchiligidagi qo`zg`olondan qo`rqib, 711 yilda yordam so`rab Kutaybaga murojaat qiladi. Arablar Xurzodni uldiradilar va

qo`zg`olonni tor-mor qiladilar. Natijada Xorazm o`z mustaqilligini yo`qotib, arablar bojdoriga aylanadi. 712 yilda Kutayba Samarqandga xujum qiladi. Bu payt Samarqand ixshidi Tarxun o`rniga akasi Gurak (709-738) podsho bo`ladi. Samarqand bir oy shiddatli janglardan keyin taslim bo`ladi. Gurak va Kutayba o`rtasida shartnoma tuzilib, Gurak arablarga bir yo`la 2000, yiliga 20000 dirxam xisobida boj, 30000 odam berish, ichki shaxarni bushatib berish majburiyatini oladi. Bular evaziga Kutayba Gurakni Samarqand, Kesh va Naxshabga xokin qilib tayinlaydi.

713 yilda Kutayba Buxoro, Kesh, Nasaf, Xorazm axolisidan 20000 askar to`plab berishni talab qiladi. 714 yilda Istijobga юrish qiladi. 715 yilda Farg`onani egallab, Kashg`arga kirib boradi. SHu yili xalifa Volid vafot etadi. Uning o`rniga Kutaybaning raqibi Sulaymon taxtga o`tiradi. Ammo Kutayba yangi xalifaga qarshi isyon ko`taradi va 715 yilda arab askarlari tomonidan o`ldiriladi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, arablar Movarounnaxrni tubandagi sabablarga ko`ra bosib oldilar:

- viloyat xukmdorlari o`rtasidagi o`zaro ziddiyatlar mavjudligi;
- arabalar bostirib kirishi bilan kuchlarning birlashuviga yo`l qo`ymaganligi;
- Kutayba bosib olishida bosib olingan viloyatlarning qo`shinlaridan xam foydalanganligi; -kupgina xukmdorlar bosqinchilarning puch va`dalariga uchib, sotqinlik qilganliklari. Arablar istilosi Movarounnaxrda kuyidagi iqtisodiy okibatlarga olib keldi:
- arablar 500 yil davomida xunarmandchilik va savdo shaxarlarini, obod viloyatlarni bosib olib katta o`ljaga ega bo`ldilar;
- suv inshootlari buzilib, ekin maydonlari suvsiz qoldi;
- bosib olingan shaxar va qishloqlar axolisidan oltin, kumush va qimmatbaxo buюmlarni tortib oldilar;
- arablar mamlakatda xalifalik xukmronligini yanada mustaxkamladilar.
- arablar sosoniylarning soliq tizimini joriy qildilar va ekin erlaridan 1/4 xissa xiroj, chorva, xunarmandchilik va savdodan 1/40 xissa zakot, islomni qabul qilmaganlardan jon boshi solig`i (juzьya) undirib oldilar.

Arablar istilosi Movarounnaxrda quyidagi ma`naviy oqibatlarga olib keldi:

- islom dinini axoli o`rtasida kengroq yoyishga katta e`tibor berdilar;
- xalqni dini islomga birlashtirishga xarakat qilib, boshqa dinlarni soxta din deb e`lon qildilar;
- ibodatxonalarni buzib, ularnining o`rnida xam masjidlar barpo qildilar;
- islomni qabul qilganlarni xiroj va juzьyadan ozod qildilar;
- islomni qabul qilmaganlardan xiroj va juzьyani undirib olib, soliqni o`z vaqtida to`lamaganlarning bo`yniga "qarzdor" degan taxtacha osib qo`ydilar;
- arablar tomonidan maxalliy xalqning urf-odatlari, dini, madaniyati, adabiyoti va san`ati poymol etildi.

**3-asosiy savol:** Xalifalikka qarshi xalq qo`zg`olonlari. Abu Muslim, Muqanna qo`zg`olonlari.

**3-asosiy savol bayoni:**

Arablar erli xalqni barcha xaq-xuquqlardan maxrum etdi. Natijada maxalliy xalq arablarga qarshi qo`zg`olon ko`tarishga majbur Buldi 720 yilda Sugdda boshlangan qo`zg`olonga Samarqand ixshidi Gurak va Panjikent xokimi Divashtich raxbarlik qildi. Ko`zg`olonni bostirish uchun Xuroson noibi Said ibn Abdulaziz 3 marta юrish qiladi. Shaxarni suv bilan ta`minlab turgan to`g`onni egallab, axolini suvsiz qoldiradi. 721 yilda Said Xoroshiy Xuroson noibi bo`ladi va uning olib borgan muzokaralari natijasida Gurak arablar tomoniga o`tadi va qo`zg`olonchilar engiladi. Divashtich boshliq qo`zg`olonchilar xam Zarafshonda Obg`ar qal`asida qamalga olinadi va Orbinxonga olib borilib qatl etiladi. Divashtichning boshi Iroq xokimiga юboriladi, tanasi naus devoriga qoqib qo`yiladi.

Said Xoroshiyning bosqinchilik siyosati kuchayadi. Arablarga Karshi 725 yilda Xuttalonda, 728 yilda Sug`dda qo`zg`olonlar avj olib ketadi. 736-737 yillarda Toxariston va Sug`dda qo`zg`olon ko`tariladi. Arablar 737 yilda tang axvolda qoladi. Bu paytda xalifalikni Ummaviylar sulolasi boshqarar edi. Ummaviylar o`ta zuravonlik va bosqinchilik siyosati bilan ayblandilar va xalqning ularga qarshi noroziligi kuchaydi. Xalqning norozi bo`lgan guruxiga Muxammadning amakisi Abbosning evarasi Muxammad ibn Ali raxnamolik qildi. Natijada abbosiylar tomonidan Ummaviylarga qarshi xarakat boshlanib ketdi. Ummaviylarga qarshi xarakat xalifa Marvon (744-750) davrida kuchaydi.

746 yilda Abbosiylarga raxbarlik qilish uchun Abu Muslim Xurosonga keladi. U sarroj bo`ladi. Kora rang Abbosiylar xarakatining rangi bo`lib, ular qora bayroq ostida kuchlarni birlashtirishga xarakat qiladilar. Xamda xalqni payg`ambar avlodini quvvatlashga chaqiradilar. Taxtga Abulabbos Saffax (749-754) chiqishi bilan arab xalifaligi Abbosiylar qo`liga o`tadi. Abbosiylarga Abu Muslim katta xizmat qilsada, undan shubxalanadilar va uni yo`qotish payiga tushadilar. Abu Muslim 755 yilda o`ldiriladi. VIII asrning 70-80 yillarida Movarounnaxrda katta xalq qo`zg`oloni ko`tariladi. Bular oq kiyim kiyganlari sababli qo`zg`olon "oq kiyimlilar qo`zg`oloni" nomini oldi. Bu xarakatning raxbari Muqanna (Xoshim ibn Xakim) bo`lib, u xunarmand edi, Marvda tug`ilgan. U xunuk bo`lganidan Muqanna, yani "niqobdor" nomini oladi. Muqanna kudungarlik (matolarga oxor beruvchi) Bilan shug`ullanadi. Xurosonda sarxanglikdan (kichik lashkarboshi) vazirlikkacha ko`tariladi. U Mazdak g`oyalarini targ`ib etib, payg`ambarlikni da`vo qilgani uchun Bag`dodda zindonga tashlanadi.

Mukanna Kesh yaqinidagi Som qal`asini qarorgox qiladi. Uning xarakati Kashqadaryo vodiysida, Sug`dda, Eloq (Oxangaron), SHoshda kuchayadi. Ko`zg`olonga zarba berish uchun xalifa Abu Ja`far 775 yilda Jabroil boshliq qo`shinni Movarounnaxrga юboradi. Jabroil Naxshab, CHagoniyonni olib, 776 yilda Buxoroga keladi. Narshax qal`asida kuchli qo`zg`olon bo`ladi av qal`a olinadi. Ko`zg`olon boshliqlaridan Xakim ibn Axmad va Xishriylar o`ldiriladi.

Ko`zg`olon quyidagi sabablarga ko`ra engiladi: - qo`zg`olonchilarning uюshmaganligi;

- xalifa qo`zg`olonlardan o`z manfaati yo`lida foydalanganligi;

- mulkdor dexqonlarning sotqinlik yo`liga o`tib ketishi. Muqanna qo`zg`olonidan 20 yil o`tgach, 806 yilda Rofe ibn Lays raxbarligida arablarga qarshi qo`zg`olon bo`ladi. Ko`zg`olon Samarqandda boshlanib, SHosh, Fargona, Buxoro, Naxshab, Xorazmga yoyildi. Ko`zg`olonni bostirish uchun Somoniy avlodlari yordamga chaqiriladi. Bu esa Somoniylarning kelajak taqdiriga yo`l ochadi.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Islom dinining kelib chiqishi va Arab xalifaligining tashkil topishi haqida gapiring.
2. Arablarning O`rta Osiyoni bosib olishi va uning oqibatlari qanday bo`ldi?
3. Xalifalikka qarshi xalq qo`zg`olonlari haqida nimalar bilasiz?

**ADABIYOTLAR :**


1. A.S.Sagdullaev, B.J.Eshov. O`zbekiston tarixi. T, 1997.
2. SH.Karimov, R.SHamsutdinov. Vatan tarixi. 1-kitob. T, 1997.
3. O`zbekiston Enцiklopediyasi. T, 1997.


## 18-mavzu: TOXIRIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI.
### Fanni o`qitish texnologiyasi:
### « TOXIRIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI » mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| | **Tayyorlov bosqichi**<br>**<u>1.1 Dars maqsadi</u>**: Talabalarda xalifalikning paralanishi, O`rta Osiyoda | |

| | | |
|---|---|---|
| 1 | Tohiriylar davlati tashkil topishi haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Sessiy voqealar sharxini ochib beradi.<br>• Siyosiy ma`muriy tizim xaqida ma`lumot beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Ma`mun, Toxir, Talxa, Abdullox,<br>Toxiriylar davlati, Nishopur, qashovarz, kishtuqorkunanda, chorakor, barzigar.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Toxiriylar davlatining tashkil topishi qanday bo`ldi?<br>• Boshqaruv usuli haqida nimalar bilasiz?<br>• Mulkchilik munosabatlarini tavsiflang. | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Toxiriylar davlatining tashkil topishi
2. Boshqaruv usuli
3. Mulkchilik munosabatlari

**Tayanch iboralar:** Ma`mun, Toxir, Talxa, Abdullox, Toxiriylar davlati, Nishopur, qashovarz, kishtuqorkunanda, chorakor, barzigar.

**1-asosiy savol:** Toxiriylar davlatining tashkil topishi.
**1-asosiy savol bayoni:**

Siyosiy vokealar sharxi. IX-XIII- asr boshlari rivojlangan o`rta asrlarga borib, o`zbek xalqi davlatchiligi tarixida turli sulolalarning boshqaruv usullari va ma`muriy tizimiga xos qonuniyatlar xamda xususiyatlar rivoj topgan. Arab xalifaligi xududida maxalliy xalqning xukmron mamurlar zulmiga qarshi qo`zg`olonlari avj olgach, xalifalik o`zlariga sodiq maxalliy zodagonlarni tobe` erlarni boshqarishga jalb qila boshladilar. SHu munosabat bilan Xurosondagi toxiriylar xonadoni kuchayadi. Sijison (Seiston) xokimi Abdumuxammad Talxa ibn Abdullox qo`lida Xusayn va Toxir degan farzandlari Xirot viloyatidagi Bushanj shaxrini boshqarishgan.

Ma`lumki, Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan keyin uning o`rniga katta og`li Amin xalifa xokim. Xuroson noibi bo`lib turgan uning kichik o`g`li Abdulla (keyin Ma`min laqabini olgan) xokimiyat uchun kurashda Toxir yordamidan foydalanadi. Toxir qo`mondonligida qo`shinlar Amin lashkarini tor-mor keltiradi. 813 yili Ma`mun Bag`dodni egallagach, Toxirni sipaxsolor etib tayinlaydi. 821 yilda esa Toxir Xuroson viloyatiga noib boladi. 822 yili Toxir o`ldirilgach, uning og`li Talxa (822-828) xokim boldi. Undan keyin Toxirning ikkinchi o`g`li Abdullox (824-844) taxtga o`tirdi. 833 yili Ma`mun vafot etgach, Abdulla o`zini xalifalikdan mustaqil deb e`lon qildi. Davlat poytaxti Marv (keyin Nishopur) bo`ldi. Toxiriylar davlatiga Tabariцon, Jurjon, Ray, Kirmon, Xuroson, Seyiцon, Movarounnaxrning janubiy qismi kirgan.

Muxammad ibn Toxir (862-873) davrida o`g`iz turklari xujumiga qarshi Farova (xozirgi qizilravat yaqinida) va Dexison (Mashxadi misriyon) qo`rg`onlari qurilib toxiriylar davlati xududlari mustaxkamlandi.
Xalifa Ma`munga xizmatlari evaziga mulkka ega bo`lgan Somonxudotning nabiralari Nux (Samarqand), Axmad (Farg`ona), YAxyo (CHach va Isaravshan), Ilyos (Xirot)lar nomiga bo`lsa xam, toxiriylarga qaram edilar.
IX asr o`rtalarida axolining quyi tabaqasidan bo`lgan safforiylar mavqei kuchayadi. YAkub ibn Lays va uning Amr Toxir va Ali degan inilari 861 yilda Kirmon va Forsni qo`lga kiritadilar. 871 yilda xalifa tomonidan (870-892) YAkubni Balx va Toxariston xokimi etib tayinlash xaqida yorliq junatadi. 873 yilda YAkub toxiriylar xukmdori Muxammad ibn Toxirning qo`shinlarini tor-mor keltirib, toxiriylar davlatiga barxam berdi. Toxiriylar sulolasi:
Toxir ibn Xusayn (821-822);
Talxa ibn Toxir (S22-828);
Abdullox ibn Toxir (830-844);
Toxir ibn Abdullox (844-862);
Muxammad ibn Toxir (862-873).

**2-asosiy savol:** Boshqaruv usuli.
**2-asosiy savolning bayoni:**
Siyosiy ma`muriy tizim. Toxiriylar abbosiylarga rasman tobe bo`lganlar. Amalda esa Xuroson va Movarounnaxrni o`z tasarrufiga olgan mazkur davlat mustaqil edi. Toxir ibn Xusaynning Ma`mun oldida mavqei ustunligi boisidan toxiriylarning aloxida davlat sifatida mavjud bo`lishiga keng imkoniyatlar ochilgan edi.
Toxir ibn Xusayn Xurosonga noib bo`lgunga qadar al-Jazira noibi, Bag`dod sipaxsolori va Iroqdagi soliq majburiyatlarini yig`ish boshqaruvchisi sifatida davlat boshqaruvining tajribalarini egallagan edi. Albatta юqoridagi lavozimlar va mansablar al-Ma`mun tomonidan topshirilganligiga shak-shubxa yo`q.
Xuroson noibi bo`lgan Toxir ibn Xusayn Nishopurni o`z qarorgoxiga aylantirdi. Uning asosiy maqsadi davlatni mustaqil qilish edi. Xalifalikda siyosiy tizimning qonun-qoidalariga ko`ra Xuroson noibi jome` masjidida juma kunlari o`qiladigan xutbada Bag`dod xalifasi nomini tilga olishi shart bo`lgan. Kudratli noib esa o`z lavozimiga o`tishiga xali bir yil to`lmasdan xalifa nomini xutbadan olib tashlaydi. SHundan so`ng, Toxir ibn Xusayn o`limining tez fursatda ro`y berishi xalifa ayg`oqchilari tomonidan amalga oshirilgan, deya shubxa qilinadi. Bu voqea Bag`dod xalifasining o`z noiblari ichidan siyosiy xukmronligini musaxkam tutishga intilishdan dalolat berardi.
O`sha paytda Xuroson noibligiga quyidagi viloyatlar kirgan edi: Movarounnaxr, Xorazm, Seyisiton, Koniцon, Kermon, Kumis, Tabariцon va Jurjon. Xar bir viloyat o`z navbatida bir necha ma`muriy birliklarga bo`lingan. Ular xajmiga ko`ra kichik va katta tumanlardan iborat edi.
Movarounnaxrda Buxoro, Xorazm singari viloyatlar va mayda ma`muriy birliklar bo`lgan. Movarounnaxrda jami 300 000 qishloq qayd qilinib, ular 30 dan oshiq ma`muriy birliklarni tashkil etgan.
Xar bir ma`muriy birlikda qozi, pochta xizmati boshlig`i, xiroj yiguvchisi va mu`vun boshlig`i bo`lgan. Ular o`z navbatida yirik ma`muriy birliklarning amaldorlariga bo`ysunganlar. Ba`zan amal soxiblarining soniga qarab ma`muriy birliklar katta yo kichik maydonga egaligini bilsa boladi.
Abdullox ibn Toxir o`z xokimiyatini mustaxkamlash maqsadida o`z xarbiy qo`shinlari uchun maxsus ravishda (kazarma) inshoot bunyod ettirgan. Nishopurda joylashgan bu kazarma shadiyan nomini olgan. Aynan mana shu maxsus xarbiy qismlardan u zarur paytda tez foydalana olar edi.

**3-asosiy savol:** Mulkchilik munosabatlari.

**3-asosiy savol bayoni:**

Ijtimoiy-iqtisodiy xayot. Toxiriylar davrida Movarounnaxr va Xurosonda turli ijtimoiy toifa va qatlamlar mavjud edi. Ular jamiyatda o`z mavqei va o`rinlariga ega bo`lgan xolda, mulk, martaba va mansablariga ko`ra bir-birlaridan farq qilganlar. Ijtimoiy tuzumda xalifaga yaqin noiblar, paygambar avlodlari-arab zodagonlari bilan yakin munosabatda bo`lgan maxalliy mulk soxiblari xossani tashkil qilganlar. Raiyat orasida qashovarz, kishtuqorkunanda, chorakor, barzigar singari ijtimoiy qatlamlar uchraydi. Yirik va mayda er egalari dexqon atamasi bilan atalgan. Xalifalik davrida iktaxdorlar xizmati evaziga er-mulk soxibi bo`lgan xarbiy shaxslar va amalorlar xam tilga olinadi. Kishloq jamoasining a`zolari-mayda er egalari xiroj va jizya to`lovchilarning asosiy qismini tashkil qilganlar. Ijaraga ishlovchilar akkorlar xisoblangan. Ijaraga beriladigan erlar-muzora`a deyilgan.

Abul-Abbos Abdullox davrida zodagonlardan bo`lgan va o`z vatanini tashlab Makkaga ziyoratga borayotgan kambag`al kishilarga aloxida g`amxo`rlik kilishgan. Bunday shaxslar gurbo" yoki ibn sabil nomida юritilgan. Maxalliy xalqdan bo`lgan qadimiy axoli qatlami da`iflar xam asli zodagonlardan sanalib, bu paytda kambag`allashib qolgan edi. Bundan tashqari ular «axl-i buюtot» nomida xam aytilgan.

Xalifaning buyruq va farmonlarini bajaruvchilar, unga tobe xukmdorlar soxib xaros degan nomda aytilgan.

Abdullox otasi maslaxati bilan raiyatga nisbatan ancha mo`tadil siyosat юritgan, chunki bu ularning bosh ko`tarishi va isyoniga tusiq bo`lardi.

Xuquq toxiriylarning islomlashtirish siyosatida mustaxkam turganliklari manbalarda qayd qilingan. Ular islom peshvolariga tayangan xolda davlatda xuquqiy munosabatlarni rivojlantirganlar.

(Uz mamlakatida tartib saqlanishini istagan Abdullox xar qanday isyon yoxud qo`zgolonning oldini olishning eng muxim usuli soliq yiguvchilarning suistemollariga yo`l quymaslikdadir, deb tushuntirdi. Xiroj va boshqa soliqlarning mikdorini qamaytirmagan bo`lsa-da, soliq yig`ishda turli jinoiy ishga qo`l urganlarni jazoladi. Amal va mansab egalarining suiste`molliklarini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon etkazmaslik maqsadida u o`z qarorgoxidagi sodiq kishilar orasidan maxfiy ayg`oqchilarni tanlab, ularni xizmatidan foydalandi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda xukmdorlarning юrish-turishi, xar bir mansabdorning Abdullox oldidagi majburiyatini qay darajada bajarishi xususida noibga etkazib turishgan. Xox u shaxs viloyat xokimi bo`lsin yoki yirik dexqon bo`lsin, Abdulloxning nazorati ostida edi.

Manbalarda er-mulk munosabatlarida suv va sug`orish inshootlaridan foydalanish xususidagi qonunlar ishlab chiqilganligi va mazkur xuquqiy qoidalarning shariatga asoslanishi xaqida yozilgan. Kozi mayda mulk egasi erida uy qurgan yirik zamindor oilasidagi nizo-janjalni yoki suv inshootlaridan foydalanishdagi munozarali masalalarni shariat qoidalari asosida xal qilgan.

Abdulloxning buyrug`iga asosan qonunshunoslar suvdan foydalanish, sun`iy sugorishdagi turli munozaralarni echish, sugorish tizimi xususida «Kitob al kuniy» nomli qonunlar to`plamini tuzdilar.

**NAZORAT TOPSHIRIQLARI:**

1. Toxiriylar davlatining tashkil topishi qanday bo`ldi?
2. Boshqaruv usuli haqida nimalar bilasiz?
3. Mulkchilik munosabatlarini tavsiflang.

**ADABIYOTLAR :**


1. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 jild. T., “Fan” 1968 yil.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993 yil.
3. B.G. G`afurov. Taljiqi T. 1 Dushanbe 1989 god.
4. M.Narshahiy . buxoro tarixi. “Meros” turkumi. T., “Kamalak” 1991 yil.
5. M.Pidaev Sirli Ko`shon saltanati. T., “Fan” 1990 yil.

6. K.SHoniyozov. qang` davlati va qangchiliklar. T., “Fan” 1990 yil.
7. T.Kilichev. ko`hna qal`alar diyori. T., “Fan” 1993 yil.
8. YA.G`.G`ulomov. xorazmning sug`orilishi tarixi. T., 1959.

## 19-mavzu: Somoniylar davrida Movaraunnaxrda ijtimoiy, iqtisodiy hayot.
## Fanni o`qitish texnologiyasi:
## « Somoniylar davrida Movaraunnaxrda ijtimoiy, iqtisodiy hayot» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda Sooniylar davlatining tashkil topishi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Somoniylar davrida Movaraunnaxrdagi ijtimoiy vaziyatni ochib beradi.<br>• Davlat tizimi va iqtisodiy xayot xaqida ma`lumot beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Rafe ibn Lays, Nux, Axmad, YAxyo, Ilyos, Somon Xudot, somoniylar sulolasi, Nasr ibn Axmad, Ismoil ibn Axmad, Safforiy, Amir, xojib.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Somoniylar davlati qanday tashkil topdi?<br>• Somoniylar davrida Buxoroning markazga aylanish sabablarini tushuntiring.<br>• Somoniylar davrida xo`jalik, siyosiy tizim, mulkilik munosabatlarini tavsiflang.<br>• Somoniylar davlati qanday barha topdi? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Somoniylar davlatining tashkil topishi.
2. Somoniylar davrida Buxoro.

**Tayanch iboralar:** Rafe ibn Lays, Nux, Axmad, YAxyo, Ilyos, Somon Xudot, somoniylar sulolasi, Nasr ibn Axmad, Ismoil ibn Axmad, Safforiy, Amir, xojib.

**1-asosiy savol:** Somoniylar davlatining tashkil topishi.
**1-asosiy savol bayoni:**

IX asrda O`rta Osiyo xududida xali xam arablar xukmronligi davom etardi. Ammo erk va xo`rlik singari olijanob tarixiy an`analarga sodiq bo`lgan avlod-ajdodlarimiz arab bosqinchilariga qarshi kurashni bir daqiqa bo`lsa-da tuxtatmadilar va mustaqil markazlashgan davlat barpo qilishga

intildilar. Bu xarakat arab istilochilarini xar doim taxlika va qo`rquv ostida saqlab turdi. Ular joylardagi xatto o`zlaridan chiqqan xukmdorlarga xam shubxa bilan qarar va ishonmas edilar.

Xolid ibn Barmoq - Barmoqiylar misolida buni ko`rib ishonch xosil qilamiz. Barmoqiylar Xuroson va Movarunnaxrni idora qilish bilangina cheklanib qolmadilar. Ularning ta`siri markaziy arab xalifaligida xam kuchli bo`lgan. Abbosiylar xukmronlik qilgan davrda qariyb ellik yil mobaynida davlatni idora qilishning ma`sul lavozimlari Balxdan chiqqan barmoqiylarning qo`lida bo`lgan. Abbosiylar bunday ma`suliyatli lavozimlarni barmoqiylar qo`liga berishga majbur bo`lsalarda, biroq ularning faollashib borayotganligidan qo`rqar edilar. 786-809 yillarda xalifalik qilgan Xorun Ar-Rashidning barmoqiylar xonadoniga qaqshatqich zarba bergan.

Xokimiyat tepasiga barmoqiylar o`rniga Toxiriylar keladi. Toxiriylar Xurosonning yirik oqsuyak er egalaridan bo`lib, bu sulolaning asoschisi Toxir Xusayn edi. Bu sulola asli Xirot viloyatining Bushgang shaxridan edi, Toxir 809-813 yillarda Xorun-ar-Rashidning o`g`iallari Ma`mun bilan Amin o`rtasidagi bo`lgan kurashda Ma`mun tomonida bo`ldi, unga Bag`dodni va xalifalik taxtini egallashda yordam berdi.

Ma`mun 813 yilda xalifalik taxtiga o`tirgach, Toxir ibn Xusayn katta xurmat va e`tiborga loyiq nufuzli kishi bo`lib qoldi. 821 yilda u Xurosnning noibi etib tayinlanadi. Movarounnaxr xam Xuroson noibligi tarkibiga kirardi. Uning qarorgoxi Nishopurda edi. Toxir o`z ko`l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan-ochiq xarakat qildi. U noiblikka tayinlangan kundan bir yil o`tar-o`tmas, jome` masjidida juma namozida o`qiladigan xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi. Bu o`sha davr uchun xalifaga qarshi ko`tarilgan isyon bilan teng edi. Bu voqeadan ko`p vaqt o`tmay Toxir ibn Xusayn to`satdan vafot etdi. SHundan keyin Toxirning xar bir qadamini kuzatib юrgan xalifa uni zaxarlab o`ldirgan degan gap tarqaldi. Xalifa bunday mayda-chuyda gaplarga asos qoldirmaslik maqsadida Xuroson noibligi taxtiga Toxir ibn Xusaynning o`g`illari Talxa va Abulabbos Abdulloxni navbat bilan ko`ydi. Abulabbos Abdullox, noibligi davrida ( 830-844) xalifaga rasman qaram-vassal bo`lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib, poytaxtni Marvdan Nishopurga ko`chirdi. Buning eng asosiy sababchisi xalifalik xukmronligini xavf ostida qoldirgan va tez-tez ko`tarilib turgan xalq qo`zg`alonlari edi. Ana shunday qo`zgolonlardan biri 806 yilda bo`lgandi. Xalifalikni zirqiratgan bu qo`zg`alon Nasaf, Buxoro, Ustrushona, SHosh, Xorazm va boshqa xududlarni qamrab oldi. Ko`zg`olonga isyonkor arab lashkarboshisi Rafe ibn Lays boshchilik qildi. Ko`zg`alon Mukanna an`analarini davom ettirdi. Bu xarakat ayniqsa SHosh viloyati xududlarida kuchli tus oldi.

VIII aerning 80-yillarida Mukanna muxlislari ko`proq yashiringan edilar. Ko`zg`olonni xar galgidek turklar yana qo`llab-quvvatladilar. Ko`zg`olonchilar Samarqandni egalladilar. Xalifa Ma`mun bu xarakatning xalifalik uchun o`ta xavfli ekanligidan tashvishda edi va uni bostirish uchun turli vositalarni ishga soldi. Nixoyat ko`zg`olon 810 yilda bostirildi. Uni bostirishda Somon ibn Asad qatnashdi. Bu ishda Somonning o`g`illari Nux, Axmad, YAxyo va Ilyoslar katta xissa qo`shdilar. Ular aslida Balx viloyatining Somon qishlog`i oqsoqoli Somon Xudotning avlodlari bo`lganlar. Somon ibn Asad va farzandlari xizmatlari evaziga xalifa Ma`mun Nux ibn Asadni Samarqandga, Axmad ibn Asadni Farg`onaga, YAxyoni SHosh va Ustrushona, Ilyosni Xirotga noib etib tayinlaydi. SHu tariqa Movarounnaxrda somoniylar sulolasi qaror topdi.

Albatta, bu erda Toxirning Somon ibn Asad o`g`illarini yaxshi bilganligi va ularga xayrixoxlik xam katta rolь o`ynagan. Somon xali Mavrda noib bo`lib turgan paytda Toxir ibn Xusayn va xalifa Ma`munning diqqtini o`ziga tortgan edi. Somon Ma`munning ta`sirida otashparastlik dinidan chiqib islom dinini qabul qilgan.

Aniq bo`lmagan ma`lumotlarga Karaganda aka-uka Somoniylarning, xususan Axmad ibn Asadning axvoli og`irlashib qoladi. Farg`ona va Ustrushonda xalifalikka karshi ko`zg`olon ko`tarilib, Axmad o`z noibligini tashlab ketadi. Ko`zg`alonni Toxirning o`g`li Talxa bostirgach, Axmad Farg`onaga qaytadi va bu erda uzoq vaqt xokimlik qiladi. Nux Samarqandda 819-820 yildan 841-842 yilgacha, Axmad Farg`onada 819-820 yildan 864-865 yilgacha, YAxyo SHosh va Ustrushonda 819-820 yildan 855-856 yilgacha noyblik qiladilar.

Noiblik aloxida xizmatlari uchun in`om - mukofot tariqasida berilgan. Mansab bilan bir qatorda foydalanish uchun er mulklar xam xadya qilingan. Somoniylar ikkinchi darajali noiblar bo`lganliklaridan ularga mis tangalar (filuslar), toxiriylarga esa ayni zamonda kumush tangalar (dirxam) zarb qilishga xam ruxsat berilgan. Somoniylar in`om qilingan erlarning naqadar boy bo`lganligini IX aerdagi mashxur arab geografi Ibn Xurdodbekning viloyatlarning soliq miqdori to`g`risidagi ma`lumotlaridan bilsak xam bo`ladi. Uning yozishicha butun Sug`d xududi xalifalik

xazinasiga toxiriylar orqali 326 ming muxammadiy dirxamdan to`lab turgan. Farg`ona Axmad ibn Asad orqali 280 ming, YAxyo ibn Asad orqali SHosh - 607 ming, Ustrushon - 50 ming dirxamdan to`lagan. Bunday katta soliqlarni faqat juda boy o`lkalargina to`lashi mumkin edi. Iqtisodiy юksalish xarbiy qudratni xam belgilagan. Movaraunnaxrda 600 ming suvoriy va piyoda qo`shin bo`lgan. Xozirgi O`zbekistonning shimoliy chegaralariga yaqin viloyatlarda asosan ko`chmanchi turk qabilalri yashaganlar. Sirdaryoning o`rta va quyi okimlarida ularning shaxarlari ko`p bo`lgan. Kuchmanchi turkiy qabilalar Movarounnaxr voxalarida sug`diylar, farg`onaliklar, xorazmliklar va boshqalar bilan birga umumiy xayot keochiradilar.

IX asrning birinchi yarimlaridan e`tiboran turkiy- ug`uzlar Movarounnaxrning o`troq va madaniy xayot kechirayotgan voxasi xalqlariga xujumlar uюshtirib, ularni tez-tez bezovta qila boshlaganlar. SHu boisdan xam Abdulla ibn Toxir IX asrning 30-yillarida turk-o`g`uzlardan ximoyalanish uchun Farobod (Kizil arvotga yaqin) va Doxiston (Mashxadi Misriyon)da mustaxkam ravotlar qurdirgan, xatto o`z o`g`li Toxirni qo`shinga bosh qilib turk-o`g`izlarga qarshi jang qilish uchun urushga юborgan. Bunday istexkom devorlari Buxoroda (Kampir devor nomi bilan xozirgacha mashxur), Samarqandda (Kiyomat devor deb ataladi) va boshqa joylarda xam qurilgan.

Ko`chmanchi turk qabilalari XIX asrning birinchi yarmida YAxyo ibn Asad xokimlik qiluvchi SHosh (CHosh)ga tez-tez xujumlar uюshtirganlar. YAxyoning iltimosiga binoan va uning ishtirokida akasi Nux, ibn Asad 840 yilda Isfijobning turk xokimiga qarshi юrishda mustaxkam mudofaa devori qurdirgan. Nux ibn Asad 841 yilda vafot etadi. Manbalarning guvoxlik berishicha, Samarqand viloyatini bir vaqtlar aka-uka Axmad va YAxyo birgalikda idora qilganlar. 855 yilda Axmadning o`g`li Nasr ibn Axmad Samarqand noibligiga tayinlanadi. Bu xol Movarounnaxrda Axmad ibn Asad nufuzining oshuviga olib keladi. 856 yilda YAxyo xam vafot etgan. Axmad endi SHosh va Ustrushona noibligini xam o`z qo`liga oladi va bu viloyatlarni ug`li YOkub ibn Axmadga beradi.

Ana shu tarika IX asrning o`rtalariga kelganda Buxoro, Kashqadaryo viloyatlari va CHag`oniyon (xrzirgi Surxondaryo) vodiylaridan boshqa Movarounnaxrning barcha Xududi Axmad va uning o`g`illari ta`siri doirasiga kirdi.. Bu ishga Toxir ibn Abdulla (844-862) qarshilik qilmadi. CHunki endi somoniylar ustidan ilgarigidek ota-bobosi singari xukmronlik qila olmasligini yaxshi bilardi. Sababi, toxiriylar sulolasi borgan sayin inqiroz sari юz tutmoqda edi.

IX asrning 60-yillaridan e`tiboran toxiriy xukmdorlarga qarshi xalq xarakatlari kuchaydi. Bu xarakatga Boziylar boshchilik qildilar. (Boziylar asosan ko`chmanchi qabilalar xujumini bartaraf qilish maqsadida qambag`al xunarmandlar va ersiz ziroatchilardan tashkil topgan kurolli qo`shin). Boziylar xarakatini axolidan ko`proq o`lponlar to`plashga shoshildi. To`plangan o`lponlar past kiymatli dirxamlardan iborat bo`lganligi uchun ularni kumush tangalarga almashtirishni buюrdi. Bu esa axolining g`azabini qo`zg`atdi, xalq, qo`zg`olon ko`tarib, Xusayn saroyini egallab oldi va uni taladi. Shaxar jamoasining юqori tabaqalari Samarqandga - Nasr ibn Axmadga o`z vakillarini юbordilar va somoniylar xonadonidan biror kishini xokim qilib jo`natishini iltimos qildilar. Bu taklif albatta Nasrni xursand qildi va u o`z ukasi Ismoil ibn Axmadni Buxoroga xokim qilib jo`natdi. Ismoil Somoniy 849 yilda Farg`onada tavallud topgan. 14 yoshida otasi vafot etib akasi Nasr qo`lida qolgan. Ismoil Somoniy o`z xokimligining (874-907) dastlabki davrlarida katta qiyinchiliklarga duch keladi. CHunki xalq ommasi somoniy noiblardan shu paytgacha biror-bir yaxshilik ko`rgan emasdi. Ismoildan xam albatta yaxshilik kutish uchun xech qanday asos yo`q edi. 875 yilda Ismoil o`zining ikkinchi marta Buxoroga kelishida yo`lda xalqning notinch ekanligini o`z ko`zi bilan ko`rdi. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha, Barket bilan Romiton o`rtasida 4 ming dexqon qo`zg`olon ko`tarib chiqadi. Xokim sifatida Ismoilning dastlabki ko`rgan tadbiri dexqon oksuyaklari va lashkarboshilariga suyanib xalq qo`zg`olonini bostirishdan iborat bo`ldi.

O`zini butun boshli Movarunnaxr xokimi deb xisoblagan Nasr ibn Axmad kumush tangalar zarb qila boshladi. 886-887 yili Nasr tomonidan Samarqandda zarb qildirilgan somoniylarning eng birinchi kumush dirxamlarining namunasi O`zbekistan tarixi muzeyida saqdanmoqda.

Nasr ibn Axmad o`z ukasi Ismoilni o`ziga tobe noib deb xisoblar va istagan paytda uni almashtirish mumkin deb o`ylardi. Ammo Ismoil akasiga bo`ysinishni ochiqdan-ochiq xoxlamagan va Buxoroning mustaqil bo`lishiga xarakat qilgan. Bu xarakat Ismoilning turli baxonalar bilan Samarqandga soliq va o`lponlar to`lashdan bosh tortganligida yaqqol ko`zga tashlanadi. Ikki aka-uka o`rtasida 888 yilda kuchayib ketgan dushmanlik urush boshlanishiga sabab bo`ldi. Bu urushda Nasr batamom mag`lubiyatga uchrab va Ismoil butun Movarounnaxrni boshqarishni o`z ko`liga oldi. Nasr somoniylar xonadonining boshlig`i sifatida xurmatga loyiq bo`lsada, unda xech qanday xokimiyat yo`q edi. U to`rt yil Samarqandda yashab 893 yilda vafot etdi. Mans ; tili bilan aytganda,

ismoil Somoniy "aqlli, adolatli, shafkatli, fikr va bir egasi" edi. U 892 yilda butun Movarounnaxr xukmini o`z qo`liga olishga erishib «xaqiqatdan xam podsholikka loyiq va xaqli ekanligini» isbotladi.

Ismoil Somoniy 893 yil ko`chmanchi turk qabilalari ustiga юrish qildi. Taroz (xozirgi Jambul)ni egalladi va turklarni 10 ming askarini asir oldi. Bu jang davomida shu darajada qattiqlik ulashib berildi. Ismoil Taroz shaxridagi xristian qasrini musulmon qasriga aylantirdi. Bu юrish Ismoilning dasht ko`chmanchilariga qarshi uюshtirgan oxirgi va so`nggi юrishi bo`ldi. CHunki Ismoil ta`sir doirasining kengayib borayotganligi Xuroson xukm-farmoni Amr ibn Laysga xam, arab xalifasi Mu`tazidga xam xush kelmaganligi albatta tushunarlidir. SHu bois xalifa bir o`q bilan ikki kuyonni o`ldirish maqsadida 900 yilda Ismoil bilan Xuroson xokimi safforiy Amr ibn Laysni Xuroson bilan Movarounnaxo ustidan xujm xukmronligini ta`minlovchi farmon chikardi. U Amr bilan Ismoilni to`knashtirib o`rtada o`zi юtib chikishni muljallagan edi. Lekin vokealarning rivojlanib borishi xalifa umidlarini chippakka chikardi. Bu urushda Ismoil katta g`alaba qozondi va uning davlati, kuch va qudrati yanada юksaldi. Safforiylar qoldirgan meroslarni o`ziniki qilib olgan Ismoil butun Xurosonni xam somoniylar davlatiga qo`shib oldi.

Ismoil Somoniy shu darajada kuchli va qudratli davlat barpo qildiki, ko`chmanchi qabilalarga qarshi kurashmoq uchun mudofaa istexkomlari bo`lgan devorlarga, umuman xech kanday extiyoj qolmadi. Narshaxiyning ma`lumotlariga Karaganda mamlakat mudofaasini ta`minlashda devorlarga Karaganda Ko`shinlarning ro`liga katta baxo berib, Ismoil Somoniy «Men -Buxoroning devoriman» degan edi. Kuchli markaziy xokimiyat va qudratli qo`shinning barpo etilishi Ismoil Somoniy va uning izdoshlariga Movarounnaxr va Eronning ichki muammolariga asosiy diqqat-e`tiborini qaratish imkoniyatini berdi.

Ismoil Somoniy o`z davrining yirik va aqlli davlat arboblaridan bo`lgan. U yirik va markazlashgan davlat barpo qilishdan manfaatdor bo`lgan barcha oksuyak amaoldorlarni o`z atrofiga to`playdi. Ularning yordami bilan Ismoil shunday bir qudratli markazlashgan davlat barpo qiladiki, bu davlat o`sha vaktda Sharqda shuxrat topadi. Ismoil Somoniy davrida Movoraunnaxr Arab xalifaligi istibdodidan abadul-abad ozod bo`ldi. Ammo bir qarashda qudratli bo`lib ko`ringan bu davlatni ichdan emirayotgan bir qator ijtimoiy ziddiyatlar bor ediki, buni xatto Ismoil Somoniy xam bartaraf eta olmadi. Bu markaziy xokimiyat bilan maxalliy xokimiyat o`rtasidagi qarama-qarshilik edi. Somoniylar xar qancha urinsalar-da, Sejiston, Ruzgon, Bazna, Gurjiston, Isfijob, Xorazm, xozirgi Tojikistonning tog`li viloyatlari: CHagoniyon va Rashtonii o`zlariga batamom bo`ysundira olmadilar. Bu viloyatlarning xokimlari markaziy xokimiyatni rasman tan olsalarda, amalda mustaqil siyosat юritardilar. Somoniylar davrida ko`shinda etakchi mavqeni turk sarkardalari va g`ulomlari egallagan edilar. Ularga xamma vaqt xam ishonib bo`lmasdi.

Ismoildan so`ng uning vorislari davrida somoniylar sulolasi inqiroz sari юzlandi.

Somoniylar davlatining bundan keyingi taraqqiyot bosqichi xam xokimiyat, davlat va mol-dunyo talashib, kurash bilan o`tdi va oxir-oqibatda юz tuban inqiroz sari ketdi.

Somoniylar davrida davlatning markazlashuvi ikki daryo oralig`ining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi ma`lum darajada taraqqiy qilishiga olib keldi. Feodal ishlab chiqarishiga asoslangan usul rivojlanib, xunarmandchilik madaniyati, arab va fors tillaridagi ilm fan xamda adabiyot юksaldi. Dexqonchilik asosan sun`iy va yomg`ir suvlari bilan sug`orishga (lalmikor)asoslangan edi.

Xukmron sinf vakillari katta-katta er mulklarining xam egalari edi. Bularga somoniy xukmdorlari va ularning avlodlari, turk askarboshi va amaldorlari, ruxoniylar kirib, ular юqori tabaqa xisoblanar edilar. Arab xalifaligiga qarshilik ko`rsatgan yirik, boy dexdonlar ularning qarshiligi bostirilishi vaqtida, katta zarar ko`rgan bo`lsalar-da, xali kuchli edilar. Nizomulmulkning yozishicha, ayniqsa turk askarboshilari, jumladan Alp Tegin juda xam boy bo`lib, Movarounnaxr va Xurosondagi 500 qishloq uning xususiy mulki bo`lgan. Xar bir shaxarda unga qarashli karvonsaroylar, xammomlar, uylar kabi qo`zgalmas mulklari bor edi. Turk askarboshilaridan Abu Alp Simjuriy va Foik xam undan qolishmasdi.

Butun ichki va tashki savdoni, do`konlar, karvonsaroylar xamda turar joylarni o`z qo`llariga kiritib olgan savdogarlar tabaqasi xukmron sinflar qatorida edilar.

**2-asosiy savol:** Somoniylar davrida Buxoro.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Somoniylar davrida Buxoro musulmon dini va diniy oqimlarning markaziga aylana bordi. Diniy muassasalar, masjit va madrasalarga er, suv mulklarini vaqf qilib berish kengaydi.

IX asr oxiri va X asrlardagi er mulklari barcha islom mamlakatlaridagi kabi, avvalo kimga tegishliligi, so`ngra soliq to`lash tartibiga ko`ra guruxlashtirilishi mumkin. Jumladan, mulklar kimning egaligida ekanligiga qarab uch turga bo`lingan:

1. «Mulki Mamloki Sultoniy» - ya`ni Sulton (xukmdor) davlat boshliqlariga qarashli erlar. Bu erlar odatda, davlat erlaridan farqlanganligi uchun ulardan keladigan daromadlar davlat muassasalari bo`lgan devonlar tomonidan olib borilganligi uchun xam davlat erlari (mulki) deb xisoblangan.

2. Vakf erlari - ya`ni, diniy tashkilotlarga vaktincha yoki doimiy foydalanishga o`tkazilgan erlar, bizgacha Somoniylar davridan kolgan vakf yorliklarining etib kelganligi bu mulkning xam tarakkiy kila boshlaganligini ko`rsatadi.

Solik to`lash shakliga karab esa asosan:

a) xiroj erlari - ya`ni davlat erlarida yashab, uni ishlab, undan foydalanganligi uchun dexkonlardan davlat soligi - xiroj undiriladigan erlar.

b) solik to`lashdan kisman yoki tamoman ozod etilgan, kelib chiqishi bo`yicha Muxammad paygambar xonadoniga borib taqaluvchi saidlarning erlari kirgan.

Somoniylar davrida noiblar, askarboshilar va amaldorlarga mukofot tariqasida butun-butun viloyatlar in`om qilinib, bu «iqta», uni olgan kishi «iqtidor» deb atalgan. Bunday er mulk egaligi xam rivojlangan, ular ana shu erdan keladigan daromadni qisman ushlab qolishga xaqli bo`lgan.

Feodallarga tegishli er mulklari bu davrda ko`proq ijarachi dexqonlar tomonidan turli shakllarda ijaraga olinardi. Ot ulovi va uruglari bo`lganlari xosilning 1/4, 1/3 qismini olsalar, xech narsasi bo`lmagan ijralarning xissasi xatto, 1/10 , 1/12 ga tushib qolgan.

Ijarachilarga berilgan erlardan xosilning qancha qismi kimga tekkanligiga qarab davlat soligi - xiroj olingan. Bulardan tashqari, somoniylar davlatida xam qullar ko`p bo`lib, ularning mexnatidan keng foydalanilgan.

**Davlat tuzumi bo`yicha** Somoniylar davlati markazlashgan tipik o`rta asr davlati bo`lib, boshqarish shakli monarxiya edi. Davlat boshliqlari o`zlarini «Amir ul muslimun» deb atagan arab xalifalaridan farqli xolda doimo amir, ya`ni xukmdor deb ataganlar. Davlatni boshqarish ikkiga, shaxsan amirning o`zi boshqarib turadigan saroy (dargox) va farmonlarni o`zlariga bo`ysungan tarmoklar bo`yicha maxkamalar orqali ijro etadigan devonga bo`lingan.

Arab xalifaligida devon tizimining shakllanishi Abbosiy xalifalar, Movarouniaxrda somoniylar davriga to`gri keladi. Devonlar tizimi Movarounnaxrga arab xalifaligidan kirib kelgan.

«Amir ... o`z saroyi darvozasi oldida amaldorlar uchun saroy qurishga buюrdi, - deb yozadi Narshaxiy, - uni xam qurdilar, shundayki, xar bir amaldorning podshox saroyi darvozasi oldida qurilgan o`z saroiida aloxida devoni bor edi.».[1]

Bu maxkamalar o`ntadan iborat bo`lgan. Vazirlik yoki bosh xojib devini (xojibul xujob) ular ichida eng kattasi sanalib, barcha devonlar unga bo`ysungan, uning farmoyishlarini bajargan. Uning boshligi vazirlik mansabi nasldan-naslga sulola asosida o`tgan. Undan keyingi o`rinda davlat daromadlari va xarajatlari, kirim-chiqim ishlari bilan shugullanuvchi devon, ya`ni moliya (mustavfiy) devoni turgan.

Davlat yozishmalari xam devon (umidulmulk yoki devoni insho) tomonidan olib borilib, unga ko`prok arab va fors tillarini bilgan, ma`lum darajada bilimli bo`lgan kishilar, «axli kalam» orasidan tanlab olingan.

Юkorida aytganimizdek, somoniylar ko`shinlari turk gulomlaridan tuzilgan. Ularga Vazir, ya`ni Bosh xojib raxbarlik kilgan. Ammo ularning maoshi ta`minoti bilan shugullanuvchi maxsus mansabdor shaxs - Ariz bo`lib, uning maxkamasi - sokchilar yoki devoni ariz deb atalgan. Erlarning chegaralari xalifaliknikidan katta bo`lgan. Bu davlatda aloqa xizmati aloxida o`rin tutgan. SHuning uchun xam uning joylardagi xodimlari maxalliy boshliqlarga bo`ysunmasdan tugridan-tugri markazga xat-xabarlar mutasaddisi devoni (barid)ga bo`ysungan.

Muxtasib devoni xam bo`lib, uning vazifasi avvalo savdogarlarning tosh-tarozisini, xunarmandlar maxsulotining sifatini teshirib turishga qaratilgan. Keyinchalik u shaxar axolisini din va axloq, qoidalariga rioya qilishini tekshirib turuvchi mansabga aylangan.

Bulardan tashqari, davlat xazinasidagi daromad va xarajatlarni nazorat qilish devoni (mushrif), davlat mulklarini boshqarish devoni, shuningdek, qozilar devonlari xam bo`lgan. Bu devonga qozi raxbarlik qilib, u asosan sud ishlarini olib borgan. SHuni aytish lozimki, bu tizim keyinchalik gaznaviylar davrida yana xam rivojlanib, mustaxkamlanadi.

Maxalliy boshqaruvga kelganimizda, viloyatlarda ularning markazlari «kasaba»lar bo`lib, maxalliy boshqaruv xokimlari, ba`zan, «Kadxudo» (yaxshi xo`jayin) qo`lida to`plangan. Shaxarlarda xokimiyat rais, diniy boshqaruv esa SHayxulislom qo`lida edi.

**Xuquqiy munosabatlar.** Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun-qoidalariga asoslangan edi. Sud ishlari kozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayoni Kozikalon, qozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Viloyat qozilari kozikalonga bo`ysungan. Ogir jinoyat sodir etganlar o`limga yoki uzoq muddat kamoq jazosiga maxkum etilgan.

Viloyatlarda ogir jinoyat sodir etganlar qoziqalon va amir xukmiga xavola etilgan. O`lim jazosini ibrat bulishi uchun Buxoro Registonida, ko`pchilik oldida ijro etilgan. O`girlik qilganlar muxtasib va uning mirgazabi tomonidan ushlanib, axoli to`plangan yoki bozor joylarda qo`li chopib tashlangan. Engilroq gunox qilganlarga tan jazosi berilgan yoki jarima solingan.

Somoniylar davlatida islomdagi xuquqiy munosabatlarni maxalliy xalq urf-odatlariga moslashtirishga yordam beruvchi asarlar yaratilgan. Ulardan qozilik maxkamalari yordamchi qo`llanma tarzida foydalanganlar. Jumladan, fakix Abulays ibn Axmad Samarqandiyning «Xazinatul fiqx» (Musulmonchilik qonun qoidalari xazinasi) asaridir.

Viloyatlarda xam maxalliy idora organlariiing bo`limlari bo`lgan. Somoniylar davlatida maxkamalarda ishlash uchun ma`lum daraja bilimga ega bo`lgan arab va fors tillarini bilgan kishilar talab qilingan. Albatta,bu davlat amaldorlari to`gri, adolatli ishlagan degan ran emas, barcha davr xizmatchilarining poraxurlik, ta`magarlik kabi xislatlari ularga xam xos edi. SHuningdek, Narshaxiyning kitobida 828-yilda Buxoro shaxrining roziligiga tayinlangan Sa`yd ibn Xalaf al Balxiy xaqida xam yaxshi fikrlar yozib qoldirgan: «Toki kuchli kishi zaif kishiga zulm o`tkazmasligi uchun to`gonlar qurdirib, Buxoro suvini adolat va insof юzasidan taqsim qilishni u kishi asoslagan».

Bu davrda xuquq manbai musulmon dinining goyaviyligiga asoslangan shariat xuquqi tizimiga tayandi. Ko`plab xadis ilmining bilimdonlari muxaddislar va fikx olimlari etishib chikdi xamda islom dunyosiga tanildi.

### NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Somoniylar davlati qanday tashkil topdi?
2. Somoniylar davrida Buxoroning markazga aylanish sabablarini tushuntiring.
3. Somoniylar davrida xo`jalik, siyosiy tizim, mulkilik munosabatlarini tavsiflang.
4. Somoniylar davlati qanday barha topdi?

### ADABIYOTLAR :


1. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 jild. T., “Fan” 1968 yil.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993 yil.
3. B.G. G`afurov. Taljiki T. 1 Dushanbe 1989 god.
4. M.Narshahiy . buxoro tarixi. “Meros” turkumi. T., “Kamalak” 1991 yil.
5. M.Pidaev Sirli Ko`shan saltanati. T., “Fan” 1990 yil.
6. K.SHoniyozov. kang` davlati va kang`chiliklar. T., “Fan” 1990 yil.
7. T.Kilichev. ko`hna qal`alar diyori. T., “Fan” 1993 yil.
8. YA.G`.G`ulomov. xorazmning sug`orilishi tarixi. T., 1959.
9. A.R.Muhammadjonov. qadimgi Buxoro. T., 1991.
10. Baqtriya-Tohariston qadimda va o`rta asrlarda to`plam, Samarqand. 1993 yil.
11. A.S.Sagdullaev . qadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda T., 1996 yil.
12. Narshaxiy. Buxoro tarixi. T., Meros. 1992 y. 106-bet

## 20-mavzu: Somoniylar sulolasi tarixi.
## Fanni o`qitish texnologiyasi:
## «Somoniylar sulolasi tarixi» mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi

| T/r Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt |
|---|---|---|
| 1 | **Tayyorlov bosqichi**<br>**1.1 Dars maqsadi**: Talabalarda sooniylarning madaniyat taraqqiyoti, tashqi aloqalari, iqtisodiy siyosati haqida tushuncha hosil qilish.<br>**1.2. Identiv maqsadlar:**<br>• Somoniylar sulolasi davrida madaniyat taraqqiyoti xaqida to`liq ma`lumot beradi.<br>• Somoniylar davrida iqtisodiy rivojlanishni ochib beradi.<br>**1.3.Asosiy tushunchalar:** Somonxudot, Ismoil ibn Axmad, Sabuktegin, dargox, devon, Soxibi xoras, mustaufiy devon, Devon Amir-al-mulk, Soxib ash-shurat, Muxtasiba, mushrif, qozi az-ziya, vaqf.<br>**1.4.Dars shakli:** Ma`ruza.<br>**1.5. Metod va usullar**: Og`zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br>**1.6.Kerakli jihoz va vositalar:** O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor. | **O`qituvchi** |
| 2 | **O`quv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:**<br>**2.1.** Mavzu e`lon qilinadi.<br>**2.2.** Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi. | **O`qituvchi 30 min.** |
| 3 | **Guruhda ishlash.**<br>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash<br>• Umumiy xulosalar chiqarish | **O`qituvchi-talaba 30 min.** |
| 4 | **Mustahkamlash va baholash:**<br>Berilgan ma`lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>• Somoniylar davlatining inqirozga urash sabablari to`g`risida ma`lumot bering.<br>• Sulola avlodlari to`g`risida ma`lumot bering.<br>• Davalatni boshkarish ma`muriyati haqida nimalar bilasiz? | **O`qituvchi – talaba 10 min.** |
| 5 | **O`quv mashg`ulotini yakunlash.**<br>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi | **O`qituvchi 10 min.** |

**Asosiy savollar:**
1. Sulola avlodlari to`g`risida ma`lumot.
2. Davalatni boshkarish ma`muriyati.

**Tayanch iboralar:** Somonxudot, Ismoil ibn Axmad, Sabuktegin, dargox, devon, Soxibi xoras, mustaufiy devon, Devon Amir-al-mulk, Soxib ash-shurat, Muxtasiba, mushrif, qozi az-ziya, vaqf.

**1-asosiy savol:** Sulola avlodlari to`g`risida ma`lumot.

**1-asosiy savol bayoni:**

Somoniylar davlatiga Somon qishlog`i (Balx yaqinida, ba`zi manbalarda esa, - Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solgan. Xalifa Ma`munga bo`lgan

sadoqatlari evaziga 819-820 yillarda Somonxudotning nabiralari Nux, Samarqandga, Axmad Farg`onaga, YAxyo Choch va Ustrushonaga, Ilyos Xirotga xokim etib tayinlandilar.

839-840-yillarda Nux ibn Asad Isfijob viloyatini bosib oldi va uni mustaxkamladi. U Sug`dning bir kismi va Farg`onaga xokim bo`lib oldi. Lekin somoniylar davlatini bunyod etishda Axmadning xissasi ko`proq bo`ldi. Uning Nasr, YA`qub, YAxyo, Asad, Ismoil, Isxoq va Xrmid ismli o`g`illari bor edi. Nux, ibn Asad 842 yili vafot etgach, Samarqandni ukalari Axmad va YAxyo boshqardi; keyin xokimlik Nasr (865-892) qo`liga o`tdi. 859-yilda YAxyo ibn Asad vafot etgach, Choch va Ustrushona Axmadning ikkinchi o`g`li YA`qubga nasib etdi. Keyin tashabbus Ismoil ibn Axmad quliga o`tdi. Buxoroda toxiriylar mavqei sust edi. 874 yilda Xusayn ibn Toxir Xorazm shaxarlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari iltimosi bilan Nasr Buxoroga Ismoil ibn Axmad (849-892)ni xokim qilib jo`natadi.

Nasr Movarounnaxrda markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Xalq bu ishda ynga xayrixox, edi. 875 yilda u SHovga (Turkiston yaqinida)ni qo`lga kiritdi. Xalifa Mu`tamiddan Movarounnaxrni boshqarish uchun yorliq olishga muvaffaq bo`ldi. Bu paytda Buxoroda kuchayib ketgan Ismoil akasiga tobe` bo`lishni istamadi. 888 yili ikki o`rtadagi jangda Nasr engildi. 892 yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movarounnaxrning yagona xukmdori bo`lib qoldi (892-907). 893 yilda u Tarozni, so`ng Ustrushonani qo`lga kiritdi.

Mustaxkamlanib borayotgan Somoniylar davlatini zaiflashtirish maqsadida Arab xalifasi 898 yilda Movarouinaxr xokimligidan Ismoilni tushirib uning o`rniga safforiylar sulolasidan Amr ibn Laysni xokim etib tayinlash xaqida yorliq jo`natadi. Ismoil 899 va 900 yillardagi xarbiy to`qnashuvlarda Amr ibn Lays boshliq, safforiylar qo`shinlarini tor-mor keltirdi. Xalifa Ismoil ibn Axmadni xokim sifatida tan olishga majbur bo`ldi.

SHunday qilib, Xorazm, Isfijob, CHagonisn va Xuttalondan tashqari (ularning xokimlari somoniylarga tobe` edilar), ulkan xudud (Movarounnakr va Xuroson) somoniylar tomonidan bo`ysundirilgan edi. Ular bu erda 100 yilcha xukmronlik qildilar. 992 yili koraxoniylar xoni Bugroxon Buxoroni egalladi. Xurosonda Abu Ali Simjuriy va Balxda Foyik amirga qarshi isyon ko`tardi. Nux, yordam so`rab Gazna xokimi Sabukteginga murojaat etadi. Sabuktegin 20.000 nafarli qo`shin bilan kelib, Simjuriy va Foyiq kuchlarini tor-mor keltiradi. Sabuktegin bu xizmati uchun xalifadan "Nasir-ud-din va ad-davla" (dinu davlat xomiysi), uning o`g`li Mansur esa "Sayf- ud-davla (davlat shamshiri)" laqabini oladi..

997 yili Nux II xam, Sabuktegin xam vafot etadi. Nux, 11 ning o`g`li Mansur ibn Nux (997-999)ga qarshi Nishopur xokimlari Bektuzin va Foyiq isyon ko`tardilar. Amirning Mansurga e`tiqodi zo`rligini nazarda tutib,

isyonchilar amirning ko`ziga mil tortadilar. Mansur ibi Nux vafotidan so`ng uning ukasi Abdulmalik ibi Nux, Buxoro taxtiga o`ltirdi. Maxmud intiqom baxonasida Bektuzin va Foyiqga qarshi qo`shin tortib butun Xurosonni bosib oldi. Abdulmalik ibn Nux qo`lida fakat Movarounnaxr qoldi.

Ko`p o`tmay koraxoniylar xoni Nasr Iloqxon Buxoroni zabt etdi. Amir xonadoni asirga olindi. Somoniylar davlati tugatildi.

**2-asosiy savol:** Davalatni boshkarish ma`muriyati.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Somoniylar Movarounnaxr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan xokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniqsa Ismoil Somoniy xukmronligi davrida kunning dolzarb masalasiga aylandi. CHunki Ismoil Somoniy Movarounnaxr va Xurosonni birlashtirishga va yagona markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo`ldi. Endi bu davlatni idora qilish lozim edi. SHuning uchun Ismoil bir qancha isloxotlar o`tkazdi. Mana shunday isloxotlardan biri **davlatni boshqarish ma`muriyatini** joriy qilish bo`ldi. Bu isloxotga binoan davlatni idora qilish **saroyi (dargox) va 10 ta devon** (xarbiy -fuqaro maxkamalari) tashkil etildi. Ismoil Somoniy davlatning majmuini tashkil etishda Sosoniylar eron va Arab xalifaligida qabul kilingan tajribalardan foydalandi va uni zamon talabiga qarab mukammallashtirdi.

Xokimiyatning eng юqori pogonasida somoniylar turib, ular amir unvoni bilan davlatni idora qilganlar. Davlat majmuini mustaxkamlashda, Nasr II Somoniyning ma`rifatli vazirlari Abuabdullo Muxammad Jayxoniy va Abufazl Muxammad Balamiylarning xizmatlar katta bo`lgan. Umuman, Somoniylar xukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmuini **dargox** va **devonlarga** bo`linishi ma`lum darajada rasmiy bo`lgan. CHunki saroyning nufuzli kishilari ko`p xollarda devonlarning ishlariga aralashib turganlar. Saroyda siyosiy xokimiyat **"Soxibi xoras"** qo`li ostida bo`lgan. Soxibi Xoras Amirning farmonlari bajarilishini nazorat qilgan. Saroyda SHarbatdorlar, Dasturxonchilar, Tashtadorlar, Otboqarlar, xo`jalik beklari kabi turli xizmatchilar bo`lgan. Capoydagi xamma xo`jalik ishlarini "vakil" boshqargan. Vakil saroydagi e`tiborli kishilardan biri xisoblangan. Narshaxiyning yozishicha, Nasr II Somoniy xukmronligi davrida o`n devonga Buxoro registonida o`nta maxsus bino qurilgan.

Devonlar orasida vazir yoki "xo`ja buzurg" devoni aloxida o`rin tutgan. Bu devonga boshqa xamma devonlar bo`ysungan. U xamma ma`muriy, siyosiy va xo`jalik maxkamalarini nazorat qilgan.

Davlatni idora etishda **"mustaufiy devon"** xam muxim axamiyatga ega bo`lgan. Bu devon davlatning butun moliya ishlarini boshqargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilgan.

**"Devon Amir-al-mulk"** yoki **"al-rasai"** davlat axamiyatiga molik bo`lgan rasmiy xujjatlarni tuzish bilan shug`ullangan. Bundan tashqari bu devon chet davlatlar bilan bo`ladigan munosabatlarni xam boshqargan.

**"Soxib ash-shurat"** devoni davlatning butun xarbiy ishlarini, shu jumladan amirning shaxsiy qo`shinini boshqargan. "Soxib ash-shurat"ning

maxsus yordamchisi-Aris bo`lgan. U maxkama va uning boshlig`i amir qo`shini xazinasi bilan shug`ullangan. Ko`shimcha bir yilda to`rt marta maosh to`lagan. Davlatni idora etishda **"soxib al-borid"** devonining axamiyati xam juda katta bo`lgan. Bu devon davlat axamiyatiga molik bo`lgan xujjatlarni va xabarlarni etkazish bilan shug`ullangan. Devonning xamma shaxar va viloyatlarda maxalliy maxkamalari bo`lgan.

**"Muxtasiba"** devoni bozorlarni, sotuvchilarni, quloqboshlarning og`irligi, bozordagi mollarning narxini, sifatini nazorat qilgan.

Davlat xazinasining daromadlarini va xarajatlarini **"mushrif"** devoni nazorat qilgan. Bundan tashqari **"qozi az-ziya"** va **"vaqf"** devonlari bo`lgan. "Kozi az ziya" devoni davlat erlarini, "vaqf" devoni xadya etilgan erlarni va musulmon ruxoniylarining boshqa mol-mulklarini nazorat qilishgan.

Devonlarning aytarli xammasini viloyatlarda boshqarmalari bo`lgan. Devonlarning viloyatlardagi boshqarmalari bir tomondan o`z devonlariga, ikkinchi tomondan viloyat xokimiga bo`ysunishgan. Bundan faqat "Soxib alt borid" devonining amaldorlari mustasno bo`lgan.

Viloyat va tumanlar amir tomonidan tayinlangan xokimlar tomonidan idora qilingan. Odatda bunday lavozimga maxalliy boy zodagonlar tavsiya etilgan. Somoniylar davlatida musulmon ruxoniylarning ta`siri nixoyatda kuchli bo`lgan. Ular markaziy xokimiyat ishlarida xam faol ishtirok etganlar. Somoniylar davlatining diniy xayotida xanifiylar mazxabiga mansub ruxoniylar xamma diniy lavozimlarni o`z qo`llariga olishgan. Ruxoniylarning boshlig`i "ustod", keyinchalik **"SHayx ul-islom"** deb atalgan. "Ustod" dan so`ng o`z lavozimi bo`yicha ruxoniylar orasida **"xatib"** turgan. U jome` masjidlarida juma namozida xutba o`kish xuquqiga ega bo`lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi islom olamining eng nufuzli markazlaridan biriga aylanadi. Movarounnaxrdagi dastlabki madrasalarning bu erda barpo etilishi xam bejiz emas.

Er egaligining quyidagi shakllari mavjud bo`lgan:

**Mulki sultoniy** - shaxsan amirga tegishli er-suv, tegirmon, do`konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olganlar. YAna er egaligining tu`ma (umrbod berilgan er), iqto` (merosiy) turlari bo`lgan.

**Xususiy shaxslarga tegishli mulk:** xukmdor tabaqa xonadoni, dexqon-zodagonlarga, sayyidlar, badavlat savdogarlarga tegishli mulklar xisoblangan. SHartli er egaligi xam bo`lgan.

**Vakf mulklari:** diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk. Bu mulkni muassasa mutavallisi boshqargan. Jamoa **mulki:** yaylov, tog` yonbagirlaridagi lalmi erlar.

Xiroj xajmi shariat va davlat qonunlari asosida belgilangan. Somoniylarning birgina Buxoro va Karmana viloyatlari xirojidan tushgan daromadi 116866 dirxamni tashkil qilgan.

Somoniylar davrida erlar qaytadan taqsim qilindi. Er egalarining yangi guruxi tashkil topdi. Ularning ko`pi sipoxiylardan CHiqqan edi. Masalan, Alpteginning Xurosonda va Movarounnaxrda 500 qishlog`i bo`lib,

biror shaxar yo`q ediki, unda uning qasri yo bog`i, yoxud karvonsaroyi bo`lmasa. Uning tasaruffida minglab otlar va chorva mollari bo`lgan.

Somoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnaxr va Xurosonda ma`lum barqarorlik qaror topdi. Bu xolat mamlakat iqtisodiy xayotiga katta ta`sir ko`rsatdi. Dexkonchilik, xunarmandchilik va savdo tez sur`atlar bilan rivojlana boshladi. Movarounnaxr va Xuroson bu vaqtda Sharqning iqtisodiy jixatdan eng rivojlangan o`lkalaridan xisoblangan. Tarixchilar va geograflar bu borada juda yaxshi ta`riflar yozib qoldirganlar. Ular, bu erlar juda serxosil, tabiiy boyliklarga boy, unda ko`plab qishloq va shaxarlar borligini axoli uchun kerakli xamma narsalar mavjudligini zo`r extiros bilan bitganlar.

Xuroson va ayniqsa, Movarounnaxr dexqonchilik o`lkalari qatoriga kirgan. Bu erlarda dexqonchilik asosan sun`iy sug`orishga asoslangan. Ko`plab soy va daryolardan chiqarilgan katta-kichik kanallar mavjud bo`lgan. Buxoro voxdsida SHopurkon, SHoxrud, Karmana, Poykand, Samarqand voxasida Barj (Darg`om), Barmsish, Buzmadisoy, Ishtixon kabi kanallar shaxar va qishloqdarni suv bilan ta`minlagan. Bundan tashqari bunday kanallar Xorazm, Kashqadaryo, Farg`ona va SHoshda xam bo`lgan. Manbalarga Karaganda SHosh axolisi xalifa Mutasimga (833-842) murojaat qilib voxada suv etishmasligi tufayli kanal qurilishiga yordam so`ragan. Sun`iy sug`orishga asoslangan dexqonchilikdan tashqari lalmikor dexqonchilik xam yaxshi yo`lga qo`yilgan.

Dalalarda bug`doyning turli navlari, arpa, sholi va boshqa boshoqli ekinlar ekilgan. Kishloq xo`jaligida paxta etishtirishga aloxida axamiyat berilgan. Paxta, ayniqsa, Zarafshon, Kashqadaryo va Marv voxasida ko`p ekilgan. Bogdorchilik xam yaxshi rivojlangan. Bog`larda olma, shaftoli, nok, bexi, anor, anjir, yong`oq kabi turli mevalar etishtirilgan. Uzum etishtirish. yaxshi yo`lga qo`yilgan. Ayniqsa, Samarqand, Marv, Xirotda etishtirilgan uzumlar juda qadrlangan. Umuman Xuroson va Movarounnaxrning mevalari o`zining turli navlari va юqori sifatliligi bilan butun Sharqda dong taratgan. Juda ko`p quruq mevalar Evropaning turli shaxarlariga jo`natilgan.

